

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Saodat SULTONSAIDOVA,
O‘lmas SHARIPOVA**

O‘ZBEK TILI STILISTIKASI

**5320400 – xalqaro jurnalistika
5141100 – o‘zbek tili va adabiyoti**

(Oquv qollanma)

TOSHKENT – 2009

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi nashrga tavsiya etgan.**

Saodat Sultonsaidova,
O'lmas Sharipova. **O'zbek tili
stilistikasi**: – T.: «YURIST-MEDIA
MARKAZI» nashriyoti, 2009. — 112 b.

«**O'zbek tili stilistikasi**» fanidan yozilgan ushbu o'quv qo'llanmada «Ozbek tili stilistikasi»ning ikki bo'limi: «Nutq stilistikasi» va «Til stilistikasi», shuningdek, «Sintaktik figuralar», «Troplar» batafsil yoritib berilgan. Mazkur qo'llanmada til stilistikasi «Fonetik stilistika», «Leksik stilistika», «Grammatik stilistika» deb uchga ajratilgan va ularning har biri o'zira xos tarzda yoritib berilgan.

Ushbu qo'llanma Oliy o'quv yurtlarining jurnalistika va filologiya fakul'tetlari bakalavr yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan va Davlat standartlariga mos keladi.

Taqrizchilar: **R. Rasulov,**
filologiya fanlari doktori, professor;
X. Mahamadaliyev,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas'ul muharrir: **Salima Badalboyeva**

ISBN 978-9943-337-33-6

© Saodat Sultonsaidova, O'lmas Sharipova,
© «YURIST-MEDIA MARKAZI»
nashriyoti, 2009-y.

SO‘ZBOSHI

Mustaqillikka erishganimizdan keyin hayotimizga ko‘plab yangiliklar kirib keldi. Har kungi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy, huquqiy, ilmiy muloqotlarda foydalanilayotgan so‘zlar, iboralarning ishlatilish doirasi, yozma va og‘zaki shakllari o‘zgarib, kengaymoqda. Shuningdek, ulardan foydalanish qoidalari, tartiblari, usullari ham rang-baranglashib bormoqda. Bunday o‘zgarishlar, yangilanishlar hamma sohada, shu jumladan, Oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar doirasida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Bu jarayon dastlab Davlat ta‘lim standartlarini, shu asosda o‘quv rejalari va fan dasturlarini yangilashdan boshlandi. O‘tmishdan qolgan darsliklarni qayta ko‘rib chiqish, ularning mazmunini jahon standartlari talablari darajasiga muvofiqlashtirish kun tartibiga qo‘yildi.

Oliy ta‘lim muassasalari filologiya va jurnalistika fakultetlarida o‘qitilib kelinayotgan «O‘zbek tili stilistikasi» fani bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalari yetarli emas edi. Shu paytgacha 1983-yilda nashr qilingan A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo‘ng‘urov, H. Rustamovning «O‘zbek tili stilistikasi» va 1992-yilda chop etilgan R. Qo‘ng‘urov, E. Begmatov, Y. Tojiyevning «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» nomli o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanib kelindi.

Mustaqillikdan so‘ng gazeta va jurnallar sonining ko‘payib ketishi tufayli matbuot tilining rivojlanishi stilistika fani bo‘yicha mavjud darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yangicha talablarga javob beradigan tarzda yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu qo‘llanmaning yuqoridagi qo‘llanmalardan farqi shundaki, bunda barcha mavjud ma‘lumotlardan tahlil asosida foydalanilgan va yangi ma‘lumotlar kiritilgan. Nazariy fikrlarni dalillovchi misollar bugungi kun matbuoti va adabiyotlaridan olingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma bir-birini taqozo etuvchi 2 qismdan iborat: ya‘ni nazariy va amaliy. Nazariy qism nutq stilistikasi va lisoniy stilistikadan iborat. Nutq stilistikasi so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy stilni qamrab oladi. Lisoniy stilistikada esa

fonetika, leksikologiya, grammatikaning stilistik imkoniyatlari yoritilgan.

Ushbu qo'llanmaning yaratilishida o'zbek tili stilistikasi bo'yicha yozilgan o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, dissertatsiyalar va ularning avtoreferatlari, ilmiy maqolalar, shuningdek, rus tili stilistikasi bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan nazariy material sifatida foydalanildi. Ular «Foydalanilgan adabiyotlar» ro'yxatida ko'rsatilgan.

Qo'llanmada *stilistika* va *stil* terminlaridan foydalanildi. Bunga sabab, *birinchidan* — tilshunoslik terminlari — grammatika, morfologiya, sintaksis, fonetika, leksikologiya kabilarning shu paytgacha o'zgartirilmagani bo'lsa, *ikkinchidan* — uslub va uslubiyat so'zlarining amaliyotda metodika, metod ma'nolarida ham qo'llanilishidir. Shundan kelib chiqqan holda, qo'llanmada *stilistika* terminining ishlatilishini o'rinli, deb hisoblaymiz.

Mazkur qo'llanmaning maqsadi talabalarga yozma va og'zaki matn tuzishlarida til qurilishining asosiy birliklari: tovush, leksema, frazema, morfema, birikma, gaplardan o'rinli va unumli foydalanish usullarini o'rganishlarida yordam berishdir. Shu asosda o'zlari egallaydigan mutaxassisliklari asoslarini yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlashdir.

«O'zbek tili stilistikasi» o'quv qo'llanmasining nazariy qismi, ya'ni «Stilistika fan sifatida», «Nutq stilistikasi» va «Lisoniy stilistika»ning barcha bo'limlari, «Sintaktik figuralar», «Troplar» filologiya fanlari nomzodi, dotsent Saodat Sultonsaidova, amaliy mashg'ulotlarning barcha mashqlari va testlar filologiya fanlari nomzodi, dotsent O'lmas Sharipova tomonidan tayyorlangan.

STILISTIKA FAN SIFATIDA

Reja:

1. Stilistika fani, maqsadi va vazifalari.
2. Stil soʻzining maʼnolari.
3. Stil turlari.
4. Nutq stilistikasi yoki tilning vazifadosh stil turlari:
 - a) soʻzlashuv stili;
 - b) rasmiy stil;
 - d) ilmiy stil;
 - e) publitsistik stil;
 - f) badiiy stil.
5. Xulosa.

Stilistika — grekcha «stylos» soʻzidan olingan boʻlib, «suyakdan qilingan uchli tayoqcha» degan maʼnoni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtachaga uchli tayoqcha bilan yozar edilar. Bu tayoqchanning tepa tomoni kurakchaga oʻxshar edi. Xato yozilgan soʻzni tayoqchanning kurakchaga oʻxshagan tomoni bilan taxtachadagi mumni tekislash orqali oʻchirar edilar va uchli tomoni bilan toʻgʻrilab yozardilar.

Stil soʻzidan stilet — ingichka xanjar va stilo — avtoruchka soʻzlari kelib chiqqan.

Qadimdan oq stil soʻzi «boʻgʻin, nutq stili» maʼnosida qoʻllana boshlangan. Goratsiyning «Agar sen oʻqish uchun loyiq narsa yozmoqchi boʻlsang, stilingni tez-tez almashtirib tur. Dunyoqarashi toʻr odamlarni qoyil qoldira olmasang, kuyinib oʻtirma, ozgina boʻlsa ham tushungan odamlar bilan qoniq» deb yozib qoldirgan jummalari ichidan «stilingni tez-tez almashtirib tur» degan ifodasi keyinchalik greklarda maqolga aylantirib ketgan.

Demak, odamlarning koʻngliga urmaydigan, foydali maʼlumot beradigan biror narsa yozish uchun stilni tez-tez almashtirib turish lozim ekan.

Izohli lugʻatlarda stil soʻzining bir necha maʼnolari berilgan. 1935—1940-yillarda D.N.Ushakov tahriri ostida nashr etilgan «Толковый словарь русского языка» kitobida stil soʻzining 4 xil maʼnosi berilgan. Bu maʼnolar 1981-yilda chop etilgan «Oʻzbek tilining izohli lugʻati»da ham tarjima qilinib, izohlangan. Ular quyidagilar:

1. Biror sanʼat asarining, biror ijodkor, davr, millatning oʻziga xos belgilari yigʻindisi. Masalan: arxitekturadagi sharqona stil (naqshinkorlik, gumbazli binolar).

Koʻrinadiki, stil soʻzining 1-maʼnosi juda keng tushunchani ifodalaydi, yaʼni badiiy ifodalar yigʻindisi yoki badiiy ifodalarning umumiy tizimi tushuniladi. Bunda adabiyot nazarda tutilmaydi.

2. Biror adabiy asar, adabiy yoʻnalish, adabiy janr yoki biror muallifga xos boʻlgan gʻoya va til vositalarining tizimi orqali izohlanadi. Masalan, A. Qahhor stili, Oybek stili. Poetik stil, romantik stil va h.k.

Bunda fikr ifodalash stillari ham tushuniladi. Masalan, koʻtarinki stil, loʻnda stil va boshqalar. Gʻ.Gʻulomning «Sen yetim emassan» sheʼri koʻtarinki stilda yozilgan. A.Qahorning stili fosh qiluvchilik xususiyatiga ega. Uning asarlarida zaharxanda iboralar, maqol va matallar koʻplab uchraydi. Masalan, «Sinchalak» qissasida Arslonbek Qalandarov shunday deydi: «*Sinchalak degan oyogʻi ipday ingichka qush bor. U kechasi oyogʻini osmonga koʻtarib yotadi, osmon tushib ketsa, koʻtarib qolaman*». Saida esa unga javoban deydi: «*Xoʻroz ham «men gichqirmasam, tong otmaydi*», der ekan. «Mayiz yemagan xotin» hikoyasida bunday fosh qiluvchi jumlar juda koʻp. Yozuvchi Oybekka esa keng koʻlamlilik xos, masalan, Oybekning «Navoiy» romanidan quyidagi parchaga eʼtibor beraylik:

Shoir «Xiyobon» koʻchasidan oʻtib, «Bogʻ zagʻon»ning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib bilan kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib, darrov otning jilovidan ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da, «Bogʻ zagʻon»ga kirdi. Bu — turli qasrlar, koʻshklar va boshqa goʻzal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy gʻoyat katta bogʻ edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan ola chalpoq yoʻldan borib, bir necha tanob joyni ishgʻol etgan katta gulzorlarga chiqdi. Bu yerga goʻyo butun dunyoning

gullari to'plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko'zlarni qamashtirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek, to'xtab, zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga — devorlari, ustunlari, eshiklari naqqoshlar qo'li bilan yasalgan naqsh gulzorini toblantirgan tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o'ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham bir xonaga kirdi. Bu yerda uni do'sti Ho'ja Afzal qarshi oldi. Bu — past bo'yli, tiyrak ko'zli, xushmuomala, qariyb o'zi bilan tengdosh kishi edi.

3. Ko'chma ma'noni ifodalaydi. Bunda xulq, axloqqa xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisi, faoliyat usuli, biror ishni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari kabilar tushuniladi.

4-xil ma'no adabiyotga ham, tilga ham xos emas. Bu davrga, yil hisobiga nisbatan ishlatiladi. Masalan, melodiy yil hisobi, hijriy yil hisobi.

Stil so'zining ma'nolari bilan tanishishdan ma'lum bo'ldiki, 2-ma'no bilan bog'liq holda stilistika fani vujudga kelgan.

Stilistika fanining o'rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko'rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funksional stillarini o'rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikaning vazifasi uning struktural elementlari bo'lgan rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy stillarning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o'rgatishdir.

2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv-stilistik) ma'no va tez ta'sir qilish tomonlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi. Uning vazifasi tilning barcha stillar tizimi bilan birga yozma va og'zaki shakllari, adabiy va so'zlashuv nutqi ko'rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og'zaki nutqda ko'proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri olinganligi, shu vositalarning o'rnida ishlatish yo'llarini o'rganadi.

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi stilini tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda yozuvchining ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida

bahs yuritishdir. Stilistika fani akademik V.Vinogradov ko'rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning obyektidir. Aslini olganda, badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko'rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko'rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq stillaridan anchagina farqli jihatlarga ega. Badiiy adabiyot stili keng qamrovliligi, ya'ni barcha stillarni ham o'zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Demak, stilistika ikki xil ko'rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so'zlashuv stili, rasmiy stil, ilmiy stil, publitsistik va badiiy stil kiradi.

2. Lingvistik, ya'ni til stilistikasi. Uning turlari:

a) fonetik stilistika

b) leksik stilistika

d) grammatik stilistika.

NUTQ STILISTIKASI

Bu tushuncha adabiyotlarda funksional stilistika yoki funksional stil turlari deb ham yuritiladi.

Nutq stillari bir-biriga bog‘liq vositalarning tuzilishidan tashkil topadi. Ular tilning vazifasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ham ular *nutq stillari* deyiladi. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq va uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi.

Nutq stili tizimini tashkil etuvchi ifodalar faqat bir stil doirasida cheklanib qoladi. Masalan, ilmiy stilda ishlatiladigan terminlar badiiy, publitsistik, rasmiy va so‘zlashuv stillarida ishlatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir nutq stili o‘zining barcha xususiyatlari bilan yagona bir maqsadga bo‘ysungan muayyan til vositalarining majmuasiga ega.

Nutq stillari til taraqqiyotining ma‘lum bir davrida asta-sekin shakllanadi va o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining kengayib ketishi bilan bog‘liq tarzda O‘zbekistonda publitsistik stil vujudga kelgan.

Nutq stillari og‘zaki va yozma nutq shakllari bilan chambarchas bog‘liq. Demak, har bir nutq stili og‘zaki va yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, so‘zlashuv stili, asosan, og‘zaki nutqqa xos. Lekin badiiy adabiyotda bu stil yozma shaklga ega bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy stilning og‘zaki ko‘rinishi dars jarayonida ma‘ruza o‘qilganda, anjumanlarda ilmiy ma‘ruzalar bayon qilinganda namoyon bo‘ladi, yozma shakli esa dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar tarzida ifodalanadi.

Nutq stillari o‘ziga xos belgilari va farqlaridan qat’i nazar, adabiy til me‘yorlari asosida umumiylikka ega.

Adabiy me‘yor nima? Adabiy me‘yor atamasiga «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da shunday sharh beriladi:

«Adabiy me‘yor til tovush tizimini, grammatik ko‘rinishi va lug‘at tarkibidagi eng hayotiy va zaruriy vositalarni tanlab olish demakdir. Adabiy me‘yor tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlangan shaklidir».

Adabiy me'yor tilning faqat yozma ko'rinishigagina emas, balki og'zaki shakliga ham xosdir. Shuning uchun ma'ruza o'qilayotganda, radio va televideniyaedagi chiqishlarda ham adabiy me'yorga rioya qilish talab qilinadi. Shu bilan birga, uning adabiy me'yordan chetga chiqadigan tomonlari ham mavjud. Masalan, so'zlashuv stilida shevaga xos so'zlar ham ishlatiladi. Bu adabiy me'yorga zid, lekin stil me'yori hisoblanadi. Badiiy stilda yozuvchi yoki shoir shunday so'zlarni yaratishi mumkinki, ular hali me'yorlashtirilmagan bo'lishi mumkin, lekin stil me'yori sifatida qolaveradi. Adabiy me'yor bilan stil me'yoringa o'zaro munosabati, ya'ni mushtarak va farqli xususiyatlari bo'yicha dissertatsiyalar yaratilgan. Masalan, A.E.Mamatovning «Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari» nomli doktorlik dissertatsiyasi (1991-yil), S.Toshaliyevaning «O'zbek tilida okkazonalizmlar» nomli nomzodlik dissertatsiyasi (1998-yil) kabilarni ko'rsatish mumkin.

Funksional stil turlari quyidagilar:

- 1) so'zlashuv stili;
- 2) rasmiy stil;
- 3) ilmiy stil;
- 4) publitsistik stil;
- 5) badiiy stil.

Nazorat savollari

1. Stilistika fani nimalarni o'rganadi?
2. Stil so'zi qanday ma'nolarni bildiradi?
3. Akademik V.V.Vinogradov stilistika fanining vazifalarini nechta aspektga bo'ladi va ular qaysilar?
4. Stilistika necha xil ko'rinishga ega?
5. Nutq stili nima?
6. Adabiy me'yor nima? Adabiy me'yor bilan stilistik me'yor o'rtasidagi munosabat to'g'risida nimalarni bilasiz?

Tayanch ifodalar

Stilos – suyakdan qilingan tayoqcha.

Stil – nutq stili ma'nosida qo'llangan.

Stil – stilet (ingichka xanjar va stilo – avtoruchka so'zlari kelib chiqqan).

Struktural stilistika – tilning vazifadosh stillarini o'rganuvchi stilistika.

Lingvistika – til.

Adabiy me'yor – tilning eng yuksak, ishlangan, sayqallangan ko'rinishi.

Funksional – vazifadoshlik.

Okkazionalizm – har bir ijodkorning stiliga xos bo'lgan, u yaratgan so'zlar.

Leksik va frazeologik me'yor – hamma tomonidan ishlatiladigan, hammaga tushunarli bo'lgan so'z va iboralarning qo'llanilishi.

Mushtarak – barcha stil uchun umumiy.

SO‘ZLASHUV STILI

Reja:

1. So‘zlashuv stilining ko‘rinishlari.
2. So‘zlashuv stilining fonetik xususiyatlari.
3. Leksik-frazeologik xususiyatlari.
4. So‘zlashuv stilining grammatik xususiyatlari.

So‘zlashuv stili — nutqning dialogik shaklidir. Bu stil yozma nutqqa qaraganda ta’sirchanligi, hissiyotga boyligi, yangi so‘z qo‘llashlar mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu stilda so‘zlovchining barcha imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. U nutqiga hissiyotini ham qo‘shib gapiradi. Bunda turli imo-ishora va qo‘l harakatlaridan foydalaniladi. Bu vositalar nutqda aytilmay qolishi mumkin bo‘lgan so‘z va iboralarning o‘rnini to‘ldiradi va bayon qilinayotgan fikrni yanada aniqlashtiradi. Bu stilda to‘liqsiz gaplar ishlatiladi, chunki tushirilgan qism boshqa bir replikada yoki boshqa bir nutq vaziyatida ifodalanishi mumkin. So‘zlashuv stilining ikki xil ko‘rinishi bor:

- 1) adabiy so‘zlashuv stili;
- 2) oddiy so‘zlashuv stili.

Adabiy so‘zlashuv stilida o‘qituvchilar, suxandonlar, jurnalistlar, ilmiy xodimlar, yozuvchi va shoirlar, rahbar xodimlar, artistlar gaplashadilar. Bu stil dars jarayonida, sahna nuqtida, kino san’atida, telefilmlar, axborotlar, teleocherklar, radioinseniroykalarda ishlatiladi. Adabiy so‘zlashuv stilida jargon va sheva so‘zlari bo‘lmaydi. Oddiy so‘zlashuv stilida betakalluflik bilan erkin muomala qilinadi. Bunda shunday so‘zlar ishlatiladiki, ular adabiy tilda bo‘lmasligi mumkin. Lekin bunday so‘zlar badiiy nutqdagi ayrim personajlar nutqining o‘ziga xosligini ta’minlash uchun qo‘llanishi mumkin. Oddiy so‘zlashuv nutqi dialektal nutqni ham aks ettiradi. So‘zlovchi qaysi dialekt vakili bo‘lsa, shu dialektda gapirishi mumkin. Masalan, *shi, mashi, qaydam, qaytayin, shulaymi, jaa, bo‘pti* kabilar oddiy so‘zlashuv stiliga xos.

Har bir stil turi fonetik, leksik-frazeologik va grammatik xususiyatlariga ega.

So‘zlashuv stilining fonetik xususiyatlari

Bu stilda ham adabiy tilga, ham og‘zaki nutqqa xos talaffuz xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Bu stilga xos talaffuz me‘yorlarini 2 turga bo‘lib o‘rganamiz:

Birinchisi — aktyorlar, o‘qituvchilar, suxandonlar, notiqlar nutqiga xos bo‘lib, bunda har bir so‘z dona-dona talaffuz qilinishi, nutqning fonetik bo‘laklari: fraza, takt to‘g‘ri ajratilishi lozim.

Ikkinchisi — oddiy so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, adabiy talaffuzdan farqlanuvchi va unga qarama-qarshi bo‘lgan xususiyatlar ifodalanishi mumkin.

Ular quyidagilar:

1. So‘z boshidagi **i** tovushi juda qisqa talaffuz qilinishi mumkin: *(i)p, (i)lon, (i)t, (i)sh* kabi.

2. So‘z oxiridagi **q** tovushi **v** tarzida aytiladi: *qoshiq-qoshuv, so‘roq-so‘rov, oshiq-oshuv* kabi.

3. Kishi ismlari qisqartirib aytiladi: *Muazzam-Muaz, Nozima-Nozi, Salima-Sali, Bahodir-Boho, Baxtiyor-Baxti* kabi.

4. So‘z tarkibidagi tovushlarning tushib qolishi: *Bo‘lsa-bo‘sa, tashlamoq-tashamoq, quflamoq-quflamoq* kabi.

5. So‘z tarkibidagi tovushlarning o‘rin almashishi: *La‘nat-na‘lat, sharpa-shapra, Sarvi-Savri, Saltanat-Santalat* kabi.

6. So‘zlarda tovushlarning orttirilishi: *Ayvon-hayvon, yechmoq-chechmoq, yangidan-yangitdan, qamchi-qamchin* kabi.

7. So‘zlarda bir tovush o‘rniga boshqasining qo‘llanishi: *nusxa-nusqa, qamish-qamich, munchoq-mo‘nchoq yoki bo‘nchoq, bog‘lamoq-bo‘lamoq* kabi.

8. Qo‘shinichalar qo‘shilishi natijasida so‘z asosining qisqarishi: *olibdi-opti, kelibdi-kepti, bo‘libdi-bo‘pti* kabi.

Bunday holatlarni ko‘plab uchratish mumkin.

So‘zlashuv stilining leksik-frazeologik xususiyatlari

Bu stilda ishlatiladigan faol so‘zlar lug‘at tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Bunday so‘zlar uyda, ko‘chada, ishxonada, bozorda, to‘y-tomoshada ishlatiladi. So‘zlashuv stilida qo‘llanadigan asosiy so‘zlar; *osh, non, suv, don, ovqat, tuz, shakar, go‘sh, yer, osmon, quyosh, ona, bola, ota* kabilar stilistik bo‘yoqsiz bo‘lgani uchun neytral so‘z hisoblanadi. Lekin bu stilda yana shunday so‘zlar ishlatiladiki, ular yo ijobiy yoki salbiy bo‘yoqqa ega bo‘ladi. Masalan, *churvaqa, turq, bashara, kekkaymajon, jinqarcha, qaqajon, oyimtilla, pashshaxo‘rda, itvachcha, tirrancha* kabilar salbiy bo‘yoqqa, *jujuq, jiji, tabassum, oyim, begim, polvon, do‘ndiqcha, bolatoy* kabilar ijobiy bo‘yoqqa egadir.

So‘zlashuv stilida qo‘llanadigan juda ko‘p fe‘llar salbiy bo‘yoqqa ega bo‘ladi: *akillamoq, ming‘illamoq, to‘ng‘illamoq, valdiramoq, bobillamoq, do‘g‘illamoq, andavalamoq* kabilar.

Sifatlarning ham so‘zlashuv uslubidagina qo‘llanadigan variantlari mavjud: *po‘rim, pismiq, mumsik, isqirt, so‘tak, xomkalla, xumpar, zumrasha, qoqbosh, go‘rso‘xta* kabilar.

Shuningdek, *churq etmaslik (lom-lim demaslik), kallasi g‘ovlab ketdi (miyasi g‘ovlab ketdi), ta‘bi nomozshom (ta‘bi xira, ta‘bi tirriq)* kabi iboralar ham so‘zlashuv stiliga xos.

So‘zlashuv stilining grammatik xususiyatlari

Bu stilda ritorik so‘roq gaplar, so‘roq mazmuni ifodalanadigan darak gaplar, his-hayajon gaplar ko‘plab ishlatiladi. Fe‘lning -i(b), -gan affiksli shakli -uvdi, -ovdi tarzida qo‘llanadi. Masalan, *so‘rab edi-so‘rovdi, kelib edi-keluvdi, qolgan edi-qoluvdi, bilgan edi-biluvdi* kabi. Affikslardan *-jon, -xon, -xo‘r, -vachcha, -tilla* kabilar bilan yasalgan subyektiv baho bildiruvchi otlar ham so‘zlashuv stilida ko‘plab qo‘llanadi: *qaqajon, kekkaymaxon, baloxo‘r, jinnivachcha oyimtilla* kabi.

-lar qo‘shimchasi ham so‘zlashuv stilida **-la, -na, -nar shaklida** qo‘llanilishi mumkin: **oliyla (olinglar), keliyna (kelinglar), boringnar (boringlar)** kabi.

So‘zlashuv stili ikki va undan ortiq odamlar orasida **bo‘ladigan** muloqotda ishlatiladi. Bunda dialog rol o‘ynaydi. Shuning uchun, gaplar to‘liqsiz shaklda ishlatiladi, ishlatilmayotgan gap bo‘laklarining o‘rnini nutq vaziyati to‘ldirib turadi. **Masalar, Ismingiz? Keldimi? Ketdikmi? Boshlandi** kabilar **Sizning ismingiz nima? Ustoz keldimi? Uyga ketdikmi? Kecha boshlandi** tarzida to‘liq yozi‘ladi. Nutq vaziyati esa, bu jummalarni to‘liq aytmaslikni taqozo qiladi.

Shuningdek, **gapirgan bo‘ldi, ovqatdan tatigan bo‘ldi, gapga guloq solgan bo‘ldi** kabi ifodalar ham so‘zlashuv stilida ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. So‘zlashuv stilining adabiy nutqdan qanday farqi bor?
2. So‘zlashuv stilining ko‘rinishlari qanday?
3. So‘zlashuv stilining fonetik xususiyatlari deganda **nimani** tushunasiz?
4. Ritorik so‘roq gaplar, so‘roq mazmunidagi darak gaplar, his-hayajonli gaplar ko‘proq qaysi stilga xos?
5. So‘zlashuv stilining leksik xususiyatlari nimalardan iborat?

Tayanch ifodalar

Fonetika – tovush haqidagi fan.

Subyektiv baho – muallifning munosabati.

Ritorik so‘roq gaplar – javobi mazmunidan kelib chiqib ifodalanadigan gaplar.

Stilistik bo‘yoq – qaysi stilda qo‘llanishini ko‘rsatish belgisi.

Fraza – mazmunan tugal fikr anglatadigan gapga teng bo‘lgan fonetik birlik.

Takt --- frazaning bir qismi bo‘lib, yarim to‘xtam bilan ajraladigan bir yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lak.

RASMIY STIL

Reja:

1. Rasmiy stilning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Rasmiy stilning ko'rinishlari.
3. Rasmiy stilning fonetik xususiyatlari.
4. Leksik-frazeologik xususiyatlari.
5. Rasmiy stilning grammatik xususiyatlari.

Rasmiy stil diplomatik yozishmalarda, iqtisodiy, davlat idoralaridagi, sudlarda, savdoga doir, yuridik munosabatlar ifodasi bo'lgan hujjatlarda ishlatiladi, ya'ni bu stil ish yuritish hujjatlarida qo'llaniladi. Bunga ariza, tushuntirish xati, e'lon, tarjimayi hol, ishonch qog'ozi, tilxat, hisobot, rasmiy notalar, buyruq va farmonlar, farmoyishlar, taklifnoma, rasmiy xatlar, tijorat yozishmalari kabilar kiradi. (Bu rasmiy qog'ozlarning qanday yozilishi haqida M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudovning «Ish yuritish» nomli kitobidan har tomonlama ma'lumot olish mumkin).

Bu stilda adabiy me'yorga qat'iy rioya qilinadi, shevaga xos so'zlar, jargonlar, har xil stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar ishlatilmaydi. Jumlar ham inversiyasiz bo'lishi lozim. Gaplarda ta'sirchanlik bo'lmaydi. Rasmiy stilda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o'xshash maxsus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma'lumotnomalar, qarorlarni ko'rsatish mumkin. Agar pul, buyum miqdori ko'rsatilishi lozim bo'lsa, oldin raqam bilan, so'ng qavs ichida **harflar bilan yoziladi**.

Hujjatlarda fikr aniq, qisqa, lo'nda (ravon) bayon qilinishi lozim. Bunda xatboshi (abzas)ning o'rni muhimdir. Har bir yangi, alohida fikr xatboshi bilan ajratilishi, bir xatboshi bilan ikkinchi xatboshi o'rtasidagi matn to'rt-besh jumladan oshmasligi me'yorga mosdir.

Hujjatchilikda imlo va tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Hujjatning nomi bosh harf bilan yoziladi. Agar bosma matn bo'lsa, hujjat nomining har bir harfi bosh harf bilan yoziladi. Hujjatning nomidan so'ng hech qanday belgi qo'yilmaydi.

Diplomatik hujjatlar shakli va soʻz qoʻllanishi jihatidan oʻziga xos koʻrinishga ega. Ularni yozishda hujjatning qay shaklda boʻlishiga eʼtibor berish muhimdir. Maʼlumki, diplomatik yozishmalar bir davlatdagi oddiy korxonalar yoki tashkilotlar orasida boʻlmaydi. Ular boshqa-boshqa davlatlar oʻrtasida boʻlgani uchun hujjat yuborilayotgan mamlakat anʼanalari hisobga olinadi. U yoki bu davlatga hujjatning qaysi turi yuborilayotgan boʻlsa, xuddi shu turi bilan javob qaytariladi. Diplomatik hujjatlarga bayonot, rasmiy nota va xatlar, ilova xatlar, yarimrasmiy shaxsiy xatlar, diplomatik protokol — qaydnomalar, memorandumlar va boshqalar kiradi.

Diplomatik yozishmalarda hujjat yuborilayotgan mamlakatning nomlanishida, shaxsning ismi-sharifi va lavozimini yozishda, unga qilinayotgan murojaat ifodalarida xatoga yoʻl qoʻyilishi mumkin emas. Chunki xatolar bepisandlik, hurmatsizlik sanaladi. Bu hujjatlar tashqi koʻrinish jihatidan ham nuqsonsiz boʻlishi, fikr aniq, toʻgʻri, mantiqiy, izchil, asosli va ikkinchi tomonning xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etilishi zarur.

Rasmiy stilda fonetik xususiyatlar boʻlmaydi. Chunki unda talaffuzga xos belgilar uchramaydi, adabiy meʼyorga qatʼiy rioya qilinadi.

Rasmiy stilning leksik xususiyatlari

Asli rasmiy stilda boʻyoqdor soʻzlar ishlatilmaydi. Lekin diplomatik yozishmalarda boʻyoqdor soʻzlar boʻlishi taqozo qilinadi. Unda maqtov ifodalari: ***hurmatli janob, janobi oliylari, Sizga boʻlgan hurmatimga ishonch bildirgaysiz, bosh ustiga, boshimiz koʻkka yetdi, eng samimiy tabrik, ezgu tilaklar ila, Sizga chuqur hurmat bilan, minnatdorlik izhor etaman*** kabilar faol ishlatiladi.

Rasmiy stilda jargonlar, shevaga oid soʻzlar, eskirgan soʻz va birikmalar odatda ishlatilmaydi. Oʻrni bilan arxaizm va istorizmlardan foydalaniladi: ***shahzoda, shoh, malika, janob, hazrati oliylari*** kabilar.

Yuridik hujjatlardan Konstitutsiyada ham har bir soʻz va jumla fikr-mulohazaning aniq, toʻgʻri ifodalanishiga xizmat qilishi lozim. Unda kasb-korga, yuridik, diplomatik, maʼmuriy va boshqa hujjatlarga oid terminlar mavjud: ***akt, guvohnoma, qaror, elchi, nota, shartnoma, bayonot, deklaratsiya, vizit, kodeks, qonun, modda, poshlina, protest (shikoyat), kassatsiya*** kabilar.

Rasmiy stilning grammatik xususiyatlari

Bu stilning ariza, tushuntirish xati, tilxat, taklifnoma kabi ko‘rinishlari jumalarning qisqaligi va fikrlarning aniqligi bilan ajralib turadi. Hujjatlardagi nutqiy shtamplar matnga rasmiylik belgisini kiritadi.

Hujjatlarda ot turkumiga oid so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Hatto fe‘l ishlatilganda, uning otga yaqin shakli — harakat nomidan foydalaniladi. Masalan, **qabul qilishingizni so‘rayman, qarorning bajarilishi, stipendiya tayinlash, talabalar safga tiklash** kabilar.

Fe‘llar majhul nisbatda va buyruq-istak mayli shaklida qo‘llaniladi: **qaror qilindi, ko‘rib chiqildi, eshitildi, bajarilsin, tayinlansin, amalga oshirilsin** kabilar.

Yuridik qonun va hujjatlarda jumalar juda uzun, ba‘zan bir fikr yarim betlik gap orqali ifodalanadi (Qonunlardan parchalar o‘qiladi).

Konstitutsiya o‘z tuzilishiga ko‘ra bob va bo‘limlarga bo‘linadi. Demak, har bir bo‘limdagi matn bir-biri bilan bog‘lanishi, biri ikkinchisini taqozo qilishi lozim. Shunday ekan, bunda bog‘langan qo‘shma gaplar, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar va ergash gapli qo‘shma gaplarning ayrim turlari shu vazifani bajarishga xizmat qiladi. Chunki bunday qo‘shma gaplarda ketma-ket ro‘y beradigan, bir vaqtda yuz berishi mumkin bo‘lgan, sabab-oqibatli, ziddiyatli voqea-hodisalar ifodalanadi.

Ba‘zi bir yuridik hujjatlarda shaxslar o‘z nomi bilan atalmasdan ularning muhim belgilari ifodalangan birikmalar ishlatilishi mumkin: **uyni ijaraga oluvchi, o‘g‘il qilib oluvchi, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslari, yuqori martabali mehmon** kabilar.

Hujjatlardan shartnomalar ham murakkab sintaktik qurilishga ega. Uning kirish qismi, alohida bandlarini ko‘rsatuvchi matnlar xatboshilarga ajratilgan bo‘ladi. Bunday xususiyat matnni o‘qishni va tushunishni birmuncha yengillashtiradi.

Hujjatlarda shartli qisqartmalar, turg‘un birikmalar ko‘p ishlatiladi. Masalan: harbiy hujjatlarda **Oliy Bosh Qo‘mondon, Mudofaa vazirligi, Bosh shtab, Qurolli kuchlar, Harbiy gospital** kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Nazorat savollari

1. Rasmiy stilning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Rasmiy stilning qanday ko'rinishlari bor?
3. Rasmiy stilning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ayrim hujjatlarning sintaktik qurilishi murakkab bo'ladi?
5. Diplomantik hujjatlar qaysilar va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Tayanch ifodalar

Akt – biror ishni, yuridik fakti tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Bayonot – diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va shu kabilar haqida manfaatdor tomonlar, umum axboroti uchun og'zaki yoki yozma ravishda e'lon qilingan rasmiy bildirish, shu haqdagi hujjat.

Deklaratsiya – biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy suratda e'lon qilingan bayonnoma, hukumat yoki partiya tantanali suratda e'lon qilgan asosiy qonun-qoidalar.

Diplomatik – diplomatiyaga, davlatning chet mamlakatlari bilan bo'ladigan munosabatlariga va diplomatlarga oid.

Vizit – rasmiy suratda biror elda, bir shaxs huzurida qisqa fursatda bo'lish, tashrif buyurish, tashrif.

Kassatsiya – sud hukmidan norozi bo'lib, ishni qayta ko'rish to'g'risida yuqori sud tashkilotlariga shikoyat qilish yoki ariza.

Kodeks – huquqning biror sohasiga oid tartibga solingan qonunlar to'plami.

Nota – bir davlatning ikkinchi bir davlatga yuboradigan rasmiy xati.

Inversiya – gapda so'zlar tartibining o'zgarishi.

Nutqiy shtamp – qoliplashgan yoki qoli pga tushgan jumlar.

Poshlina – boj, soliq.

ILMIY STIL

Reja:

1. Ilmiy stilning turlari.
2. Ilmiy stilning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Mantiqiylik — ilmiy stilning asosi.
4. Ilmiy stilning tipik xususiyatlari.
5. Ilmiy stilning boshqa stillardan farqi.

Ilmiy stil ilmiy tadqiqotlar stilidir. Bu stil fan, texnika sohasida yaratilgan asarlarda qo'llaniladi. Shunga ko'ra u bir necha xilga bo'linadi: ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv, ilmiy-publitsistik va ilmiy-hujjat stillari. Ilmiy-texnikaviy stilda ilmiy maqola, ma'ruza va monografiya, disertatsiya yoziladi. Ilmiy-ommabop stilda axborot ommabop tarzida ilmiy jihatdan tushuntiriladi. Bunda ma'lumot sof ilmiylikdan biroz soddalashtiriladi. Va har bir sohaning ilmiy yutuqlari ommaga ma'lum so'zlar bilan bayon qilinadi. Ilmiy-o'quv stilida darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy qo'llanmalar va uslubiy maqolalar yoziladi. Ular o'quvchilar uchun tushunarli so'zlar bilan ilmiy jihatdan bayon qilinishi kerak. Ilmiy-publitsistik stilda ommabop risolalar, ilmiy-ommabop maqolalar yoziladi. Ularda ilmiy terminlar bo'lishi bilan birga ommaning hissiyotiga ta'sir qiladigan so'zlar ishlatiladi. Ilmiy-hujjat stilida ixtiro uchun olinadigan hujjat yoki unga tegishli adabiyotlar tasvirlanadi. Bunday hujjatlarda ilmiy axborot to'g'risida ma'lumot beriladi va u huquqiy jihatdan himoya qilinadi.

Ilmiy stilning har bir turi bir-biridan farq qiladi. Ammo ularni birlashtiradigan umumiy xususiyatlari mavjud. Ular sirasiga boy ma'lumotlarning keltirilishi, ularning obyektivligi, aniqligi, fikrning qisqa va lo'nda ifodalanishi xosdir. Shuningdek, ularning har birida ilmiy-terminologiyaning faol ishlatilishi muhim xususiyat sanaladi.

Ilmiy stilning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu stilda fikrlar mantiqiy jihatdan aniq, izchil, bir ma'noli bo'lishi lozim. Ilmiy stilda fikrlar faqat tushunchalarni aks ettiradi. Bu

tushunchalarning ifodasi muhokama, munozara va xulosalar shaklida bo‘lib, ular qat’iy mantiqiy izchillikka asoslangan bo‘ladi. Bu stilda mantiqiylik eng asosiy belgi bo‘lsa-da, fikr qat’iy dalillanishi kerak. Tahlil ya sintez bir-biridan ajralmagan holda qo‘llaniladi, biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Shu orqali qonuniyatlar ochiladi. Mana shu qonuniyatlar ochilishi jarayonida tafakkurning umumiy, mavhum bo‘lishi ko‘rinadi.

Shu narsani farqlash lozimki, ilmiy stilda bir tomondan — ilmiy fikrlash xususiyati mavjud, ikkinchi tomondan — uni ilmiy stilda ifodalash mumkin. Bunda fikr berilayotganda, ya’ni yozilayotganda, uning tadqiqot bosqichi bilan birga shakllantirish masalasi ham hisobga olinadi. Shuning uchun isbotlash usullari, lo‘ndalik darajasi, oddiy tasvir yoki ommalashtirish darajasi nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ichki va tashqi nutqni bir xilda baholab bo‘lmaydi. Lekin ular orasida katta farq ham yo‘q. Ular bir-birini to‘ldirib, biri ikkinchisi uchun zamin yaratadi. Lekin shuni e’tiborga olish lozimki, tafakkurning uzil-kesil ifodasi tashqi nutqda bo‘ladi.

Ilmiy stilning muhim xususiyati deb shuni ko‘rsatish lozimki, ilmiy bayon umumiy va mavhum bo‘lishiga qaramasdan, mantiqiylik yaqqol sezilib turadi. Bundan ikkinchi xususiyat, ya’ni bu stilda qo‘llanadigan lisoniy birliklarning ishlatilish darajasi va stilga xos bo‘yog‘i kelib chiqadi. Ilmiy stilning tipik bo‘lgan xususiyatlari quyidagicha:

- 1) terminlarning qo‘llanilishi;
- 2) bir ma’noilik;
- 3) obrazlilikning deyarli bo‘lmasligi;
- 4) yashirin emotsionallik;
- 5) bayonning obyektivligi;
- 6) bayonning quruq va qat’iyliги.

Ilmiy stilda fanning turli sohalariga oid ramziy belgilar, raqamlar, jadvallar, turli chizmalar va rasmlar qo‘llanishi mumkin. Masalan, kimyo fani bo‘yicha turli qisqartmalar va formulalar: **Mg** — *magniy*, **Cl** — *xlor*, **H₂O** — *suv* kabilar ishlatiladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan belgilar muallifning stiliga, ilmiy stilning mavzusiga, uni bayon qilish muhitiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy stilda emotsionallik va uslubiy bo‘yoqning bo‘lishi fan sohalariga bog‘liq. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarida bunday xususiyat mavjud. Tabiiy fanlarda bu nisbatan kamroq uchraydi. Masalan, *dengiz marjonlari*, *patsimon bulutlar*, *somon yo‘li (yulduzlarga nisbatan)*, *vulqon chamberagi*, *marjon qirg‘oq*, *oy o‘tovi*, *oq tuproq*, *qora tuproq*, *qizil tuproq*, *sariq tuproq*, *qush bozorlari*, *u har yulduz*, *dumli yulduz*, *geografik burun* kabilar.

Butun dunyoga mashhur bo‘lgan fizik olim Albert Eynshteyn «Fizika va reallik» degan maqolasida «Men tushunchaning hissiy idrokdan mantiqan mustaqil ekanligini tan olmayman», degan edi. U ilmiy tushuntirishda hajv, hazil, askiya, qiziq o‘xshatishlar qo‘shib yuborardi (R. Bekjonov. Albert Eynshteyn. — T.: «Fan», 1966). Albatta, ilmiy va badiiy stillardagi obrazlilik farqlanadi. Ilmiy stilda yuqorida keltirilgan obrazli nomlar atash vazifasini, badiiy adabiyotda estetik ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Ko‘rinadiki, ilmiy-texnik bayon ilmiy-matematik bayondan yoki qat’iy ilmiy bayon ilmiy-ommabop bayondan farqlanadi. Masalan, ilmiy-ommabop stilda yozilgan biror fanga oid kitob, maqola yoki ma’ruzalar shu fan bilan tanish bo‘lmagan kishilarga tushunarli tarzda bayon etiladi. Fikr jonli va qiziqarli shaklda ifodalanadi. Ilmiy terminlar kam ishlatiladi. Mavhum ma’noli jumlar va formulalar o‘rniga tasviriy materiallar qo‘llaniladi. Ba’zan obrazli va emotsional ifodalardan foydalaniladi. Shunga qaramay, ular ilmiy stil tushunchasining bir butunligiga, yaxlitligiga putur yetkazmaydi.

Ilmiy stil *fonetik xususiyatlarga* ega emas. Chunki ilmiy stil adabiy me’yor asosida yoziladi.

Ilmiy stilning leksik xususiyatlari

Ilmiy stil ilmiy terminologiya bilan bog‘liq. Shuning uchun terminlar ilmiy stilning leksikasini tashkil qiladi. Albatta, har qanday ilmiy asarda faqat termin qo‘llanilmaydi. Unda mavhum so‘zlar, ko‘p ma’noga ega bo‘lgan umumxalq so‘zlari ham ishlatiladi.

Bu stilda har bir so‘z umumiy va mavhum tushunchani

ifodalaydi. Masalan, tilshunoslikka oid ilmiy stilda yozilgan quyidagi parchani tahlil qilaylik:

Tilshunoslik taraqqiyotining ma'lum bosqichida birlamchi til birliklari umumlashtirilib morfema termini bilan nomlanar edi. Keyinchalik morfema terminini grammatik ma'no ifodalaydigan birlikning nomi sifatida ishlatib, leksik birlikni leksema deb nomlashga o'tildi. Bu ikki birlamchi til birligidan leksema — asosiy, yetakchi birlik, morfema esa leksemaga qo'shiladigan birlik.

Til birligi sifatida leksema ifoda va mazmun jihatlarining bir butunligidan iborat. Tub deb qaraluvchi leksemalarda ularning ifoda jihati bo'lib fonemalar xizmat qiladi. Ma'lum tovush (yoki tovushlar) lisonda leksemaning ifoda jihati bo'lib birkirilgani uchun leksema segment til birligi deyiladi. (SH. Rahmatullayev. Sistem tilshunoslik asoslari. Til qurilishini tizim sifatida o'rganish masalalari. — T.: «Universitet», 2007-y, 27-b.)

Bu parchadagi *tilshunoslik, til birliklari, morfema, grammatik ma'no, leksik birlik, leksema, fonema, lison, segment* kabilar umumiy tushunchani ifodalaydi. Jurnalistikaga oid quyidagi parchani kuzataylik:

Yangiliklar siyosiy, iqtisodiy-moliyaviy, ta'lim, ilmiy, sport, huquqiy, harbiy, ekologiya va boshqa turlarga bo'linadi. Ular matbuot nashrlari sahifalarida, tele va radio dasturlarida o'z o'rniga ega. Gazetalarda avval siyosiy yoki shov-shuvga sabab bo'ladigan yangiliklar beriladi. Iqtisodiy va boshqa yangiliklar keyingi sahifalardan doimiy o'rin egallaydi. Tele, radio yangiliklar dasturlarida ham ketma-ketlik shu tartibda ketadi.

Gazetalardagi yangiliklar ruknida yoki teleradioning yangiliklar dasturlarida birinchi o'rinda siyosiy mavzudagi yangiliklar beriladi. (Halim Saidov. Yangiliklar yozish va tahrir san'ati. — T.: 2002-y., 38-b.)

Bu matnda *yangilik, ta'lim, ekologiya, matbuot, dastur, tartib, rukn* kabi so'zlar turli ma'noni bildiradi va ular umumiy tushunchani anglatadi.

Fan, texnika, san'at, siyosat, diplomatiya sohalarida borliqni mantiqiy jihatdan bilishga qaratilganligi sababli so'z va terminlarning nihoyatda ravshan va aniq bo'lishi talab qilinadi. Lekin ular qayta-

qayta takrorlansa, bir xillikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun olimlar oldida ilmiy bayonning xususiyatiga ziyon yetkazmaydigan va uning jonli hamda ta'sirchanligini ta'minlaydigan terminlarning sinonimik variantlarini topish masalasi turadi.

Ilmiy stilning grammatik xususiyatlari

Ilmiy stilning grammatik qurilishi mantiqiy bog'liqlikni, izchillikni, sintaktik aniqlikni taqozo qiladi. Shuning uchun unda ellipsis (gapdan birorta so'zning tushib qolishi) hodisasi uchramaydi. Bu stilda gapning kesimi ko'pincha majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalanadi. Shuning uchun unda shaxsi noma'lum gaplar, passiv (bo'sh) konstruksiyalar qo'llaniladi. Misol: **1. Bir so'z bir necha narsalarga nisbatan ishlatiladi. 2. Harakat va holatni bildirgan so'zlar fe'l deyiladi. 3. Tezkorlik ham muhim xususiyatlardan hisoblanadi. 4. Axborot olish, albatta, har qanday demokratik davlatda qonunlar bilan kafolatlanadi** kabi.

Demak, ilmiy stil o'rganilayotganda, aniq bir fanning: matematika, fizika, biologiya, adabiyot, ona tili, tarix kabilarning stillariga xos xususiyatlar alohida tadqiq etilishi lozim. Albatta, ularga xos bo'lgan farqli va mushtarak tomonlar ham bor. Ularni ham namoyon etib, o'zaro taqqoslab yoki umumlashtirib, umumiy xulosa chiqariladi. Bunda ilmiy stilga xos bo'lgan turli matnlar tahlil qilinadi.

Nazorat savollari

1. Ilmiy stilning qanday turlari bor?
2. Ilmiy stilning qanday xususiyatlari bor?
3. Ilmiy stilda ichki va tashqi nutq qanday ifodalanadi?
4. Ilmiy stil va obrazlilik deganda nimani tushunasiz?
5. Ilmiy stilning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari qanday ifodalanadi?

Tayanch ifodalar

Termin — ilmiy atama.

Mantiqiy — asosli.

Struktura — tuzilish.

Sintez — yaxlit, qo‘shish.

Passiv konstruksiya — bajaruvchi shaxsni bildiruvchi so‘z, ishlatilmagan gap.

Segment — bo‘lak, birlik.

Tipik — bir xildagi.

Leksika — so‘z.

Obrazlilik — badiiylik, tasviriylk.

Mushtarak — umumiy biriktirilgan.

Emotsionallik — ta’sirchanlik.

leksema — so‘zning shakl yasovchilar qo‘shilmagan qismi.

PUBLITSISTIK STIL

Reja:

1. Publitsistik stilning ko‘rinishlari.
2. Bu stilning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Ishontirishning muhim ekanligi.
4. Bu stilning ommaviy axborot vositalari stili ekanligi.

Publitsistika – lotincha «publicus» so‘zidan olingan bo‘lib, ijtimoiy, ommaviy degan ma‘nolarni ifodalaydi.

Publitsistik stil siyosiy-g‘oyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni aks ettiruvchi asarlarda ishlatiladigan stildir. U adabiy o‘zbek tilining nutq stillari tizimida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo‘ldi. Bu davrda o‘zbek tilida gazetalar chop etila boshladi. Nashriyot va vaqtli matbuot ishlari yanada rivojlanib ketdi. O‘zbek yozuvchilari badiiy publitsistika janrida ijod qildilar. Vaqtli matbuot va nashriyotda zamonaviy ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab materiallar bosila boshladi. Radio va televidenie orqali siyosat va ijtimoiy hayot masalalariga doir ma‘ruza va suhbatlar muntazam eshittirildi va ko‘rsatildi. Bularning hammasi publitsistik stilning taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Publitsistik stilning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag‘ishlangan bosh maqolalar, feleton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistikaning yozma turiga kiradi.

Og‘zaki publitsistika — notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar axboroti, radio va televideniya chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin.

Publitsistika katta hayotiy masalalarni, mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirishi, isbotlashi, shu bilan birga tinglovchining iroda va his-tuyg‘ulariga ta‘sir qilishi lozim.

Publitsistik stilning asosiy vazifasi shundaki, u jamiyatdagi ilg‘or g‘oya va fikrlarni ajratib ko‘rsatib, unga odamlarni

ishontira olishidir. Ma'naviy-ma'rifiy ishimizning yutug'i publitsistikaning ta'sir kuchiga bog'liq.

Kimki aytayotgan fikriga o'zi ishonsa, boshqalarni ham ishontira oladi.

Publitsistikada so'z tanlash bu stilning janr turlariga ko'ra belgilanadi. Tilning ta'sirchan vositalaridan anafora, epifora, epitet, o'xshatish, jonlantirish, ironiya, apostrofa kabilar publitsistik maqolalarda ishlatiladi.

Har qanday targ'ibotchi va tashviqotchining san'ati shundaki, auditoriyaga eng yuqori darajada ta'sir qila olish, odamlarga ma'lum bo'lgan haqiqatni yanada aniqroq, yanada ta'sirchanroq va ishonarliroq qilib tushuntirishdir.

Bu stilning o'ziga xosligi uning hissiyotga boyligi va ta'sirchanligidadir. Bu xususiyat asosiy e'tiborni nimaga qaratish kerakligini uqtirishi bilan birga nutqning tushunarli va esda qolarli bo'lishiga ta'sir etadi.

Publitsistik stilda so'zlovchi, notiqning o'zi bildirilayotgan ma'lumotlarga singishib ketishi muhimdir. Publitsistikaning yana bir o'ziga xosligi uning ko'p janrliligidir.

Ular quyidagilar:

1. Gazeta janri.
2. Og'zaki publitsistika.
3. Radio va televidenie janri kabilar.

Publitsistika materialning ikki xil jihatini o'zida aks ettiradi:

1. Informativ, ya'ni xabar berish.
2. Baholash, ya'ni materialni zamona talabidan kelib chiqqan holda tahlil qilib, bayon qilish, unga o'z munosabatini bildirish.

Publitsistik asarlar: xabar, reportaj, maqola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola va boshqalar o'ziga xos til xususiyatlariga ega. Shuning uchun, ular o'zaro farqlanadi.

Publitsistik stilning fonetik xususiyatlari

Bu stilning janrlari xilma-xil va uning hamma janrlarida ham fonetik xususiyat mavjud emas. Uning og'zaki ko'rinishi — notqlikda matndagi ayrim tovushlar va so'zlar boshqacha talaffuz qilinishi mumkin. Masalan, ocherklarda ishtirokchilarning nutqi berilganda,

ularning o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida so'zlashuv stiliga xos bo'lgan jumlar ishlatilishi kuzatiladi.

Publitsistik stilning leksik xususiyatlari

Publitsistikaga xos har bir janrning o'z so'zlari va jumalari bo'ladi. Xabarda neytral so'zlarning ishlatilishi, bayonning ma'lumotlarga boyligi va quruqligi xosdir. Maqola qanday mavzuda yozilganiga ko'ra turli til vositalaridan foydalaniladi. Agar ilmiy-ommabop maqola bo'lsa, ularda ilmiy terminlar bilan birgalikda hissiyotga ta'sir qiladigan birliklar ishlatiladi. Agar ommabop maqolaning o'zi bo'lsa, targ'ibot va tashviqot ma'nolarini ifodalaydigan so'z va jumlar qo'llaniladi.

Pamflet fosh qilish xususiyatiga ega bo'lganligi uchun unda xuddi shu xarakterdagi so'zlar ishlatiladi.

Bosh maqolada davlatning ijtimoiy va siyosiy g'oyalari ifodalanadi. Shuning uchun, unda shunday ruhni beradigan so'z va jumlar tanlab qo'llaniladi.

Publitsistik stil ijtimoiy-siyosiy atamalarni o'zida mujassam etadi. U keng qamrovli bo'lgani uchun matnda boshqa stilda ishlatiladigan so'zlar ham uchraydi. Bu stilga oid so'z tanlash mantiqiylik va emotsionallik talabiga ko'ra belgilanadi. Chunki voqealikdagi narsa va hodisalarning aniq va to'g'ri ifodalanishi taqozo qilinganda, terminologik leksikadan ham, ekspressiv-stilistik ottenka (tur) bilan bog'liq bo'lgan leksikadan ham, o'zining jonliligi, obrazlilik bilan farqlanuvchi idiomalardan ham foydalaniladi. Muallifning so'z tanlashi uning voqea va hodisalarga munosabatini, g'oyaviy nuqtayi nazarini ham aks ettiradi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq shoiri, akademik G'afur G'ulomning «Quyoshni qutlab» publitsistik maqolasidan parcha keltiramiz:

Jamiyat davlat tuzimi, oila xalq va huquq butun insoniyatga sheriklik. Insoniyat — bu erkak va ayollardan iborat jamiyatdir. Bu erki jaf hayotda, mehnatda, oilada bir-biriga mehribon va vafodor bo'lmasa, har ikki jinsda ham jahonga arzirlik, mehnatkashlik, qayqarparvarlik, ishq-muhabbat bo'lmas edi.

O' bek xalqi, o'z pahlavon, botir otalari bilan bir qatorda jasur,

qo'rqmas, balolarning ko'ziga tik qaray oluvchi o'z onalari bilan ham faxrlana oladi. Bu onalar barcha qarindosh xalqlar uchun onadir, yoki xoladir, yoki ammadir.

Bu parchada ***jamiyat, oila, xalq, davlat, huquq, hayotda, mehnatda, oilada, mehribon, vafodor, mehnatkashlik, oilaparvarlik, ishq-muhabbat, jasur, qo'rqmas, balolarning ko'ziga tik qaray oluvchi*** kabi so'z va iboralar qatnashganki, ular jummalarning ko'tarinki ruhni ifodalashiga xizmat qiladi.

Ko'rinadiki, har bir janr o'z xususiyatiga ko'ra chegaralanib, yopiq bir tizimni vujudga keltiradi.

Publitsistik stilning grammatik xususiyatlari

Publitsistik stilda grammatikaning morfologik xususiyatlari alohida ajralib turadi. Bu, ayniqsa, so'z yasalish sohasida ko'rinadi. Okkazionalizmlar ko'pincha tildagi mavjud qo'shimchalar vositasida vujudga keladi. Masalan, ***davlatxona (hukumat uyi), gazetaxona (muharririyat), barakaxona (tug'uruqxona), qo'ng'iroqxona (ko'p telefonli xona), shaharsozlar (quruvchilar), da'vatnoma (hukumat notasi), musibatnoma (ta'ziyanoma), dildosh, dunyodosh, ruhshunos, ziyokor*** kabi.

Publitsistikada gap turlaridan, asosan qisqa, lo'ndalikni ifodalovchi sodda gaplar ishlatiladi. Qo'shma gaplar esa mantiqiy bog'liqlikni ko'rsatishga, u yoki bu voqea haqida yaxlit, umumiy tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shunga ko'ra, matbuotda chop etilayotgan materialning xususiyatiga ko'ra u yoki bu gap turidan foydalaniladi. Reportajda jummalarning juda ixchamligi, nutq vaziyatiga ko'ra gap qurilishining o'zgarib turishi kuzatiladi. Chunki reportajda bayon qilinayotgan voqealar tez-tez biri ikkinchisini almashtirib turadi. Shuning uchun, ularga ixcham jumlar tuzish o'rinlidir. Shuningdek, so'z-gaplar, to'liqsiz gaplar, atov gaplar ham ishlatiladi.

Riordan beriladigan eshittirish va radioo'cherklar uchun asosan, qo'shma gaplar tuzish kerak bo'ladi. Televidenie orqali beriladigan ko'rsatuvlarning xiligiga ko'ra turli gap qurilishlaridan foydalanish mumkin. Teleshoular his-hayajon va so'roq gaplar bo'lishini taqozo

qilsa, «Qilni qirq yorib», «Zakovat» kabi ko'rsatuvlarda qo'shma gaplar qo'llaniladi. Bu stilning yana bir e'tiborli tomoni shundaki, publitsistikada gazeta tili muhim o'rin egallaydi.

Publitsistika, asosan, gazetada o'z ifodasini topadi va gazeta stili publitsistik stilning bir tarmog'i hisoblanadi. Unda ba'zi grammatik vositalar: ravishdosh, sifatdosh, fe'ning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, turli murojaat ifodalari, bir bosh bo'lakli gaplarning qo'llanish darajasi boshqa stillarga nisbatan ustunroq.

Bu stilda nutq ko'pincha birinchi shaxs nomidan beriladi, chunki yuqorida ta'kidlanganidek, bu stilda yozilgan ma'lumotlarda muallifning bahosi ham ko'rinib turishi kerak. Unda, odatda, birgina muallifning nutqiy bayoni beriladi. Ba'zi hollarda, ko'chirma gap ishlatilsa ham muallif nutqi alohida ajralib turadi. Bu xususiyat muallif nutqining to'g'ri va ochiq-oydin ifodalanishiga imkoniyat yaratadi. O'rni bilan bu nutq uchinchi shaxs tomonidan ham ifodalanishi mumkin.

Ma'lumki, jumalarning qoliplangan shakli, asosan, rasmiy stilga xos. Publitsistikada esa odat tusiga kirib qolgan so'z birikmalari ishlatiladi. Masalan, *vaziyatni keskinlashtirish, ilg'or tajribalarni keng yoyish, iqtisodiy tejamkorlik, ilg'or an'analarga sodiqlik, O'zbekiston sportining kelajak yulduzlari, yangi ming yillik, olimpiada umidlari, yuksak darajadagi uchrashuv, Vatanni sevish, O'zbekiston shuhratini olamga yoyish, dolzarb vazifalar aniqlanib olindi, muammolar yechimi topildi, xalqaro minbar, marketing xizmati, biz tanlagan yo'l, dolzarb ijtimoiy muammo* kabilar.

Bu stilda jamiyatdagi ilg'or g'oya va fikrlarni ajratib ko'rsatib, unga odamlarni ishontira olish asosiy maqsad qilib olinadi.

Shunday qilib, publitsistika yuqorida tavsiflangan xususiyatlarga ega bo'lsagina, uning oldiga qo'yiladigan vazifalar bajarilgan bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Publitsistik stil nima?
2. Publitsistikaning qanday ko‘rinishlari mavjud?
3. Publitsistik stilning asosiy vazifasi nimada?
4. Bu stilda qanday vositalardan foydalaniladi?
5. Publitsistikaning qanday janrlari bor?
6. Publitsistik stilning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari qaysilar?

Tayanch ifodalar

- Publitsistik – (publicus) ijtimoiy, ommaviy
- Emotsiya – his-hayajon
- Anafora – gaplar boshida bir xil so‘zning takror kelishi
- Epifora – gaplar oxirida bir xil so‘zning takror kelishi
- Epitet – o‘xshatish
- Pamflet – xalqaro mavzudagi feleton
- Okkazonalizm – tasodifiy yaratilgan yoki bir marta ishlatiladigan so‘zlar.

BADIIY NUTQ STILI

Reja:

1. Badiiy stilning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Badiiy stilda so'zning o'rni.
3. Badiiy stilning boshqa stillar bilan munosabati.
4. Badiiy stilda so'z yaratish muammosi.

Tilning vazifadosh stillari ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasini aks ettiradi, shu sohada mehnat qilayotgan inson faoliyatining muayyan doirasiga mansubligi bilan farq qiladi. Badiiy stil esa hayotning hamma tomonlarini qamrab olishi bilan, barcha nutq stillarining unda qo'llanishi bilan farqlanadi. Badiiy adabiyot turli kasb-hunar egalarining hayotini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o'rnini aks ettirgani uchun unda til va nutq vositalari o'ziga xos holatda qo'llaniladi. Yuqorida tavsif berilgan to'rtta stil u yoki bu voqea-hodisa haqida xabar berish uchun xizmat qilsa, badiiy stil ma'lumot berish bilan birga estetik va emotsional ta'sirni ham ifodalaydi. Badiiy stil hikoya, qissa, roman, she'riyat va hattoki kichkina janrdagi afandi latifalarida ham ishlatiladi. Unda til – obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Barcha nutq stillarining o'ziga xos so'zlari va iboralari mavjud. Garchi, rasmiy va ilmiy stilda iboralar kam darajada ishlatilsa-da, ular nisbatan «xususiylashgan», badiiy stilda esa birinchi marta qo'llanilayotgan so'z va iboralar yozuvchi va shoirning yangi yaratgan ifodalari bo'lishi mumkin. Chunki muallif o'zi tasvirlamoqchi bo'lgan manzara yoki shaxsni o'zi xohlagandek ifodalash uchun mavjud so'zlardan foydalanmay, hali hech kim qo'llamagan yangi so'zlarni yaratadi. Ko'rinadiki, badiiy stil turmushni aks ettirishning maxsus shaklidir.

Badiiy nutq stili adabiy tilning ifodalanishi bo'lib, ayrim hollarda ba'zi maqsadlar bilan boshqa nutq ko'rinishlaridan ham foydalanishga to'g'ri keladi.

Badiiy stilning fonetik xususiyatlari

Badiiy stilda ijodkor erkin faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun u xohlasa, so'zlashuv stilidan, xohlasa, boshqa stillardan foydalanadi. Ma'lumki, so'zlashuv stilida fonetik xususiyatlar talaygina. Yozuvchi yoki shoir asar qahramonlarining faoliyatini ularning nutqi orqali ifodalaydi. Shuning uchun badiiy nutqda dialog, monolog bayonini qamrab oluvchi so'zlashuv nutqi keng ishlatiladi. Shunga ko'ra, so'zlashuv stilida uchraydigan barcha fonetik xususiyatlar bu stilga ham xosdir. Ayniqsa, asar qahramonlarining qaysi sheva vakili ekanligini ko'rsatuvchi tovushlar talaffuzi bu stilda aniq ko'rinadi.

Badiiy stilning leksik xususiyatlari

Yozuvchi yoki shoir tilning yashirin imkoniyatlaridan keng foydalanib, badiiy nutqda yangi so'z va yangi iboralarni yaratadi. Masalan, A.Qahhorning *sinchalak*, *guldasta* so'zlarini yangi ma'noda ishlatishi, G'.G'ulomning *qopqa*, *sho'xshanolashmoq*, *qoralmasin* so'zlarini yaratishi bunga misol bo'ladi:

Siz ko'kning *qopqasin* qoqqan soatda,

Quyosh ko'z uqalab uyg'onar edi.

yoki:

She'r shunday *sho'xshanolansin*, bo'lolmasin o'xshashi,

Fikr kunday ravshanlansin, *qoralmasin* quyoshi.

(«Baxt tongotari» she'ridan.)

Maqsud Shayxzodaning, *nuriston*, *quyoshiston*, *nurobod*, *Toshkentnoma* kabi so'zlarni yaratishi, mohir so'z yaratuvchi Oybekning *miljinglamoq*, *jabrkor*, *jivillamoq*, *gavharshunos*, *korsiz*, *sohibtadbir*, *darddosh*, *ozlimasin*, *laskargoh* kabi so'zlari ham asarning badiiy-estetik qiymatini ta'minlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bunday so'zlarni cheksiz keltirish mumkin. Ijodkorning imkoniyati bilan birga imkonsizligi ham bor. Ijodkor bu nutq stilida adabiy til doirasidan chiqib keta olmaydi (ayniqsa, so'z yasalishi va so'z qo'llash sohasida).

Bu nutqda sinonim, omonim, antonim, ko'p ma'nolilik kabi

leksikaning barcha qatlamlaridan keng foydalaniladi. Bularning hammasi ijodkorning poetik fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Badiiy stil ta'sirchanligi jihatidan publitsistik nutqqa yaqin tursa, turli jonli so'zlashuv vositalaridan foydalanish jihatidan so'zlashuv stiliga o'xshab ketadi.

Badiiy adabiyot tilini vazifadosh stillardan tashqari qarovchilar so'zning estetik vazifasini birinchi o'ringa chiqarishadi. So'zning eng muhim va asosiy vazifasi kommunikatsiya — aloqani amalga oshirishdir. Bu xususiyatni ular ikkinchi o'ringa tushirishadi. Vaholanki, har qanday tilning, har qanday so'zning birinchi vazifasi — aloqa vositasi bo'lishidir. So'z aloqa vazifasini bajargandan keyingina, estetik vazifani amalga oshirishi mumkin. Bunda ular badiiy adabiyotning san'at turi sifatida qaralishini asos qilib olishadi. San'at turi bo'lganda ham estetik zavq so'z orqali ifodalanadi. So'zning kommunikativ vazifasi esa hamisha birinchi o'rinda bo'lishi kerak.

Badiiy stilning bosh muammosi til va obraz munosabati masalasidir. Har bir vazifadosh stil ijtimoiy hayotning qaysidir tomonini aks ettirsa, badiiy stil hayotning hamma tomonini aks ettiruvchi barcha nutq stillarini qamrab oladi.

V.G.Belinskiy badiiy stilni ilmiy stil bilan qiyoslab shunday deydi: «Filosof sillogizmlar, shoir esa obraz va tasvirlar bilan gapiradi. Ikkalasi ham ishontiradi. Lekin birinchisi — mantiqiy dalillar bilan, ikkinchisi — tasvirlar bilan iqror qiladi».

Bir xabarning badiiy va ilmiy stilda ifodalanishini ko'raylik:

Badiiy stilda:

Kaftlaringda to'q bug'doyning kumushday doni

Yoki mehring chashmasida ungan kurtaklar.

Bu minglarning nasibasi, elu yurt noni.

Bu to'qchilik, to'kinlikdan yorqin daraklar.

Ilmiy stilda:

Bug'doy doni O'rta Osiyoda besh ming yildan beri ekib kelinmoqda. Poyasining uzunligi 30—40 sm keladigan bug'doyning 9 xili bizning o'lkamizda ekiladi. O'zbek pazandachiligida texnologiya jarayoni mukammallashib, nonning xillari benihoya ko'paydi. Bu to'kinchilik, ma'murlikdan darak beradi.

Ko‘rinadiki, badiiy stilda xabarning *kumushday, mehring chashmasi, yorqin daraklar* kabi obrazli ifodalar bilan ta‘sirchanligi oshirilsa, ilmiy stilda *besh ming yil, poyasining uzunligi 30–40 sm, bug‘doyning 9 xili* kabi dalillar bilan quruq ma‘lumot beriladi.

Til materialini qamrab olish imkoniyatiga ko‘ra badiiy adabiyot adabiy til doirasidan chiqib ketadi. Va umumxalq tili boyligining deyarli barcha ko‘rinishlarini qamrab oladi. Adabiy tilda dialektizmlar, jargonlar, varvarizmlar, vulgarizmlar(dag‘al so‘zlar), eskirgan so‘zlar kabi oddiy so‘zlashuv vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Lekin ular badiiy stilda o‘rni bilan ishlatiladi. Yozuvchi Oybek «Navoiy» romanida qargish, haqorat so‘zlaridan foydalanib, asar qahramonlarining o‘ziga xos qiyofasini yaratgan. Masalan, *Qoch, kelma yonimga, baloga yo‘luqqur!... Amaldor toifasiga o‘zing qirg‘in yubor, tangrim. Ha, qaydasen, cho‘loq qarg‘a! Kalitni ber.*

Badiiy stilning grammatik xususiyatlari

Tilning grammatik shakllaridan foydalanish ham badiiy adabiyotning janr turlariga bog‘liq. Sheriyatda narsalar nomini yasaydigan affikslarning odamga nisbatan ishlatilgan holatini ko‘rish mumkin. Masalan, shoir Muqimiy asarlaridan olingan quyidagi parchaga e‘tibor beraylik:

*Do‘rmonchaga ketdim o‘tib,
Yoqamni har soat tutib,
Yotdim ul oqshom g‘am yutib,
Dashti qaroqchizor ekan.*

Muqimiy *qaroqchi* so‘ziga jonsiz narsalar nomiga qo‘shiladigan *-zor* affiksini qo‘shib, yangi so‘z yasagan. Bu bilan bir tomondan, ko‘plik, mo‘llik ma‘nosi ifodalansa, ikkinchi tomondan, kinoya anglatiladi, ya‘ni qaroqchilarni jonsiz narsalar qatoriga kiritib, achchiq kinoya qiladi.

Gap bo‘laklarining odatdagi o‘rni almashtirib berilishi nasrga nisbatan ko‘proq she‘riyatda uchraydi. Bunda ijodkor ma‘lum so‘zlarni ta‘kidlash, ularning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida va she‘riyat talabi bilan so‘zlarning o‘rnini almashtiradi.

Yozuvchi Oybek nazaridan dabdabali ifodalar, mubolag'a ham qo'lib qutulmagan. Masalan: *Dorug'ayi kabutarxonai humoyun (podsho kabutarxonasining boshlig'i), dorug'ayi kutubxonaixi humoyun, sizning ma'rifat daryongizdan bahramand bo'lmoq qadar ulug' saodatni tasc.vvur etmoq imkonsizdir, saltanat tojini quyosh yanglig' samovat doirasida biling, farmoni humoyun bilan bizni sarafroz qilsangiz saltanatimizning siz kabi nodir shaxsini amirlik rutbai oliysi bilan sarafroz qilmaguncha ko'nglimiz qaror topmas* kabi dabdabali, jargon ifodalarning qo'llanishi asarning estetik qimmatini oshiradi.

Shunday qilib, badiiy stilning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatadigan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Badiiy stilning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, bunda undov, so'roq, buyruq gaplar keng ishlatiladi. Badiiy nutq lingvistik birliklar vositasida estetik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotning ko'rinishlari ham xilma-xil: she'riyat, nasr, drama kabilarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega. She'riy nutqqa xos bo'lgan stilistik xususiyat dramada bo'lmasligi mumkin yoki aksincha. Shuning uchun badiiy stilni o'rganish ko'lami keng, bu stil bo'yicha ko'p ilmiy ishlar yaratilgan. (Ular bilan tanishib xulosalar chiqariladi.)

Nazorat savollari

1. Badiiy adabiyotdagi tilning vazifasi haqida qanday qarashlar bor?
2. Bu stilning bosh muammosi nima?
3. Badiiy nutq stilining o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?
4. Badiiy nutq stilida qanday leksik qatlamlardan foydalaniladi?
5. Badiiy stilning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari nimalardan iborat?

Tayanch ifodalar

Kommunikatsiya – aloqa

Sillogizm – mantiqiy ifodalar

Estetik vazifa – ta’sirchanlik

Potensial imkoniyat – zaxiradagi imkoniyat

Jargonlar – buzilgan soʻzlar

Argolar – ma’lum bir guruhdagi odamlargagina tushunarli boʻlgan soʻzlar.

Varvarizmlar – oʻrinsiz ishlatilgan xorijiy til soʻzlari

Vulgarizmlar – haqorat, qargʻish, soʻkish soʻzlari

Dialektizm – shevaga xos soʻzlar

FONETIK STILISTIKA

Reja:

1. Fonetik stilistika nimani o'rgatadi?
2. Muallifga xos fonetik vositalar.
3. Ijro etishga xos vositalar.
4. Fonetik stilistikaning ijodkorlar uchun ahamiyati.

Fonetik stilistika nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlarini o'rgatadi. Bu nima degani? Bunda har bir tovushning nutqni ta'sirchan, e'tiborli qilishdagi o'rni, maqsadni aniq va to'g'ri ifodalash xususiyatiga ega bo'lishi tushuniladi.

Stilistikaning fonetik vositalari ikki xil bo'ladi:

1. Muallifga xos vositalar.
2. Ijro etishga xos vositalar.

Muallifga xos bo'lgan fonetik vositalarga ritmika, vazn, qofiya, alliteratsiya, assonans va boshqa talaffuzga xos vositalar kiradi.

Ijro etishga xos bo'lgan vositalarga intonatsiya, pauza, fraza va mantiqiy-logik urg'u, so'zning emotsional-ekspressiv xususiyatlari, to'liq va to'liqsiz talaffuzlar kiradi.

Talaffuzning to'liq va to'liqsiz xususiyatlari stilistik vosita sifatida katta o'rin tutadi. Talaffuzning to'liq shakli shifokorlar, notiqalar, ma'ruza o'quvchilar, radio va televideniedagi boshlovchilar, olimlar nutqi, o'qituvchilarning dars jarayonidagi nutqida namoyon bo'ladi.

To'liqsiz talaffuz odamlar orasidagi dialogik nutqda aks etadi.

To'liq talaffuzda so'zning barcha tovushlari, bo'g'inlari aniq aytilsa, to'liqsiz talaffuzda ba'zi tovushlar tortilib, qisqa aytiladi va hatto, bo'g'inlar tushib qoladi.

Masalan: Busalīma-Busalma
Fotīma-Fotma-Potma
Abdujabbor-Abjappor
Muhammadqul-Mahmatqul
Toshmuhammad-Toshmat

To'liqsiz talaffuz o'zbek xalq dostonlarida ham uchraydi.

Masalan: Arzim eshit, jon ota,
Yapaloq qushni ko'rsangiz,
Davlat qushi kemaymi?
Yurtimiz obod bo'maymi?

(«Boltakay botir» dostonidan)

To'liqsiz talaffuzning yana bir ko'rinishi so'zdagi ba'zi bir tovushlarning o'zgartirib aytilishidir.

Masalan: Buhojar-Buvajar (**h** tovushi **v** ga aylangan)
oq xalat-oxxalat (**q** tovushi **x** ga aylangan)
tanbur-tambur (**n** tovushi **m** ga aylangan)
tramvay-tranvay (**m** tovushi **n** ga aylangan) va hokazo.

Muallifga xos bo'lgan fonetik vositalar quyidagilar: qofiya, assonans, alliteratsiya.

Qofiya

She'riy misralardagi ayrim so'zlarning, ba'zan qo'shimchalarning bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi qofiya deyiladi. Qofiyalar a-a-a-b, a-b-a-b, a-b-v-b va hokazo ko'rinishlarda bo'ladi. Masalan:

Do'st bilan obod uying, a
*Gar bo'lsa u **vayrona** ham. b*
Do'st qadam qo'ymas esa, v
*Vayronadir **koshona** ham. b*

(Erkin Vohidov)

Fonetik stilistika, asosan, so'zlashuv stilini qamrab oladi. So'zlashuv stiliga xos so'zlar ko'pincha amaldagi adabiy me'yordan farq qiladigan xususiyatlarga ega:

1. So'z tarkibidagi tovushning o'rin almashuvi:

qirg'iy-qiyg'ir, aylanayin-aynalayin, la'nat-na'lat, sharpa-shapra, supra-surpa kabi.

2. So'z tarkibidagi ba'zi tovushlarning tushib qolishi:

Qulflamoq-quflamoq, tashla-tasha, bo'lsa-bo'sa, bargikaram-barikaram kabi.

3. So'zda biror tovushning orttirilishi:

korchalon-korchallon, to'la-to'lla, qamchi-qamchin kabi.

4. So‘zdagi biror tovush o‘rniga ikkinchisini ishlatish hollari:
munchoq-mo‘nchoq yoki bo‘nchoq, ko‘ylak-ko‘nnak yoki ko‘ynak, nusxa-nusqa, bog‘lamoq-boylamoq, ko‘mirchak-kemirchak, qalmoq-qarmoq, tannov-tarnov kabi.

5. O‘zak-negizda tushib qoladigan ba‘zi qisqartirmalar:

Olibdi-opti, bo‘libdi-bo‘pti, kelibdi-kepti kabi.

Bunday holat, ayniqsa, yozma va og‘zaki nutq ifodalanadigan dostonlarda uchraydi.

Assonans

Misralardagi bir-biriga yaqin unli tovushlarning ohangdoshligi assonans deyiladi. Bunda a-o, u-o‘, o-o‘, i-e tovushlari ohangdosh bo‘lib keladi. Bunday xususiyat nutqning jarangdor bo‘lishini ta‘minlaydi. Masalan:

Olam aro yurtlarning eng a‘losi,

Ona yurtim husningning men shaydosi.

Baxtiyorman muhabbating qo‘zonsam,

Shudir ahdim, shudir baxtim ma‘nosi.

(Po‘lat Mo‘min)

Alliteratsiya

Lotincha «litera» so‘zidan olingan bo‘lib, she‘rdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlarning takror ishlatilishi alliteratsiyadir. Bunga shoir Erkin Vohidovning **q** tovushi bilan boshlanadigan she‘rini misol qilib keltirish mumkin:

Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz,

Qilur qatlimga qasd, qayrab qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab, qanot qoqmogga qo‘ymaysan

Qarab qo‘ygil qiyokim, qalbni qizdirsin quyoshing, qiz.

Assonans va alliteratsiya birgalikda qo‘llanib, nutqning ohangdorligini yanada oshiradi. Bu bilan nutq tinglovchi yoki o‘quvchiga tez ta‘sir qiladi. Masalan:

Qymoma cho‘milgan oy buloq,

Oy buloq, ko‘nglimni yoy buloq.

*Kuylagan kuyingdan o'rgilay,
Anvoyi kuylarga boy buloq.*

(Turob To'la)

Fonetik stilistikani bilish ijodkorlar uchun ahamiyatlidir. Ular yaratgan asarlarida fonetik stilistikani o'z o'rnida qo'llasalar, o'quvchilar va tinglovchilarning e'tiborini tez jalb qiladilar. Bu bilan matnning o'qishligini ta'minlaydilar va o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishadilar. Ayniqsa, jurnalistlar lavha, ocherk, adabiy portret yaratganlarida o'rnini topib, fonetik stilistikadan foydalansalar, asarlari betakror, ta'sirchan, ohangdor bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Fonetik stilistika nimani o'rgatadi?
2. Muallifga xos vositalar qaysilar?
3. Ijro etishga xos vositalar qaysilar?
4. Fonetik stilistikaning ahamiyatini qanday misollar bilan ko'rsatish mumkin?

Tayanch ifodalar

Fonetik stilistika – fonetikaning stilistik imkoniyatlarini o'rganuvchi soha.

Assonans – unli tovushlar uyg'unligi.

Alliteratsiya – bir xil undosh tovushlar takrori.

Qofiya – she'riy misralardagi ayrim so'zlarning, ba'zan qo'shimchalarning bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi.

LEKSIK STILISTIKA

Reja:

1. Leksik stilistikaning o'rganish obyekti.
2. Sinonimlar muhim stilistik vosita sifatida.
3. Sinonimlarning qo'llanishi haqida mashhur kishilarning fikri.
4. Antonimlarning stilistik xususiyatlari.
5. Omonimlarning stilistik xususiyatlari.

Tilning leksikasi eng nozik ma'no va stilistik ottenka (tur)lar bilan informatsiya berishda juda katta imkoniyatlarga ega.

Hozirgi o'zbek tilida yoki rus tilida necha so'z bor? Bunga javob berish juda qiyin. Ayniqsa, neytral va stilistik bo'yoqli so'zlarni aniqlash undan ham qiyin. Bu vazifani amalga oshirish uchun lingvistlar lug'atlar ustida stilistik tadqiqot olib boradilar. Rus olimi F.P. Filin «Rus adabiy tilining lug'ati» 7-jildini tahlil qilib, undagi 15530 so'zdan 3925 so'z stilistik pozitsiyada ekanligini aniqladi. Demak, 75 % so'z neytral bo'lib, 25 % stilistik bo'yoqli ekan. Bunday ish o'zbek tilshunosligida hali amalga oshirilmagan.

Leksik stilistikada tilimizning lug'at boyligidagi birliklarning stilistik xususiyatlari o'rganiladi. Ular ichida, ayniqsa, sinonimlar, antonimlar, omonimlar stilistik imkoniyatga boy vositalar hisoblanadi.

Sinonimlarning stilistik xususiyatlari

Leksik stilistikada sinonimiya hodisasi muhim o'rin tutadi. Stilistik bo'yoqli so'zlar, ayniqsa, sinonimik qatorda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, sinonimik qatorning uzunligi turlichadir: bir tomondan, sinonimik qator faqat ikkita so'zdan tuzilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bir necha so'zdan tuzilishi mumkin, masalan: ikki qismli sinonimik qator:

chopmoq-yugurmoq, sevinmoq-xursand bo'lmoq,
uysiz-joysiz, dum-quyruq.

Ko'p qismli sinonimik qator:

yuz, aft, bashara, turq, bet, chehra, siymo

kulmoq, jilmaymoq, tabassum qilmoq, tirjaymoq, irshaymoq, iljaymoq, ishshaymoq.

Bu sinonimik qatordagi har bir soʻz turli nutq vaziyatlarida tanlab ishlatiladi. Masalan: **shamol, sabo, yel, shabada, toʻfon, dovul, boʻron** soʻzlaridan tashkil topgan sinonimik qatorning turli oʻrinda qoʻllanishiga eʼtibor beraylik.

1. *Daryo toʻlqin **shamol** qoʻynida
Porillamoqdadir kemalar.* (Hamid Olimjon)

2. *Derazamning oldida bir tup
Oʻrik oppoq boʻlib gulladi.
Novdalarni bezab gʻunchalar
Tongda aytdi hayot otini
Va **shabboda** qurgʻur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini.* (Zulfiya)

3. *Tinmay esar har tomonga **yel**
Qoʻymay sochar oʻrikning gulin...* (Zulfiya)

4. *Gulshanda gullarni tebratar **sabo**.* (Uygʻun)

Nozik maʼnolarni ifodalash uchun ham sinonimlar tanlab olinadi. Masalan: *Kishining hamma eri: soʻzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, **afti** ham goʻzal boʻlishi kerak.*

*Roʻparamda birvarakay uch yuz **bashara** oʻtirar edi.*

Bu misollarda **aft, bashara** soʻzlari oʻz oʻrnida ishlatilmagan.

Adabiy nutqning asosiy belgilaridan biri sillqlik va ravonlikdir. Soʻzlarni oʻrinsiz qaytarish jumlaning taʼsir kuchini kamaytiradi, gap yoqimsiz boʻladi. Masalan: *Orzu qilib yurgan orzusiga erishdi. Uning aqli hamma narsaga yetadiki, sir saqlamoqchi boʻlgan narsalaringizni ham biladi.*

Buyuk mutaffakir shoir Alisher Navoiy soʻzni eʼtiborsiz qaytarishga qarshi shunday degan edi:

Bir deganni ikki demak — xoʻb emas

Soʻz chun takror topdi — dilcash boʻlmas.

Faylasuf shoir Maqsud Shayxzoda qaytariq soʻz haqida shunday fikr bildiradi:

«Qaytariq soʻz nazm uyini qiladi vayron... Maʼnodosh soʻzlarni ishlatish soʻz sanʼatkori uchun farz. Tilimizning shu tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor».

Antonimlarning stilistik xususiyatlari

Antonimlar nutqda ikki xil maqsad uchun ishlatiladi:

1. Shaxs, narsalar yoki ularning belgilari orasidagi zidlikni ifodalash uchun. Badiiy adabiyotda antonimlardan antiteza hosil qilish uchun foydalaniladi. Antiteza adabiyotshunoslikda tazod san'ati deb ham yuritiladi. Tazod san'ati, ayniqsa, mumtoz adabiyotda ko'p uchraydi.

Masalan:

*Charxi kajraftorning bir shevasidin dog'men,
Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadir. (Furqat)*

*Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki, jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz,
Har kimki, yomon bo'lsa, jazo topqusidir. (Bobur)*

Antiteza ayniqsa, maqol va topishmoqlarda ko'p ishlatiladi.

Masalan:

*Otdan baland, itdan past. Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda
(topishmoqlar).*

*Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. Nodon do'stdan ziyrak
dushman yaxshi. (maqollar)*

2. Antonimlardan umumiyashtirish, jamlash ma'nosini ifodalash maqsadida ham foydalaniladi. Masalan:

Shunga ko'p xursandmiz *yosh-u, qarimiz*. (G'afur G'ulom)

Badiiy nutqda ko'p hollarda stilistik maqsad bilan zid ma'no ifodalamaydigan, lekin qisman bir-birini inkor etadigan, bir xil xususiyatga ega bo'lgan so'zlar antiteza hosil qilish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

Bir lavhang qon yesa,

Bir lavhangmish zar... (G'afur G'ulom).

Qilma zolimlik kishiga, adl ila rom et uni,

Yaxshilik qo'ldanki kelmas, zulm ham qilma chunon

(Nizomiy Ganjaviy)

Omonimlarning stilistik xususiyatlari

Omonimlar nutqda tuyuqlar, soʻz oʻyinlari hosil qilish uchun ishlatiladi.

Bir marta gapirsang, oʻyla necha bor

Bilmasang, bilganlar huzuriga bor.

Burun koʻtarmoqni kim qoʻydi senga

Axir aqlliroq oʻzgalar ham bor. (Xayriddin Saloh)

Bu misolda «bor» soʻzi omonim boʻlib, tuyuq hosil qilish vositasi sifatida ishtirok etmoqda. Omonimiya hodisalaridan omofonlar soʻz oʻyini yaratishda katta imkoniyatga ega. Masalan:

1. Kungaboqar, kungaboqar. Umr boʻyi kunga boqar.

Mudir magazinda qirq ishni oʻylar,

Ham boʻydan, ham endan qirqishni oʻylar.

Bu ishing chakkidir degan kishining,

Tezda qadamini qirqishni oʻylar. («Mushtum»dan)

Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimiz omonimlardan unumli foydalanib, tuyuqlar yaratishgan.

Nazorat savollari

1. Leksik stilistika nimani oʻrgatadi?
2. Sinonimlarning stilistik xususiyati nimalardan iborat?
3. Antonimlar qanday maqsad bilan nutqda ishlatiladi?
4. Omonimlar qanday stilistik figura?

Tayanch ifodalar

Leksik stilistika — lugʻat boyligining stilistik imkoniyatlarini oʻrganuvchi soha.

Sinonimlar — ayni bir tushunchani bildirib, maʼno qirralariga koʻra farqlanadigan soʻzlar.

Antonimlar — oʻzaro zid maʼnoni bildiradigan til birliklari.

Omonimlar — til birliklarining shaklan teng kelib qolgan koʻrinishi.

Antiteza — qarama-qarshi maʼnoli jummlar.

QO‘LLANISHI CHEGARALANGAN LEKSIKANING STILISTIK XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Faol va nofaol so‘zlarning stilistik xususiyati.
2. Qo‘llanishi chegaralangan leksika turlari va ularning stilistik xususiyatlari.
3. Arxaizm, istorizm va neologizmlarning stilistik imkoniyatlari.
4. Dialektizm, jargonizm va argo, texnitsizmlarning nutqda qo‘llanishi.
5. Boshqa tildan kirgan so‘zlarning stilistik xususiyatlari.

Kundalik hayotimizda keng qo‘llanadigan, barcha uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar faol leksikani tashkil etadi.

Nofaol so‘zlar esa hayotimizda kam ishlatiladi, hammaga ham tushunarli bo‘lavermaydi, shuning uchun ular qo‘llanishi chegaralangan leksika qatoriga kiradi. Ular eskilik bo‘yog‘iga ega bo‘ladi. Bunday so‘zlar arxaizm va istorizmlar deyiladi.

Arxaik so‘zlar badiiy asarlarda, felyetonlarda, tanqidiy maqolalarda nutqqa kinoya, piching, mazax, masxara ruhini berish uchun ishlatiladi.

Masalan: *Faqir jami yozg‘uvchilarimizning osor va ash‘oridin bahramand bo‘lib, har dasturxon ustida odoyi jonlarini qilurmen. Bu mutolealar xosiyatidin o‘zumda ham andek tab‘i nazm paydo bo‘lib, bir qancha bayt-g‘azallar yozdim... bir miqdor maosh tayin qilinsa, faqir o‘dabo va shuaroning qo‘llariga suv quyib, umrimni soyuz xizmatida o‘tkarur edim ...*

(Abdulla Qahhor. «Maktub»)

Istorizm esa o‘tmish voqeligini atash zaruriyati bilan ishlatiladigan so‘zlardir. Masalan: *Faqir muddat sakkiz yil, riyozat chekib, 15 yoshimda Kalomi Sharifni xatm qildim va bir jum‘a nomozida imomatga o‘tdim...* (Abdulla Qahhor. «Maktub»)

Otam podsho, men vazirdek edim eshon,

Muridlar ham ikkimizdan shodu shodon. (Abdulla Qahhor)

Neologizmlarning stilistik vazifasi juda xilma-xildir.

Ma'lumki, hayotimizda yangi paydo bo'lgan so'zlar faqat atash vazifasini bajaradi. Masalan: *mini market, fayl, sayt, disket, flejka, shartnoma, grant, internet, kompyuter, magistr, bakalavr, super-market, xolding va hokazo.*

Lekin yozuvchilar tomonidan yaratiladigan neologizmlarning stilistik imkoniyati katta. Bular okkazonalizmlar deyiladi. Masalar: G'afur G'ulom -dosh so'z yasovchi affiksi yordamida quyidagi yangi so'zlarni yaratgan: *eldosh, yerdosh, kurashdosh, qalamdosh* kabi. Mirtemir esa *yurakdosh, to'ydosh, soqoldosh* kabi so'zlarni, Maqsud Shayxzoda *nuriston, quyoshiston, nurobod, quyoshobod, xalqobod* kabi so'zlarni, Erkin Vohidov *changiston, balchig'iston* kabilarni yaratgan.

Bunday leksikaga yana dialektizmlar, terminlar, kanselarizmlar, jargon va argolar ham kiradi. Bularning hammasi funksional stil turlaridan badiiy, publitsistik, so'zlashuv stillarida stilistik ma'no ifodalaydi.

Dialektizmlar badiiy asarlarda hayotning aniq tasvirini berishda, qahramonlar nutqining o'ziga xosligini ta'minlash, mahalliy koloritnini saqlab qolishda stilistik figura sifatida qo'llaniladi. Masalan: ***Qating og'ridi?*** (Oybek. «Bolalik»)

Bu jumlada bosh qahramon Musavoy nutqi berilgan, bu uning toshkentlik ekaniga ishora.

Lekin vaqtli matbuotda shevaga xos so'zlarning ishlatilishi ijobiy hol emas. Masalan: *Otlar, toylar chillada ko'taram bo'lib, kishnamay qo'ygani hammaga ma'lum.*

Dialektizmlardan tashqari, professionalizm, texnitsizm, terminlar ham badiiy stilda ma'lum bir maqsad bilan ishlatiladi. Bunday leksika xalqimizning ishlab chiqarishi, faoliyati ifodalangan asarlarda ko'plab qo'llaniladi. Masalan: *Ota-onasi feodal, feodalizmning uyasi, meni cho'ri, uy cho'risi qilmoqchi bo'lishdi!* (A.Qahhor. «Nurli cho'qqilar»)

Ba'zan gazeta va jurnallarda hech qanday izohsiz ishlatiladigan terminlar nutq ko'rkini oshirish o'rniga uni tushunarsiz so'zlar yig'indisiga aylantirib qo'yadi. Masalan: *Bu svecha zazorlaridan suyuqlik ichida ham uchqunlar chiqayotganligini ko'rib turibdi.*

Jargon frantsuzcha so'z bo'lib, buzilgan til degan ma'noni bildiradi.

Jargonlar biror ijtimoiy guruh tomonidan yaratilib, ularning maqsadlarini ifodalaydigan maxsus so'z va iboralardir. Ularning eng muhim belgilari shundaki, o'zaro so'zlashuvda so'zlovchining boshqalardan ustunroq ekanligini ko'rsatishi, buni ta'kidlashidir. Masalan: bu kishi *nishoni oliy shon* olib kelibdilar. Dadam *Oллоhning dargohiga maqtul etildilar.*

Argolar esa ma'lum bir ijtimoiy guruh ichida ishlatiladi, faqat ularning o'ziga tushunarli bo'ladi. Masalan: *loy, yakan – pul, bedana – to'pponcha, havoga bulut chiqdi – o'g'iraydigan narsa bor, zonada bolgan, zek* (o'g'rilar orasida ishlatiladi), *zonada bolgan, zek* (qamoqxonada ishlatiladi).

Nazorat savollari

1. Ishlatilishi chegaralangan leksikaga nimalar kiradi?
2. Eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlarning eng muhim stilistik xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Dialektizm, texnistizm va terminlarning nutqda o'rinsiz ishlatilishi qanday oqibatlarni keltirib chiqaradi?
4. Jargon va argolarning bir-biridan farqini bilasizmi?

Tayanch ifodalar

Arxaizmlar – eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar.

Istorizmlar – o'tmish voqeligini atash zaruriyati bilan ishlatiladigan so'zlar.

Texnitsizmlar – texnika terminlari.

Jargonlar – dabdabali so'zlar.

Argolar – ma'lum bir ijtimoiy guruhning o'z so'zlari.

GRAMMATIK STILISTIKA

Reja:

1. Grammatik stilistikaning obykti.
2. Morfologik stilistika: grammatik omonimiya, grammatik sinonimiya, grammatik antonimiya.
 - 2.1. Mustaqil soʻz turkumlarining stilistik xususiyatlari.
 - 2.2. Yordamchi soʻz turkumlarining stilistik xususiyatlari.

Grammatik stilistika grammatik tushunchalar va grammatik shakllarning nutq stillari boʻyicha xoslanib ishlatilishi masalalarini oʻrgatadi.

Maʼlumki, grammatik tushunchalar har bir soʻz turkumi uchun xoslangandir. Ot turkumiga son, egalik, kelishik tushunchalari, feʼl uchun boʻlishli-boʻlishsizlik, nisbat, mayl, zamon tushunchalari mansub. Ular morfologiyaning obykti boʻlib, turli stilistik xususiyatlarga ega. Gap va uning turlari sintaksisda oʻrganilib, nutq stillari boʻyicha tanlab ishlatiladi. Shunday xususiyatlardan kelib chiqqan holda, grammatik stilistika ham ikki turga boʻlinadi:

1. Morfologik stilistika.
2. Sintaksik stilistika.

Morfologik stilistika

Morfologik stilistika quyidagi masalalarni oʻrganadi.

1. Oʻzbek tilida bir grammatik tushunchaning ikki va undan ortiq koʻrinishlarga ega boʻlishi **grammatik sinonimiyadir**.
2. Bir necha grammatik shakllarning oʻzaro zid maʼnoni ifodalashi **grammatik antonimiya** deyiladi.
3. Bir xil grammatik shakllarning bir necha xil maʼnoni ifodalashi **grammatik omonimiya** hisoblanadi.
4. Morfologik stilistikada hozirgi oʻzbek tilida zamon, mayl formalarining, ayrim yasovchi affikslarning bir-biriga nisbatan sinonimik munosabatda boʻlishi, ularning biri oʻrnida ikkinchisining

ishlatish imkoniyati masalasi hamda har bir soʻz turkumiga xos boʻlgan stilistik xususiyatlar oʻrganiladi.

Ot stilistikasi

Otlarning stilistik xususiyati bilan tanishib chiqaylik.

Maʼlumki, ot turkumiga xos tushunchalar quyidagilar: egalik, kelishik, son. Qoʻllanish jarayonida ularga xos boʻlgan sinonimik holatgina emas, balki nutqda tutgan oʻrni, shakllarning oʻzaro oʻrin almashib ishlatilishi va namoyon boʻladigan stilistik xususiyatlar hisobga olinadi.

Masalan: koʻplik affiksi faqat koʻplik tushunchasini ifodalamaydi. U turli xil stilistik maʼnolarni anglatish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi oʻzbek tilida koʻplik maʼnosi analitik usulda ham ifodalanadi. Masalan: *yuzta kitob, mingta qoʻy* kabi.

Lekin baʼzan mana shu soʻzlarga *-lar* affiksini qoʻshib ishlatish hollari uchraydi. Bu stilistik jihatdan xato qoʻllashdir, chunki otlarning oldida keltirilgan sonlarning oʻzi koʻplik maʼnosini beradi. Buning ustiga *-lar* affiksi qoʻshilsa, maʼnoda ortiqchalikni keltirib chiqaradi.

Kelishik affikslarining stilistik xususiyatlariga eʼtibor berilsa, ularning biri oʻrniga ikkinchisi biror stilistik maqsadda ishlatilganining guvohi boʻlamiz. Lekin bu affikslar oʻzlari qoʻshilib kelgan asoslar bilan birgalikda maʼno ifodalaydi.

Masalan: *otni mindi — otga mindi, daryoni kechib oʻtdi — daryodan kechib oʻtdi, nonni yedi — nondan yedi* kabi.

Baʼzan kelishik affikslarining tushirib qoldirilishi oʻzgacha stilistik maʼno kelib chiqishiga sabab boʻladi. Masalan: *ilon yutgan odam*.

Bu gapda qanday maʼno anglatishi intonatsiyaga va matn mazmuniga bogʻliq. Agar *ilon* yoki *odam* soʻziga *-ni* affiksi qoʻshilsa, maʼno oydinlashadi-qoʻyadi: *ilonni yutgan odam — ilon yutgan odamni*.

Morfologik stilistikada kelishik affikslarining belgisi yoki belgisiz qoʻllanishi, ularning qoʻsha qoʻllanish holati masalalari ham muhimdir. Masalan: *boʻri quvgan odam* gapida *boʻri odamni quvganmi* yoki *odam boʻrini quvganmi*, bilib boʻlmaydi. Stilistika mana shunday

gaplardagi soʻzlardan birida tushum kelishigi affiksi boʻlishi shartligini oʻrgatadi. Masalan: *gul keltirmoq, xat yozmoq* birikmalarida kelishik affikslarini ishlatmasa ham boʻladi. Lekin *Toshkentni koʻrmoq, qoidani yaxshi bilmoq* kabilarda **-ni** affiksini tushirib qoldirish mumkin emas. Quyidagi misolda **-ni** affiksining qoʻllanishi yoki qoʻllanmasligi bilan bogʻliq holda maʼnoda farq boʻlishini kuzataylik:

*Juda ajoyibdir inson udumi,
U suvni juda ham, juda ham suyar.
Deylik, biror joyda nihol koʻrdimi,
Albatta, tagiga suv quyur.*

Yoki:

*Xoʻsh, undan keyin
Inson suvdan yana qanday zavq tuyar?
Bekor qolganida baʼzida sekin
Bir-birin tagiga suv quyur.*

(Abdulla Ori pov)

Kelishik affikslari biror jumlada takror ishlatilsa, stilistik aniqlikka zarar yetadi. Masalan: *OʻzDJTU xalqaro jurnalistika fakultetining talabasi Norova Xosiyatning daftari*. Bu jumlada **-ning** affiksi bir marta ishlatilishi kerak. Shunda jumla stilistik jihatdan toʻgʻri boʻladi: *OʻzDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi Norova Xosiyatning daftari*.

Kelishiklar ichida tushum va qaratqich belgili va belgisiz qoʻllanishiga koʻra rang-barang stilistik xususiyat kasb etadi. Masalan: *gulning bargi — gul bargi. Otabekning xati — Otabek xati*.

Bu misollarda **-ning** ning ishlatilganligi taʼkid maʼnosini ifodalagan. Bu affiks ishlatilmaganida esa umumiylik anglashiladi.

Sheʼriy nutqda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil shaklda boʻlib qolishi mumkin. Mana shu oʻrinda qaysi kelishik qoʻllangani grammatik aloqaga koʻra aniqlanadi. Masalan:

*Yer kurrasini boshini tangʻidik
Va tarixning tomirlariga quyidik erigan temir. (Gʻafur Gʻulom)*

Bu sheʼrda *kurrasini, boshini* soʻzlari bir xil shakldadir. Lekin ular turli kelishikka mansub. Bu misrada soʻzlarning bunday ishlatilishi sheʼriy koʻtarinkilikni taʼminlashni nazarda tutadi. Misralardagi *kurrasini, boshini* soʻzlaridagi **-n** affiksi oʻzaro omonim boʻlib, u

birinchi soʻzda qaratqich kelishigi, ikkinchisida esa tushum kelishigi shaklini yasaydi.

Qaratqich kelishigi qarashlilikni bildiradigan **-niki**, **-im** kabi shakllar bilan oʻzaro sinonim boʻlib keladi. Masalan:

*Qanday baxtiyorsan Vatanim endi,
Yop-yorugʻ kelajak bari **seniki**.
Sen minglab azamat botirga doya,
Arslon yigitlarning bari **seniki**. (Gʻafur Gʻulom)*

*Ona xalqim, jon-tanim **manim**
Oʻzbekiston — Vatanim **manim**. (Abdulla Oripov)*

***Manim** peshonamga nelar yozilgan. Saltanatning taqdiri na boʻlur,
gay birini bilasiz? (Odil Yoqubov)*

Bu misollarda **manim** soʻzidagi **-im** affiksi **-ning** oʻrnida ishlatilgan. Chunki bu oʻrinda davr tilini aks ettirish maqsadi koʻzda tutilgan.

Misollarda **manim mening** oʻrnida ishlatilgan. Bu oʻrinda alliteratsiya va assonans hosil qilish uchun va shu orqali sheʼrdagi soʻzlarning ohangdorligini taʼminlash maqsadi nazarda tutiladi.

Ot soʻz turkumining stilistik imkoniyatlari bu soʻz turkumiga xos boʻlgan egalik, kelishik, koʻplik va subyektiv baho shakllarida yana ham koʻp qirraliroq koʻrinadi. Jamiyat taraqqiyoti tufayli bu tushunchalarga xos boʻlgan shakllarning baʼzilari eskirib, oʻrniga yangisi paydo boʻlgan, baʼzilari esa variant sifatida qoʻllanilib, maʼlum bir stilistik vazifani bajaradi.

Masalan: oʻzbek tilida yoʻnalishni bildiradigan **-ga**, **-ka**, **-qa**, affixlari adabiy tilga xos boʻlib, neytral shakllarda, **-a**, **-gʻa**, **-na** esa maʼlum stilga xos boʻlib, stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan:

*Sochiniing savdosi tushdi **boshima** boshdin yana,
Tiyra boʻldi roʻzgorim ul qaro qoshdin yana.
Jonima oʻt soldi ul ruxsorai zebo yana,
Koʻngluma ul zulf boʻldi moyayi savdo yana.*

Yoki

*To yor kimni istaru **koʻnglina** kim yoqar,
Tashvishi bejihat durur oxir **sanga**, **manga**. (Bobur)*

Kelishik affixlari oʻzaro sinonimik munosabatga kirishish bilan

birga boshqa grammatik shakllar-ko‘makchilar bilan ham sinonimik munosabatda bo‘la oladi. Bular fikrning g‘aliz chiqmasligi uchun, yozuvchi yoki so‘zlovchi ma‘qul shaklni tanlab ishlatishi uchun imkon beradi.

Tushum kelishigi affiksining so‘zda saqlanishi yoki tushirib qoldirilishi ko‘p jihatdan uni boshqarib kelgan so‘zning xususiyatiga bog‘liq.

Qaratqich kelishigi affiksi **-ning** ham **-ni**, **-ing**, **-i** kabi variantlarga ega. Bu shakllarning ishlatilishi stil turlariga ko‘ra belgilanadi. Masalan: so‘zlashuv stilida **-ni**, **-i**.

Dod zolimni dastidan. (Hamza Hakimzoda)

Uni kitobi menda. Uzunni mazasi shirin.

O‘rin-payt kelishigi affiksi **-da** ham **uzra**, **orqali** ko‘makchisi bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi. Masalan:

Shahar uzra (shaharda) qanot yozgan xavf-xatar sababli, qalandarlarning jazava bilan hu-huvlab zikr tushishlari vahimali tuyular edi. (Odil Yoqubov)

Radioda e‘lon qildi – radio orqali e‘lon qildi.

Shuningdek, **uzra** ko‘makchisi jo‘nalish kelishigi affiksi **-ga**, **orqali** ko‘makchisi, chiqish kelishigi affiksi **-dan** bilan ham sinonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Masalan:

Daryo uzra kech qo‘nmoqda,

Qirg‘oqlari xo‘p charog‘on.

Sevikli yor shunday chog‘da,

Tursak bunda biz yonma-yon. (Qo‘shiqdan)

Horazmga Amudaryo orqali borish mumkin – Horazmga Amudaryodan boriladi.

Chiqish kelishigi affiksi **-dan**, **-ni** bilan sinonimik munosabat hosil qilishi mumkin. Lekin bunda boshqa-boshqa maqsad ko‘zda tutiladi. Masalan: *Nondan oling – nonni oling, choydan iching – choyni iching.*

Birinchi holatda butunning qismi nazarda tutilsa, ikkinchisida esa butun nazarda tutiladi.

-dan uchun, bilan, tufayli kabi ko‘makchilar bilan ham sinonimik munosabat hosil qiladi. Masalan: *Zinapoyadan chiqing – zinapoya bilan chiqing. Bizning farovonligimiz mehnatdan – bizning*

farovonligimiz mehnat **tufayli**. Tinchlik bo'lgani **uchun** baxtiyormiz – tinchlik bo'lganidan baxtiyormiz.

Ba'zi hollarda kelishik affikslari pleonastik holatda, yani qo'sha qo'llanib, ta'kidni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan:

— Mana **bunisinikimi?** — u barmog'ini nuqib ko'rsatdi.

Ma'lumki, egalik affikslari mavjud bo'lgan so'z qaratqich kelishigi affiksili so'z bilan birikma hosil qiladi. Masalan: **gulning bargi, mening kitobim**.

Bunda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati ifodalanadi. Lekin qaratqich kelishigi affiksi **-niki** bilan ifodalanganda, bu munosabat buziladi: **barg gulniki, kitob meniki**.

Bunday hollarda egalik affiksi ishlatilmaydi va endi aniqlovchi-aniqlanmish emas, ega-kesim munosabati ifodalanadi, lekin ma'no qarashlilikni bildiraveradi.

Ba'zan qaratqich-qaralmish munosabatida ishlatilayotgan birikmalarda egalik affiksi tushib qoladi. Masalan:

Bizning xotinlarga hayo fazilat,

Vafo hunaridir, mehnat odati. (G'afur G'ulom)

Bu o'rinda **xotinlarimizga** deb egalik affiksi bilan qo'llanganda, poetik stilga xos bo'lgan ko'tarinkilik, umumiylik ifodalanmas edi.

Bizning ulug' Vatanda

Qish ham qiladi handa.

Quvonamiz oppoq qor

Gupillatib yoqqanda. (Zafar Diyor)

Bu to'rtlikda **Vatan** so'ziga egalik affiksi qo'shilganda misradagi bo'g'inlar soni ortib ketardi va qofiya buzilar edi. Shunday bo'lmasligi uchun egalik affiksi qo'llanmagan.

Ko'plik affiksi **-lar** ko'plik ma'nosini ifoda qilishdan tashqari, ta'kid kabi ma'nolarni bildiradi:

Agar jangda ish bermasang,

Olmasang botir deb nom.

Dushmanni yengib qaytmasang,

Bergan sutlarim harom. (Hamid Olimjon)

Bu misolda **-lar** ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, **-lar** qo'shimchasi yana ko'pgina stilistik ma'noni ifodalashi mumkin:

1. *Buvimlar keldilar. (hurmat ma'nosi)*
2. *Kelibdilar-da. (piching ma'nosi)*
3. *Senlar kimsanlar? (kamsitish ma'nosi)*
4. *Nimalar qilding? (noaniqlik ma'nosi)*

Shunday qilib, yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, so'z turkumlari ichida ot eng boy stilistik imkoniyatga ega ekan.

Nazorat savollari

1. Grammatik stilistika nimani o'rganadi?
2. Morfologik stilistikaning qanday xususiyatlari mavjud?
3. Tushum kelishigi qo'shimchasi qaysi qo'shimchalar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi?
4. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi qaysi yordamchi so'z turkumlari bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi?
5. -lar qo'shimchasining qanday stilistik vazifalari mavjud?

Tayanch ifodalar

Affiks — qo'shimcha.

Analitik shakl — ko'makchili shakl.

Pleonastik — qo'sha qo'llanish.

Omoaffiks — bir xil shakldagi qo'shimchanning ikki xil ma'noda ishlatilishi.

SO‘Z TURKUMLARINING BOSHQA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Sifat, son va olmosh stilistikasi

Reja:

1. Sifat stilistikasi.
2. Son va olmoshlarga xos stilistik xususiyatlar.
3. Fe'lga xos stilistik xususiyatlar.

Ma'lumki, sifat darajalari narsalarga xos bo'lgan belgini darajalab ko'rsatish vazifasini bajaradi. Sifat darajalari **eng, juda, nihoyatda, g'oyat** kabi maxsus ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Stilistik jihatdan sifat darajalari boshqa variantdosh vositalar bilan o'zaro almashinib qo'llanishi mumkin. Masalan: *yaxshiroq* — *biroz yaxshi, qoraroq* — *qoramtir, qizilroq* — *qizg'ish, eng qorong'i* — *qop-qorong'i, juda qizil* — *qip-qizil* va hokazo.

Stilistikada sifat yasovchi affikslar sinonimiyasi juda qo'l keladi.

-li sifat yasovchi affiksi **-dor, -kor, -ba** kabilar bilan o'zaro sinonim bo'lib kelishi mumkin. Masalan: *aybli* — *aybdor, quvvatli* — *baquvvat, bama'ni* — *ma'noli* — *ma'nodor*.

-li yasovchisi hamma vaqt ham **-kor** bilan vazifadoshlik qilavermaydi. Ba'zan bu affikslar o'zaro almashtirilganda, boshqa-boshqa ma'nodagi so'z yasaladi. Masalan: *ziyoli* — *ziyokor, paxtali* — *paxtakor, shifoli* — *shifokor*.

Demak, affikslar o'rnini almashtirayotganda, so'zlar ifodalaydigan ma'noni hisobga olish kerak.

Ba'zan birgina affiks boshqa bir necha affiks bilan o'zaro vazifadosh bo'lishi mumkin. Masalan: *gulli* — *guldor* — *sergul, havoli* — *bahavo, mevali daraht* — *sermeva* — *mevazor, o'tli* — *sero't* — *o'tzor* kabi.

Ayniqsa, sifatlar otlashganda kuchli stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. *Qizil kishi hissiyatini kuchaytiradi. Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. Yaxshiga yondash, yomondan qoch.*

Sonlar ham sifatlarga o‘xshab umumiy belgini bildiradi. Sonlarning ichida **bir** so‘zi stilistik vosita sifatida ko‘p qo‘llanildi. Masalan:

Umid bilan suqilgan tayoq,

Bir kun berar mevay-u, yaproq. (*Gyote*)

Umrin kitobidan bir varaq o‘tdi,

Bir sahifa shodlig-u, **bir** sahifa zahmat. (*Abdulla Oripov*)

Birinchi she‘rdagi misralarda **bir** soni *kun* so‘zi bilan birikib, kelajak ma‘nosini bildirsa, ikkinchisida **sahifa** so‘zi bilan birikib, qism ma‘nosini bildiradi.

Olmoshlar, ayniqsa, stil tanlash va birini ikkinchisi o‘rnida qo‘llash imkoniyatlariga ega. **Men** va **biz** olmoshlari bir xil vazifada ishlatilishi mumkin. So‘zlovchi **men** o‘rnida **biz** olmoshini qo‘llashi yoki **sen** o‘rnida **siz** olmoshini ishlatishi mumkin. Masalan: **Sizni odam qilgan biz bo‘lamiz.**

Bunda manmanlik yoki kamsitish nazarda tutiladi yoki aksincha, kamtarlik ma‘nosida **men** o‘rnida **biz** ishlatilishi mumkin. Masalan: **Biz bu muammoni hal etish uchun juda ko‘p ilmiy manbalarni ko‘rib chiqdik.**

Manmanlik **men** olmoshi orqali ham ifodalaniishi mumkin:

Mavlon: Yo‘l bo‘yidagi teraklarni ko‘rdingmi?

Dehqonboy: Ko‘rdim.

Mavlon: (kerilib) men ekkanman. Tutni ko‘rdingmi?

Dehqonboy: Yaxshi o‘sibdi.

Mavlon: Men ekkanman. (Abdulla Qahhor)

Bu misolda **men** olmoshining manmanlikni ifodalashi yana bir so‘z — **kerilib** so‘zi orqali aniqlashadi. Bundan tashqari, «**men ekkanman**» gapining ikki marta ishlatilishi ham bu ma‘noni bo‘rttirib ko‘rsatadi.

Biz olmoshi odatda, ko‘pchilikni bildiradi. Ba‘zi adabiyotlarda **si**, **bi** o‘zak, **-z** ko‘plik affiksi sifatida talqin qilinadi; **biz**, **siz** olmoshiga **-lar** affiksining qo‘shilishi mumkinligi **-z**, **-lar** bilan teng emasligini ko‘rsatadi:

Sizlarga yana nima yoqadi? Bizlar bu kitobni tanladik.

Bu misolda **siz**, **biz** ko‘plik ma‘nosini ifodalasa-da, unga **-lar** affiksining qo‘shilishi ko‘plik ma‘nosini yanada ta‘kidlab, haqiqatan

ham ko'p ekanligini bildirib keladi. Yuqorida aytganimizdek, **biz** olmoshi birlik ma'nosini ham ifodalashi mumkin, unga qo'shilgan **-lar** affiksi esa aniq ko'plikni bildiradi.

Sen olmoshi ham stilistik maqsadda **siz** o'rnida ishlatiladi. Bunday qo'llanish ba'zi adabiyotlarda o'ta hurmat ma'nosini ifodalashi uchun xizmat qiladi, degan fikrlar uchraydi. Masalan:

*Dilda neki jur'a'im bor,
Dilda neki hayajon,
Bari, bari senga bo'lsin,
Senga bo'lsin, onajon...*

Xotirangga ushbu she'rni

Yozdi o'g'ling Abdulla. (Abdulla Oripov)

Bizningcha, birinchidan, she'rning bo'g'ini, turog'i **sen** deb ishlatishni talab qilsa, ikkinchidan, ona eng yaqin inson bo'lgani uchun ba'zi hududlarda onaga nisbatan **sen** deb murojaat qilinishi uchrab turadi.

Otaga nisbatan esa, asosan, siz qo'llanadi:

*Donishmand ustozim, siz, otajonim,
Endi men eslayman, ko'zlarimda nam. (Abdulla Oripov)*

Sen olmoshining ko'pligi **siz**, lekin badiiy nutqda **siz** emas, balki **senlar** ishlatilishi mumkin. Bunda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan hurmatsizligi, uni kamsitish nazarda tutiladi:

Endi senlarning kasofatinga men qolamanmi? (Mirzakalon Ismoilijiy)

Fe'l stilistikasi

Fe'llarda zamon, mayl, nisbat tushunchalari stilistik imkoniyatga boy shakllarga ega. O'tgan zamon shakllaridan **-gan** va **-di** ning o'zaro munosabatiga e'tibor beraylik:

O'tgan yil paxtadan mo'l hosil olindi. — O'tgan yil paxtadan mo'l hosil olingan.

Bu gapdan anglashiladigan ish-harakat o'tgan zamonda yuz bergan. Lekin **-di** bilan ifodalangan fe'ldan aniq bajarilganlik va fikrning davomi yo'qligi, bu fe'l sifatdoş bilan qo'llanganda harakatning boshlanganligidan darak beruvchi ma'no anglashiladi.

Yana misolga e'tibor beraylik:

Daraxtlar gullagan, charaqlagan o'tob shahrimizning ko'rkiga ko'rk qo'shgan.

Demak, **-di** affiksi tugallik, **-gan** esa davomiylilikni bildiradi, **-yap**, **-yotir**, **-moqda** shakllari ham hozirgi zamoni bildiradi.

Lekin ular ayrim ma'no nozikliklari bilan farqlanadi. Masalan: *yozyapmiz-yozayotirmiz-yozmoqdamiz*. Bu shakllarning har biri o'ziga xos ma'noga ega bo'lishidan tashqari, nutq stillari bo'yicha ham farqlanib ishlatiladi. **-yap** og'zaki adabiy nutqqa xos, **-yotir** va **-moqda** kitobiy nutqqa xos.

Fe'l mayllari turli modal ma'no ifodalaydi. Bu bilan muhim stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Misollarni qiyoslaylik:

Sizning aytganingiz bo'lsin, biz ham tomosha qilaylik.

Sizning aytganingiz bo'lsa, biz ham tomosha qilardik.

Sizning aytganingiz bo'ladi, biz ham tomosha qilamiz.

Bu misollar ham har uchala maylni aks ettiradi. Birinchi va ikkinchi misollarda modallik, ya'ni stilistik ottenka (turi) kuchli, uchinchisida esa neytrallik aks ettiriladi.

Shart mayli aslida shartlilikni ifodalasa ham, badiiy nutqda buyruqni yumshatish, iltimos ma'nolarini bildirish uchun ishlatiladi.

Masalan: Agar malol kelmasa, jim o'tirsangiz.

Eshikni narigi tomonidan yopsalar va hokazo.

Mayl shakllari shaxs-son shakllari bilan birgalikda kuchli stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, 1-shaxs birlik va ko'plikda buyruq-istak maylida istak ifodalanadi, 2—3-shaxslarda esa buyruq ifodalanadi. Masalan:

birlik	ko'plik
<i>Men yozay</i>	<i>Biz yozaylik</i>
<i>Sen yoz</i>	<i>Siz yozing</i>
<i>U yozsin</i>	<i>Ular yozsinlar</i>

Lekin ba'zi hollarda buyruq bilan birga istak, iltimos ham ifodalanadi:

Qatra yosh tommasin aslo biror zum,

Munis onalarning yanoqlariga.

Keksa chol sen tomon boqqay intizor,

Oftobim, unga ham rahm etgil zinhor. (Abdulla Oripov)

2—3-shaxsda sof buyruq yoki istakning ifodalanishi matndan anglashiladi:

*Meni kutgil va men qaytarman,
Faqat kutgil juda intizor. (Konstantin Simonov)
Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil. (Abay)*

I shaxsda faqat istak ifodalanadi:

*Shu go'zallik tarovatin
Satrlarga solayin.*

*Yashilligin, isin, totin,
Aslin olib qolayin. (Tursunoy Sodiqova)*

Lekin badiiy nutqda 1-shaxsda so'zlovchi o'ziga o'zi buyruq berishi mumkin. Bu 2-shaxs, birlik yoki ko'plik shakli orqali amalga oshiriladi:

Xo'sh, Mulla Mamajon, endi nima qilmoqchisan? Biror yo'lini top. (G'afur G'ulom)

1-shaxs ko'plik shakli istakdan tashqari, harakatga da'vat ma'nosini ifodalaydi: *Talabalik oldidagi burchimizni bajaraylik! Ilm cho'qqilarini zabt etaylik!*

Shunday qilib, morfologik shakllarning stilistik imkoniyatlari rang-barang bo'lib, turli nutq ko'rinishlarida har xil namoyon bo'ladi.

Nazorat savollari

1. *-li* sifat yasovchi affiksi qaysi affikslar bilan sinonim bo'la oladi?
2. Olmoshlardan qaysi biri stilistik tanlash va biri o'rnida ikkinchisini qo'llash xususiyatiga ega?
3. Fe'llarning shart mayli badiiy nutqda qanday ma'nolarni bildirish uchun ishlatiladi?
4. Buyruq-istak maylining qanday stilistik xususiyatlari bor?

Tayanch ifodalar

Mayl — fe'l tushunchalaridan biri.

Neytrallik — stilistik bo'yoqsizlik.

Modallik — qo'shimcha ma'no ifodalash.

Adabiy nutq — me'yorlashtirilgan nutq.

SINTAKTIK STILISTIKA

Reja:

1. Sintaktik stilistikaning vazifalari.
2. Sintaktik sinonimiya.
3. Gap bo'laklariga xos stilistik xususiyatlar.

Sintaktik stilistikada sintaksisning o'rganish obyekti bo'lgan gap, uning bo'laklari, gap bo'laklarining tartibi, gapning ifoda maqsadiga va tuzilishiga ko'ra turlarining stilistik imkoniyatlari o'rganiladi.

Stilistika uchun sintaksis juda muhim soha hisoblanadi. Yirik tilshunos olim M.Verli: «Stil so'zga qaraganda ko'proq gapda shakllanadi», — deb juda to'g'ri ta'kidlagan edi. L.N.Tolstoy esa adibning mahorati eng mos, zaruriy so'zni eng mos, zaruriy o'rinda ishlatishda ko'rinishini qayd etib o'tgan edi.

Umuman, vazifadosh stillarning shakllanishida sintaksis muhim o'rin tutadi. Ammo ayrim sintaktik hodisalar vazifadosh stil ko'rinishlari bo'yicha chegaralangan holda ishlatilishi mumkin: sifatdosh va ravishdosh oborotlar, ayrim yordamchi so'zlar kitobiy nutqga xos bo'lsa, elliptik gaplar, to'liqsiz gaplar so'zlashuv nutqiga xosdir:

1. Asrorqul usta Mo'minning damini bosib, bo'lak ishlarga qarashib, do'konda yotib yurardi. 2. U haddan tashaari qizargan, o'zini qaerga qo'yishini bilmayotganga o'xshardi. (Abdulla Qahhor)

Sintaktik vositalar nutqda boy stilistik imkoniyatlardan hisoblanadi. Ayniqsa, sintaktik hodisalar sinonimiyasi muhim ahamiyatga ega.

Har bir stilning o'ziga xos sintaktik belgilari bo'ladi. Ilmiy stilga xos bo'lgan matn sintaksisini drama asariga xos bo'lgan matn sintaksisidan farqlash oson. Masalan, ilmiy-ommabop stilda so'zlovchi fikrini izchil va aniq ifodalashga e'tibor beradi. Dramatik asarlarda esa so'zlovchi fikrini birdaniga aniq ifodalay olmaydi. Fikrning mazmuni ikki va undan ortiq shaxslarning suhbatida davomida aniqlanadi. Masalan:

Ilmiy stilda: *til ayniqsa, uning lug'ati doim o'sish-o'zgarishda. Bunday jarayon tez va uzi'-kesil sodir bo'lmaydi. Shu sababli zamoniyligi jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug'at boyligida zamonaviyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy va zamondosh qatlam. (Shavkat Rahmatullayev)*

Badiiy stilning dramatik asar ko'rinishida:

Chol: Kechirasan, bilmasdan aytib qo'yibman, mahallada kim otini aytsa, og'zini chayqaydi.

Navro'zov: Qani ketdik.

Suxsurov: Ruhoniy.

Netayxon: Voy, endi nima qilaman?

Obidjon: Endi nima qilar edingiz, eringizdan qolganini qurtday kemirib yotasiz. Boshingiz og'risa...

Hojar: Voy, endi boshlari og'risa, turmaga qatmaydilar?! (Abdulla Qahhor)

Sintaktik stilistikada neytral xarakterdagi sintaktik vositalar emas, balki vazifadosh nutq stillariga xos bo'lgan stilistik bo'yoqli sintaktik birikmalar o'rganiladi.

Fikrning to'g'ri va ta'sirchan ifodalanishida sintaktik sinonimiya juda keng imkoniyat beradi. Sintaktik sinonimiya konnotativ, bir xil n... noli sintaktik birliklar orasida bo'ladi. Sintaktik sinonimiya gap bo'laklari, so'z birikmasi, sodda va qo'shma gaplar orasida yuz beradi. Masalan:

Har qadamda bir bo'ston,

Har yerda bir guliston. (Hamid Olimjon)

Bu sinonimik misralarda umumlashgan grammatik ma'no sinonimik gaplarning ma'nosidan kelib chiqadi va bu ma'no turlicha usullar bilan ifodalanadi.

Ba'zi stillarda shunday ma'no ifodalaydigan shakllarning biri tanlab olinsa, boshqasida sinonim bo'lgan holatlarning hammasi ham ishlatiladi.

«Yuksak nutqiy madaniyatlilik, — deb yozadi tilshunos G.A.Zolotova, — fikrni turli usullar bilan ifoda qila olish, kommunikativ vazifaga ko'ra til vositalaridan aniq va maqsadga muvofiq'ini tanlay bilishdadir».

Yuqorida aytganimizdek, sintaktik sinonimiya barcha sintaktik vositalar: gap, soʻz birikmasi, gap boʻlaklari, ajratilgan gap boʻlaklari orasida boʻlishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Sintaktik stilistika nimani oʻrganadi?
2. Sintaktik sinonimiya qanday (qaysi vositalarda) yuz beradi?
3. Ilmiy-ommabop stilda nimalarga eʼtibor qilinladi?
4. Dramatik asarlarda-chi?

Tayanch ifodalar

Elliptik – tushib qolish.

Konnotativ – lotincha «con+noto», yaʼni maʼno qoʻshish.

SINTAKTIK FIGURALAR

Reja:

1. Sintaktik figuralar haqida umumiy tushuncha.
2. Ularning turlari.
3. Anafora, epifora, takror va kompozitsion bog‘lanishlarning o‘xshashlik va farqli tomonlari.
4. Sintaktik parallelizm va antiteza.
5. Ritorik so‘roq va gradatsiya.

Sintaktik figuralar nutqni ohangdor, ta’sirchan va jozibali qilish uchun ishlatiladi. Asosan, tinglovchining tushunishiga osonlik yaratadi. Shu jihatdan ular nutq musiqasi deb yuritiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ma’lum: *anafora*, *epifora*, *kompozitsion bog‘lanish*, *takror*, *sintaktik parallelizm*, *antiteza*, *gradatsiya*, *ritorik so‘roq*.

Anafora — yuqoriga ko‘tarilish degan ma’noni bildiradi. Bunda har bir misra, abzas va gap boshida bir xil takrorlanuvchi konstruksiyalar ishlatiladi. Bular so‘z, so‘z birikmasi, gap shaklida bo‘lishi mumkin. Masalan, *Birga tug‘ilmoq bor, birga turmoq yo‘q.*

U alla aytmasa, tonglar otmaydi,

U alla aytmasa, quyosh botmaydi.

U alla aytmasa, dillarning g‘ashin,

Kulgular yuvmaydi va yo‘qotmaydi. (Saida Zunnunova)

Epifora — lotincha so‘z bo‘lib, *epi*-keyin, *foros*-ma’no demakdir. So‘zlar oxirida unli yoki undosh tovushlarning, misralar, gaplar, abzaslar oxirida bir xil konstruksiyalarning takrorlanishiga epifora deyiladi. Anafora og‘zaki va yozma nutqda, epifora esa, asosan, yozma nutqda qo‘llaniladi:

Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat va mehnat nonini ko‘ramiz baham. (G‘afur G‘ulom) Vaqt hamma narsadan kuchli, deydilar, quyosh, tovush va nur harakatini taajjublanarli tez, deydilar, atom va vodorot quvvatini tengsiz va beqiyos qudrat, deydilar. (Vohid Zohidov)

Kompozitsion bog‘lanish. Yangi gap yoki misra oldingi gap yoki misra tugagan so‘z bilan boshlanadi va fikrlar zanjiri vujudga keladi:

Ana o'sha tog'midi, tog' atrofi bog'midi? Bog yonida uymidi, uy atrofi gulmidi? Gul shoxida bulbulmidi? (Xalq og'zaki ijodidan)

Takror. Bu figura so'zlovchi aytayotgan gapi o'z hissiyotini ifodalashga mos emasligini anglab, miqdorni ko'paytirish orqali sifatni ta'minlashga harakat qiladi. Shunda takror yuzaga keladi. Takror hissiyotli nutqni ifodalaydi. Bunda so'z, so'z birikmasi, gaplar aynan takrorlanib kelishi mumkin:

– *Bolam, bolajonim, bolaginam, – Bahri xolaning butun vujudi titrardi... – Xayr, qizim. Baxtli bo'lgin. Baxtli bo'linglar.* (Saida Zunnunova)

Sintaktik parallelizm. Bunda tuzilishi bir xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq gaplar ketma-ket keladi. Bu gaplarda so'zlarning shakllari bir xil bo'lib, simmetriya vujudga keltiriladi va ifodalilik kuchayadi. Masalan:

Tuproq kulgusidan yasharar olam,

Tuproq yig'isidan quriydi hayot.

...Onaning orzusi quchmagan baxt yo'q,

Onaning xayoli to'xtagan vaqt yo'q. (Saida Zunnunova)

Antiteza (tazod) – grekcha so'z bo'lib, qarama-qarshi qo'yish ma'nosini bildiradi. Antitezadan ifodalilikni kuchaytirish uchun, qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni, shaxslarning xarakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa-hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlash uchun foydalaniladi. Ikki qarama-qarshi holat, belgi yoki xususiyat esa biri ikkinchisini inkor etadi. Masalan:

Sen kech turding, lanjsan, senga

Olam zimiston,

Men tong bilan turdim, menga

Borliq nurafshon. (Erkin Vohidov)

Gradatsiya. Bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, zinapoya (ifodalilikning o'sib borishi yoki tushib ketishi) ma'nosini bildiradi. Gradatsiya narsa, belgi, xususiyat, harakatni biri-biridan kuchliroq yoki kuchsizroq ma'no ottenkali sinonimlar va so'zlar vositasida kuchaytirib yoki pasaytirib borish orqali tasvirlashdir. Bunda ta'sirchanlik birin-ketin kuchayib yoki pasayib boradi. Agar ta'sirchanlik kuchayib borsa **klimans**, pasayib borsa **antiklimans** bo'ladi.

Masalan:

Klimans: *Nido bergin qcydasan? Sharpangga quloq tutdim.
Sirli tushlar ko'rib men, bor dunyoni unutdim.
Tongda turib nomingga ushbu she'rimni bitdim.
Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim,
Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim!*

(Ablulla Oripov)

Antiklimans: *Bu nigoh uning oromini buzar, yurak-bag'rini ezar,
dadasining yoniga qaytgisi, bo'ynidan quchoqlagisi, unga yaxshi-
yaxshi gaplarni aytgisi kelardi.* (Saida Zunnunova)

Ritorik so'roq. Bunda so'zlovchi yangi ma'lumot olishni ko'zda tutmaydi, shuning uchun so'roqqa javob talab qilinmaydi. So'roq orqali hukm ifodalanadi. Ritorik so'roq gaplar ko'tarinki, kuchli hissiyot bilan aytiladi. Bunday gaplar uch xil: 1) tasdiq javob ifodalaydigan ritorik so'roq gaplar, masalan, *O'z uyini, o'z Vatanini kim sevmaydi? Ulfating qarg'a bo'lsa, yemishing go'ng, degan gapni kim eshitmagan?* (Tursunoy Sodiqova)

2) inkor ma'noli javob ifodalanadigan ritorik so'roq:

Muhabbat yoritgan uyda ham shuncha –

Bemavrid, bemahal o'charmi chiroq?

Yaqin yo'llar birdan tusharmi yiroq?

Nogahon ochilmay so'larmi g'uncha? (Saida Zunnunova)

3) mazmunidan javob anglashilmaydigan ritorik so'roq gaplar:

Axir, qaysi yil dehqon uchun yengil kelgan? Qaysi yil osonlik bilan hosil ko'tarilgan? Tabiat hech qachon ehsonlarini osonlikcha hadya etgan emas. (Vohid Zohidov)

Yuqorida keltirilgan misollar ritorik so'roq gaplarning bir necha turiga to'g'ri keladi. Bunday gaplarning boshqa turlari ham mavjud. Umuman, ritorik so'roq gaplar nutqda kuchli stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular badiiy va publitsistik stillar uchun umumiy bo'lib, ba'zan so'zlashuv stilida ham uchraydi. Bunda ritorik so'roq gaplar fikrni ta'sirchan ifodalaydi.

Nazorat savollari

1. Sintaktik figuralar nima?
2. Anafora va epifora, takror va kompozitsion bog‘lanishlarning o‘xshash va farqli tomonlari qaysilar?
3. Sintaktik parallelizm va antiteza haqida nimalarni bilasiz?
4. Ritorik so‘roq va gradatsiya nima?

Tayanch ifodalar

Sintaktik figura – tasviriylilikning turli usullari.

Anafora – yuqoriga ko‘tarilish, gaplarning boshida bir xil so‘zlarning takrorlanishi.

Epifora – so‘zlarning oxirida unli yoki undosh tovushlarning; gaplar, misralar oxirida so‘zlarning takrorlanishi.

Kompozitsion bog‘lanish – yangi gap yoki misraning oldingi gap yoki misra tugagan so‘z bilan boshlanishi.

Antiteza – qarama-qarshi qo‘yish.

Gradatsiya – kuchaytirish.

Ritorik so‘roq gap – so‘roqqa javob talab qilinmaydigan gap.

TROPLAR

Reja:

1. Trop soʻzining maʼnosi va mohiyati.
2. Oʻxshashlikka asoslangan koʻchimlar.
3. Jonlantirish asosidagi koʻchimlar.
4. Mubolagʻa va litota.
5. Istehzoga asoslangan koʻchimlar.
6. Simvol.

Trop deb bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga koʻchirish yoki nutqda soʻz va iboralarning koʻchma maʼnoda ishlatilishiga aytiladi.

Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni, tushunchani, narsani, hodisani va ularning belgisini qiyos qilish, oʻxshatish troplarga asos qilib olinadi. Bunda ular haqida aniq tasavvur paydo boʻladi.

Quyida har bir tropning tavsifini keltiramiz.

Metafora — grekcha soʻz boʻlib, koʻchim degan maʼnoni bildiradi. Nutqqa obrazlilik, egressiv boʻyoq berish niyatida narsa va hodisalar oʻrtasida oʻxshashlikka asoslanib, soʻz yoki iboralarni koʻchma maʼnoda ishlatish metaforadir. Masalan, *bolalar mamlakati – bolalik, anor yuz – qizil yuz, quyoshli qalam – ijod* kabi.

Xalq dengizdir, xalq toʻlqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq oʻchdir... (Choʻlpon)

Metafora tuzilishiga koʻra ikki xil: sodda va kengaygan boʻladi. Sodda metafora birgina soʻz, kengaygan metafora esa ikki yoki undan ortiq soʻzlar bilan ifodalanadi. Masalan, *aʼlo* (besh baho), *saltanat* (podshohlik), *koʻk* (osmon), *xoʻroz* (mard odam) kabilar sodda metafora boʻlsa, *bahor elchisi* (boychechak), *ilhom manbayi* (hayot), *Nizomiyning Vatani* (Ozarboyjon) kabilar esa kengaygan metaforalardir.

Lingvistik metafora bilan badiiy metafora bir-biridan farqlanadi. Agar metafora biror shaxsning, narsaning doimiy nomiga aylanib qolgan boʻlsa, u tilshunoslikning muammosiga aylanadi, muayyan

bir matnda ishlatilib, matndan tashqari holatda shu shaxsga, narsaga nisbatan qo'llanilmasa, badiiy metaforaga misol bo'ladi. Masalan, *go'zal* — sifat, *Go'zal* — ot, *ko'k* — rang, *ko'k* — osmon, *tosh va ko'mir* — tabiat jinslari, *toshko'mir* — yoqilg'i kabi so'zlarning xususiyatlari tilshunoslikda o'rganiladi. Quyidagi she'riy parchada badiiy metafora ishlatilgan:

*Na ko'kning fonari o'chmasdan,
Na yulduz sayr etib ko'chmasdan,
Na ufq o'ramay yoqut-zar,
Na bulut silkitmay oltin par,
Tong kulmasdan burun Jontemir
Quyuyq bir zavq bilan turadi...*

*Po'lat otlarini o'ynatib,
Ekin maydoniga yuradi. (Uyg'un)*

Bu misollarda badiiy metaforalar: *fonar* (oy), *yoqut-zar* (shafaq), *oltin par* (quyosh nuri), *Po'lat otlarini* (traktorini)dir. Metafora bilan o'xshatish bir tushunchaday ko'rinadi. Lekin ular bir xil emas. «O'xshatish» mavzusida bu haqda to'liq ma'lumot mavjud.

Metonimiya — grekcha so'z bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Bir narsaning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o'zaro bog'liqlik asosida ko'chirilsa, metonimiya yo'li bilan ko'chirish deyiladi. Bu narsa, belgi, harakat tasavvurimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni ifodalashi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Tasavvurimizda muallif bilan uning asari, mashhur kashfiyotchi bilan uning kashfiyoti, idish-tovoq bilan uning ichidagi ovqat, joy bilan uning ichidagilar va shunga o'xshash tushunchalar bir-biri bilan bog'liq holda shakllanadi. Inson doim so'zlarni tejab ishlatishga intiladi. Shunday hollarda, yuqorida sanalgan bir-biriga bog'liq narsalarning birini aytib qo'ya qoladi. Metonimiya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Masalan:

*Fuzuliyini oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi
Va Navoiy tushib yo'limga, faryod bilan o'rnidan turdi.*

Lermontovni tashlamadim hech, axir qo'yib oldim Xofizni,

*Pushkin menga ko'rsatar har kech, yig'lab turgan bir cherkas
qizni.*

(Hamid Olimjon)

Sinekdoxa. Sinekdoxada narsalarning butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. Bunda butun o'rnida qism va aksincha, qism o'rnida butunning nomi ishlatiladi. Misollar:

1. *Bir juft qaro ko'z dardida Mashrab devona bo'ldi,
Shu jodu deb o'z yurtidan Farhod begona bo'ldi.*

(Tursunoy Sodiqoba)

Talabaning vazifasi ustozning so'zini yerda qoldirmaslik.

2. *Besh qo'lingni og'zingga tiqma. (maqol)*

Bu yil Respublikamizda g'alladan mo'l hosil etishtirildi.

Birinchi misolda qismning nomi butun ornida, ikkinchi misolda butunning nomi qism ornida ishlatilgan.

Epitet (sifatlash) — grekcha so'z bo'lib, izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Epitet poetik izohlovchi bo'lib, u doimiy sifatlovchidan ekspressivlik hosil qilishi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi.

Muallif tasvirlanayotgan narsa yoki voqeaning o'zi zarur hisoblangan tomonini ma'lum nuqtayi nazardan turib baholash uchun epitetdan foydalanadi. Masalan,

Aziz asrimizning aziz onlari,

Aziz odamlardan so'raydi qadrin.

Fursat g'animatdir, shoh satrlar-la,

Bezamoq chog'idir umr daftarin. (G'afur G'ulom)

Ayrim epitetlar biror narsa bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Masalan, *gor* deyilsa, *oppoq* so'zini, *osmon* deyilsa, *ko'm-ko'k* so'zini, *odam* deyilsa, *yaxshi* yoki *yomon* so'zlarini beixtiyor qo'shib aytamiz. Bunday so'zlar narsaning doimiy belgisidir, shuning uchun ham ular doimiy epitetlar deyiladi.

O'xshatish — bunda ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisi, mohiyati to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatiladi. O'xshatishda quyidagi tushunchalar bo'ladi:

- 1) o'xshatilgan predmet;
- 2) o'xshatiladigan narsa;
- 3) o'xshatish asosi;
- 4) o'xshatish vositasi.

Ezgulikni asrang, olamda u ham

Tojdor turna kabi bo'lmasin kamyob.

...Hayoni asrangiz, kuymasin hayo,

*Otashga duch kelgan **polapon misol**.* (Abdulla Oripov)

Bu misollarda *ezgulik* va *hayo* — o'xshatilgan predmet, *turna* va *polapon* — o'xshatiladigan narsa, *kamyob* va *otashga duch kelish* — o'xshatish asosi, *kabi* va *misol* — o'xshatish vositasi.

O'xshatish vositalari vazifasida *sifatida*, *kabi*, *go'yo*, *xuddi*, *misoli*, *singari*, *qadar*, *aynan*, *o'xshash*, *teng*, *-day*, *-dek*, *-simon*, *-ona*, *-larcha*, *-chasiga*, *-asiga*, *-omuz*, *-dan*, *-ga* kabilar ishlatiladi. Misollar:

Tog'lardagi qip-qizil lola *Qalbimdagi g'ashligimsimon*

Bo'lib go'yo yoqut piyola. Asta bosib keladi oqshom...

Uzatadi buloqlardan suv, *Ko'nglim kabi oy ham yarimta*

El ko'zidan qochadi uyqu. Joy izlaydi o'zin qo'ygali.

(Hamid Olimjon)

(Tursunoy Sodiqoba)

To'g'ri so'z qilichdan o'tkir. (maqol)

O'xshatish chog'ishtirish orqali ham ifodalanadi. Bunda o'xshatish vositasi ishtirok etmaydi. Masalan:

Meni shersiz deding, yovlar quyondir,

Quyonlarning ishi senga ayondir. (Uyg'un va Izzat Sulstonov)

Bu misolda o'xshatilgan predmet o'xshatiladigan narsaga hech qanday vositasiz nisbat berilmoqda: *Men sher* bilan, *yovlar quyon* bilan chog'ishtirilmoqda.

Ironiya — yunoncha so'z bo'lib, bilmaganga olish, degan ma'noni bildiradi. Bu tropda muallif voqeani bamaylixtir, jiddiy holda hikoya qiladi, ammo so'zlarni o'z ma'nosiga nisbatan qarama-qarshi ma'noda ishlatadi. Bu bilan o'zining biror kishi yoki hodisa ustidan ustunligini ko'rsatadi. Ironiya shunday tropki, sirtidan qaralganda, so'zlovchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning tagida kesatiq, piching, yashirin kulgi yotadi. Uyg'un va Izzat Sulstonning «Alisher Navoiy» dramasida Navoiy xizmatkorga nisbatan shunday deydi: «*Qo'rqma! (uzukni olib tomosha qiladi) Qimmatbaho uzuk. Katta xizmatlar evaziga mukofot qilib bersa, arziydigan uzuk. Ma!»*

Qo'qon shahrida o'zining duoxon va tabibliği bilan ma'ruf va mashhur bo'lib, ko'p bemorlarni osongina tinchitib qo'yadigan «Cho'loq domla» biroz fursat ishni yig'ishtirib qo'ygani edi. (Abdulla Qahhor)

Antifraza — ironiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, biror shaxs yoki narsaga xos bo‘lgan u yoki bu xususiyat kulgili intonatsiya bilan inkor qilinadi: 1. *Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi — Egamberdi paxtafi.rushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achingan bo‘ldi va yerni haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin kichkinagina sharti bor. Bu shart kuzda ma‘lum bo‘ladi.* 2. — *Yashang! Xotiningiz ham kayfi oshsa, hiqichoq tutib, xuddi o‘zingizday juda shirin bo‘lar ekan!* (Abdulla Qahhor)

Sarkazm — yunoncha so‘z bo‘lib, qiynash, ozor berish degan ma‘noni bildiradi. Bunda tasvirlanayotgan narsa yoki murojaat qilinayotgan kishidan muallifning ustunlik xususiyatiga asoslanib, achchiq zaharxanda, istehzoli ta‘na, piching bilan gapiriladi. Sarkazm satirik asarlarda qo‘llanib, shaxsning, voqea-hodisaning salbiy tomonlari fosh qilinadi. Uyg‘un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy» dramasida Navoiy shunday deydi: «*Rahnamo iblis bo‘lgach, yanglishish tabiiydir. Tushgan yo‘lingiz g‘oyat mudhish yo‘l. Bu yo‘ldan boruvchining qonlarni kechib, kallalarni depsib o‘tmay iloji yo‘q.*» *Eshak minganning oyog‘i tinmaydi, qo‘shxotinlining qulogi tinmaydi. Ko‘chada yotgan suyakni qaysi it g‘ajimaydi.* (maqollar)

Hozirgi Xudoyorxonlar shlapa ham kiyar ekan, papka ko‘tarib ham yurar ekan; qonunlarga chap berish, jamoatni chalg‘itish uchun minbarga chiqib, mast tuyadek og‘zidan ko‘piklar ham sochar ekan. (Abdulla Qahhor)

Perifraz. Bu grekcha so‘z bo‘lib, aylana, atrof, boshqacha gapiraman degan ma‘nolarni bildiradi. Narsa va hodisaning nomlarini ularning muhim belgi yoki xususiyatini tasvirlab ko‘rsatuvchi vosita yordamida bayon qilish perifraz deyiladi. Masalan: **Sohibqiron bobokalonimiz** — *deganda ko‘z oldimizga Amir Temur keladi* yoki yana bir misol: **tibbiyot olamining asoschisi** — *Ibn Sino.*

Bu misollarda *Sohibqiron bobokalonimiz, tibbiyot olamining asoschisi* perifrazlardir. Bunday perifrazlar nutqda ko‘plab ishlatiladi: *g‘azal mulkingning sultoni — Alisher Navoiy, shodlik va baxt kuychisi — Hamid Olimjon, yor va diyor kuychisi — Zahiriddin Muhammad Bobur, Qadimgi So‘g‘diyoning markazi — Samarqand* kabilar.

Ko‘rinadiki, misollardagi nomlarni izohlovchi jumlar bilan nomlar o‘rtasida mazmuniy jihatdan qandaydir yaqinlik va bog‘liqlik

sezilib turibdi. Shundan kelib chiqqan holda, biror nomni har qanday soʻz yoki birikma bilan izohlash toʻgʻri boʻlavermaydi, deb aytish kerak.

Mubolagʻa va litota. Mubolagʻa yunoncha giperbola soʻzidan olingan boʻlib, boʻrttirish, orttirib koʻrsatish degan maʼnoni bildiradi. Litota esa, uning aksi boʻlib, haddan tashqari kichraytirish maʼnosini bildiradi. Litota termini mumtoz adabiyotda tafrif sanʼati deb yuritiladi. «Alpomish» dostonida shunday mubolagʻa bor.

Shomurti (moʻylovi) yoqalab har yonga ketgan, ichida sichqonlar bolalab ketgan, izidan tushgan pishak ularga olti oyda yetgan.

Litotaga misol:

Ul sanamkim suv yaqosinda paridek oʻlturur,

Gʻoyati nozuklugidin suv bila yutsa boʻlur. (Atoiy)

Allegoriya — yunoncha soʻz boʻlib, qochiriq, kesatiq degan maʼnoni bildiradi. Bu trop ham soʻzlarning koʻchma maʼnosiga asoslanadi. Ijodkor mavhum tushunchalar toʻgʻrisida aniq tasavvur hosil qilish niyatida uni biror xususiyati bilan yaqinlashadigan narsalar orqali tasvirlaydi. Mumtoz shoir Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari allegoriyaga asoslangan. Undagi «*Tuya bilan boʻtaloq*», «*Toshbaqa bilan chayon*», «*Maymun bilan najjor*» kabi masallaridagi obrazlar allegorik xususiyatga ega. «*Tuya bilan boʻtaloq*» masalida erki oʻzida boʻlmagan kishining fojiasiga, «*Toshbaqa bilan chayon*»da doʻst tanlashda adashmaslik kerakligiga ishora qilinsa, «*Maymun bilan najjor*» masalida esa qoʻlidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda boʻladi, degan fikrlar ifodalanadi.

Maqollarda allegoriya koʻplab uchraydi. Masalan, *koʻrpangga qarab oyoq uzat, boʻyingga qarab toʻn bich, men ne deyman, qoʻbizim ne deydi* kabilar.

Simvol — qadimgi greklarda maxfiy bir tashkilot aʼzolarining bir-birlarini bilishlari uchun qoʻllangan shartli belgi.

Hayotiy voqea, tushuncha va narsalarning ifodasi uchun soʻzlarni maʼlum ravishda koʻchma maʼnoda ishlatishga simvol deyiladi. Koʻchma maʼnoda ishlatilgan nom qandaydir bir xususiyati bilan maʼlum hayotiy voqea va tushunchalarni eslatib turishi kerak. Masalan, tong — quvnoqlik, yoshlik, baxt ramzi. Akademik shoir Gʻafur Gʻulomda tong — gʻalaba ramzi. U «Sen yetim emassan» sheʼrida «**Tong** yaqin,

tong yaqin, oppoq tong yaqin» deb g'alaba yaqinligiga ishonishga chaqiradi. Hayotda simvol ko'p ishlatiladi. O'zbekiston gerbidagi *Humo qushi — baxt* ramzi. Olimpiadadagi *besht halqa — beshta qit'a* ramzi, *non — to'qchilik* ramzi va hokazo.

Jonlantirish. Jonsiz narsalarning inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlanishi jonlantirish deyiladi:
Masalan:

<i>Sel quyadi, shamol tut qoqib,</i>	<i>Sel quyadi bo'g'ot tagida</i>
<i>Duv to'karu bulaydi loyga,</i>	<i>Shumshaygancha mudrar</i>
	<i>musicha.</i>
<i>Xushbo'y sochin yuvadir rayhon</i>	<i>Ko'zlarini mahkam yumvolib,</i>
<i>Boshin qo'yib tuproq yuziga,</i>	<i>Cho'miladi shoxida g'uncha.</i>
	(Tursunoy Sodiqova)

Apos' nafa. Bunda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga jonli narsadek murojaat qilinadi. Ya'ni bu o'rinda jonlantirilayotgan narsa murojaat qilayotgan kishiga nisbatan nafaol holatda bo'ladi. Masalan,

Qizgaldog'im, qirdan bo'lak koshonang yo'q,
Kokil yoysang, toshdan bo'lak toshoyng yo'q.
O'ksib-o'ksib turganingda o'zim borib,
Peshonangdan o'pay desam, peshonang yo'q...
...Qabrim uzra hilpirab tur, qizg'aldog'im,
Muhammaddan bo'lak do'st-u, devonang yo'q...

(Muhammad Yusuf)

Apostrofaning yana bir ko'rinishlaridan o'zi yo'q kishiga suhbatda ishtirok etayotganday murojaat qilinadi:

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
«Salom» degan so'zning salmog'in oqlang.
O'lganda yuz soat yig'lab turgandan, —
Uni tirigida bir soat yo'qlang!

(Maqsud Shayxzoda)

Nazorat savollari

1. O'xshashlikka asoslangan ko'chimlar qaysilar?
2. Istehzoga asoslangan ko'chimlar qaysilar?
3. Ironiya, antifraza, sarkazm bir-biridan qanday farqlanadi?
4. Mubolag'a va litota nima?
5. Perifraz, simvol nima?
6. Jonlantirish asosidagi ko'chimlar qaysilar?

Tayanch so'zlar

Metafora — o'xshatish.

Metonimiya — boshqa nom berish.

Sinekdoxa — qism yoki butun orasidagi munosabatni bildiradi.

Epitet — sifatlash.

Sarkazm — achchiq, zaharxanda.

Simvol — shartli belgi.

Jonlantirish — jonsiz narsani inson kabi harakat qiladigan qilib tasvirlash.

Apostrofa — jonsiz narsaga jonliday murojaat qilinadi.

Perifraz — aylana, atrof, boshqacha gapiraman, degan ma'nolar ifodalanadi.

**STILISTIKA FANIDAN
AMALIY MASHG'ULOTLAR**

1-mashq. Quyidagi misollarni ko'chiring. Ulardagi so'zlashuv stiliga xos xususiyatlarni aniqlang.

1. — Voy-buy, — dedi Ko'pakbiy, — manav shoiring bizning Turkistonni ham turklarga berib jubormokchi-g'u!.. — Ne demoqchisan? Biz Rum turkidan tarqaganmizmi?

(Pirimqul Qodirov)

2. Oqsoqol, arboblar aytdi: «Kel-e, Qalmoq-shoha borayik, ...o'zimizni garang qilmayik. («Alpomish»)

3. Fatxilla gangib qoldi.

— Hazil-ku bu, hazilni tushunmaysanmi? — dedi g'uldirab.

— Xo'p, bu ikkinchi masala, — dedim men. — O'zi kani?

— O'shatda, — ensasi qotib gapirdi Fatxilla. — Oyisi bir xalta varaqi somsa berib yuborgan ekan, kavshab o'tiribdi.

— Somsa yevotgan bo'lsa, Parpi borsin, — dedi kulib Vosiq.

— Mayli borsam, bora qolay, — deb dik etib o'rnidan turdi Parpi.

— Jaa bo'lmasa, xaltasi bizga qolsin, — dedi kimdir.

— Xomtama bo'lma, ochofat, oyimqizga o'zim tuya qilib beraman. (O'lmas Umarbekov)

2-mashq. Quyida «Alpomish» dostonidan keltirilgan o'lanning qaysi stilga kirishini aniqlang va stilga xos belgilarini ko'rsating.

Bodom bikach

Andiyama, Qultoyqul, mandiyama, yoy-yoy,
Sakkuch egan ko'pakday sandiyama, yoy-yoy,
Oq changalning tubiga chiyib keldim, yoy-yoy,
Ichib olsang chuvchuning qondiyama, yoy-yoy.

«Qultoy»

Andiringdan, yengajon, mandiringdan, yor-yor,
Kulcha yopib non yegan tandiringdan, yor-yor,
Duppa-durust odamni ko'ppak deysan, yor-yor,
Ko'ppak itlar tortsin-da chandiringdan, yor-yor.

**3-mashq. Quyidagi matnning qaysi stilga xos ekanligini aniqlang.
Uning stilistik belgilarini ko'rsating.**

TARIX FALSAFASI: TUSHUNCHA VA MOHIYAT

Tarix falsafasini teologik (ilohiyat) nuqtayi nazaridan idrok etish o'tmishni Alloh irodasi orqali tushunish va unga ilohiy tus berish, ilohiy mazmun orqali anglash hisoblanadi. Metafizik tarix falsafasi hech qanday chegaralar va doiralalar bilan cheklanmaydigan, turli shakllarga va ko'rinishlarga kiradigan tushunchalar tizimi hisoblanadi. Idealistik tarix falsafasiga ko'ra esa, asosan, g'oyalar, insonning axloqiy tushunchalari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari asosida tarixga munosabat bildiriladi. Insoniyat tarixiga va hayotiga tabiiy (naturalistik) yondashish tarix falsafasining yana bir yirik oqimi sifatida ko'zga tashlanadi. Unda hissiyot va tuyg'u orqali inson tabiatiga baho berishga va inson tabiati, fe'l-atvori, uning ta'sir doirasini belgilashiga e'tibor beriladi. (Narzulla Jo'rayev)

**4-mashq. Quyida berilgan rasmiy stil namunasi bilan tanishib,
uning shakliga e'tibor qiling va o'zingiz haqingizda
bir necha xil ariza yozing.**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti rektori
G'.Bekmurodovga
O'zbek tili va adabiyoti fakultetining
2-kurs talabasi Dilnoza Nazarovadan

A R I Z A

Sog'lig'im yomonlashganligi va uzoq muddat davolanishim zarurligi tufayli menga bir yillik o'quv (akademik) ta'tili berishingizni so'rayman.

Arizamga tibbiyot muassasasining xulosasi ilova qilinadi.

(sana)

imzo (Dilnoza Nazarova)

5-mashq. Quyidagi rasmiy stil namunasi bilan tanishing. Uning shakliga e'tibor qiling. Matnning rasmiy stilga xos xususiyatlarini aniqlang. O'zingiz haqingizda tavsifnoma yozing.

O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti Xalqaro jurnalistika
fakulteti 2-bosqich talabasi
«LG GRANT» tanloviga nomzod
Zilola Ubaydullayevaga

T A V S I F N O M A

Ubaydullayeva Zilola Anvarovna 1985-yil 25-martda Andijon viloyatining Jalaquduq tumani Oyim qishlog'ida tug'ilgan, millati o'zbek, partiyasiz, turmushga chiqmagan.

Ubaydullayeva Zilola 2008-yili O'zbekiston davlat jahon tillari

universitetining xalqaro jurnalistika fakultetiga o'qishga kirgan. Hozir u 2-kursda tahsil olmoqda. U barcha fanlardan «a'lo» baholarga o'qib, chet tillarini ham yaxshi o'zlashtirmoqda. O'zi o'rganayotgan tilda gaplashadigan xalqning tarixi va madaniyatini ham o'rganmoqda. Ingliz va rus tillaridan matnlarni tarjima qilib, matbuotda chop ettirib keladi. Yoshlar hayotiga oid muammolar to'g'risidagi hamda talabalar faoliyatiga doir maqolalari respublika gazetalarida muntazam e'lon qilinadi. U mutaxassislik fanlarini yaxshi o'zlashtirgan. Ubaydullayeva Zilola «Jahon jurnalistikasi nazariyasi, amaliyoti va tarixi» kafedrasida professor-o'qituvchilari rahbarligida ilmiy ish olib boradi. U o'zining izlanuvchanligi, tirishqoqligi tufayli «iqtidorli talaba» degan nomga loyiq topildi.

Ubaydullayeva Zilola odobi va namunali xulqi bilan ustozlari, tengdoshlari nazariga tushgan, ko'pchilikning hurmatini qozongan.

Ubaydullayeva Zilolaning kelgusida yetuk jurnalist bo'lib yetishishiga va o'ziga bildirilgan ishonchni oqlay olishiga umid qilamiz.

**Jahon jurnalistikasi nazariyasi,
amaliyoti va tarixi
kafedrasining mudiri**

dotsent B.Do'sqorayev

Guruh rahbari

N.Toshpo'latova

6-mashq. Quyidagi matn turini aniqlab, uni aniqlangan stil bo'yicha tahlil qiling.

QO'LINGNI OG'ZINGDAN OL

Agar bolalarda yomon odat bir yildan beri davom etayotgan bo'lsa, uni yo'qotish uchun ham shuncha vaqt ketadi.

Bolangiz hamisha tirnog'ini tishlab, qo'lini og'ziga solsa yoki burnini kavlayversa, bu albatta, sizga yoqmaydi. Lekin ularni bu yomon odatlardan qaytarish undan ham mushkulligi sizni xunob etadi. Yomon odatlarga qarshi kurash boshlagan ota-onalar ko'pincha uchta xatoga yo'l qo'yishadi.

Birinchi xato

Bolangiz tirnog'ini ataylab tishlaydi.

Yo'q, unday emas. Olimlarning fikricha, bu yerda insonning tug'ma his-tuyg'usi negizida shakllangan harakat muhimdir. Axir bolani hech kim tirnoq tishlab, burun kavlashga o'rgatmagan, shunday emasmi? Bu degani, bu xatti-harakatni bolaga tabiat in'om etgan. Xuddi maymun ham burnini tozalab, tishi bilan tirnoqlarini olib tashlaganidek, inson bolasi ham shu usulga ongsiz ravishda taqlid qiladi. Maymun miyasida maxsus mexanizm bor, ular bu jonivorni o'zini tozalab turishga undaydi, maymun o'z xatti-harakatidan rohatlanadi. Go'dakka ham bu harakatlar yoqadi. Demak, tirnoq tishlamasligi uchun (axir u maymuncha emas va o'ziga boshqacharoq qaraydi) ushbu jarayonni boshqa narsa bilan almashtiring. Bu kabi yomon odatlarni qilishga moyil bolalarga hayotda e'tibor, ota-onasining mehri, o'ziga ishonch yetmaydi. Bola shu bilan ovunadi, u barmog'ini so'rib, o'rindiqda likillaganicha maza qiladi. Bu paytda u o'z uyidami yoki mehmondami, unga buning farqi yo'q.

Ikkinchi xato

Yomon odat bilan o'zimiz kurasha olamiz, shifokorga borish shart emas. Bu noto'g'ri. Ha, to'g'ri, bunday odatlar ota-onasi o'ta qattiqqo'l, mehrga zor bolalarda ko'proq uchraydi. Lekin ularni miyadagi kamchiliklar ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, og'ir kechgan homiladorlik yoki tug'uruqning qiyin kechishi. Yana uchinchi sabab ham bor — bu bolaning o'sishdan qolishidir. Shuningdek, uch sabab baravar kelishi ham mumkin. Shuning uchun ham faqat psixonevrolog shifokorgina qanday sabab tufayli ushbu holatlar kelib chiqqanini aniqlab, nima qilish kerakligi haqida to'g'ri tavsiyalar bera oladi. Ya'ni bolaning miyasini band qilish kerakmi, uni rivojlantirish zarurmi yoki faqatgina mehr va muhabbat rishtalari bilan uni o'rab-chirmash darkormi, tanlab beradi.

Uchinchi xato

Bola shunchaki o'zini tutishni bilmaydi. Uni jazolash kerak. Bolaning qo'lini og'ziga solib, burnini kavlashi uchun jazolash

teskari ta'sir etishi mumkin, axir bu xatti-harakat uning o'ziga ham yoqadi, shuning uchun u sizga o'chakishib, aksini qilishi mumkin. Taqiq bilan ish bitira olmaysiz. Juda ko'p ota-onalar farzandlari barmoqlariga xantal surib qo'yib ham ko'rishgan. Ba'zi bir bolalar nafaqat bu odatlarini tashlashmagan, balki endi xantalning achchiq ta'mi og'izlariga yoqib, onalaridan uni yana surib qo'yishini iltimos ham qilishgan... Qaysidir bir bo'yoqchi ota bolasining barmoqlarini bo'yoqqa tiqib oldi. Shunday bo'ldiki, bola endi qo'lini bo'yoqsiz so'rmay qo'ydi va faqat bo'yoq so'rab, xarxasha qilishga tushdi. Oqibatda, bolaning miyasi zaharlanishgacha bordi.

7-mashq. Quyidagi matnning stilistik xususiyatlarini aniqlang.

SHARQ QADRIYATLARIDAN BIRI

Sharq qadriyatlari bebahodir. Shuning uchun ham ularga amal qilgan Sharq qizlarining bahosi baland bo'lib kelgan. Ibo, hayo shunchaki odat yoki fe'l emas, u – ilm, baxtga yetaklovchi ilmdir. Qizlarimizning xaridorlari ko'pligidan boshlari osmonda etsa-da, ammo nigohlari hamisha yerda bo'lgan. Ular otalariga, akalariga, hatto onalariga ham tik qaramaganlar. Erkaklarning oldidan kesib o'tmaganlar. Darvozaxonadan erkak ovoz kelsa, dadil ro'baro' bo'lmaganlar. Bo'yiga yetgan qizlar ota-akalarining oldida oyoq uzatish, yonboshlash tugul, birga o'tirib ovqatlanmaganlar. Ularning huzurida uzun lozimlar kiyib, iliklarini ko'rsatmay yurganlar. Kishining ko'ziga tik qarash qiz bola uchun, qo'pol qilib aytganda, libos yechishday uyat hisoblangan. (Tursunoy Sodiqova)

8-mashq. Quyidagi matnning qaysi stilga xosligini aniqlang va uning leksik, grammatik stilistika bo'yicha xususiyatlarini yozing.

Ona ko'ngli bolada...

JINSI SHIM KIYGAN QIZIM

Turmush o'rtog'im vafotiga 15 yil bo'ldi. O'zim fizika fanidan maktabda dars beraman. Ikkinchi qizim Toshkentda, Nizomiy nomidagi davlat pedagogika universitetining bitiruvchisi...

U o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlab, yuqori ball bilan o'qishga kirgan. Uch yil yaxshi o'qidi, xulqi ham joyida edi. Oddiy kiyinardi. 4-kursdan boshlab juda o'zgardi. Sentabrdan beri Toshkentda. Uyga bir enlik xat yozmadi. Tez-tez tushimga kiradi. Juda bezovta bo'ldim.

Noiloj poyezdda Toshkentga jo'nadim. So'rab-surishtirib, yotoqxonaga bordim. Bexosdan yotoqxonada menga ro'baro' kelgan qizimni ko'rdim-u, esim og'ib qoldi. Sochi yer supuradigan, oddiygina kiyimdagi, pardoz-andozni bilmagan Gulchehram qani? Uch yil mobaynida har haftada bizni sog'inib xat yo'llaydigan munis, oqila, dono qizim qani?

Shundoqqina qarshimda sochi o'g'il bolalarnikiday qirqilgan, yuz-ko'ziga bo'yoq chaplab tashlangan, ko'ksi ochiq kofta, jinsi nimcha, tor jinsi shim kiygan, labi qip-qizil bo'yalgan qizim turardi... Necha oydan buyon ko'rishmagan ona-bola bir-birimizga qarab qotib qoldik...

O'zimni zo'rg'a qo'lga olib, uning ortidan 4-qavatga, xonasiga sudralib bordim. Kirsak, yana 3 nafar talaba qiz bor ekan. Salomlashdik. Alam, nafrat ko'ksimni kuydirdi. Ko'z yoshimni ichimga yutib, ularga termuldim.

Ikkitasi xuddi Gulchehraday kiyingan. Faqat to'rtinchi qiz oddiygina kiyingan ekan. Qizimni rosa urishdim, kiyimlarini almashtirishni talab qildim. Gulchehra esa institutda o'qiydigan hamma qizlar hozir shunday kiyinishini, agar shunday qilmasa, domlalar

(yolg'on ham evi bilan), talabalar hurmat qilmasligini aytdi. Qarang, onasini aldashni o'rganibdi.

Men va oilam yemay-ichmay, topganimizni Toshkentga, Gulchehraga yuborsak, u ahmoqchilik qilib yursa! O'ylayverib, kasal bo'lib qoldim.

9-mashq. Quyidagi publitsistik stilda yozilgan maqolani stilistik jihatdan tahlil qilib, to'g'ri va xato tomonlarini ko'rsating.

MEHR O'LCHAB BERILMAYDI

Zarur ish bilan tanishim rahbar bo'lib ishlaydigan tashkilotga bordim. U meni ko'riboq qabuliga navbatsiz kiritdi. Uning huzurida bir odam ham bor edi. Ularning suhbatini tugaguncha boshliq xonasida, yumshoq o'rindiqlarda o'tirib kutdim. Biroz muddat ularning muomala-muloqotini kuzatdim. O'zimni noqulay seza boshladim. Boisi, boshliq inson nafsoniyatiga tegadigan so'zlar bilan haligi kishini koyirdi. Ko'p o'tmay ularning suhbatini tugadi. Haligi odam bir necha topshiriq olib tashqariga chiqib ketdi.

Boshliqqa kelishimdan maqsadni aytdim. Oramizdagi suhbat juda qisqa o'tdi. Ishni bitira turib, yoqimsiz bo'lsa ham yuqoridagi holat bo'yicha munosabatimni bildirdim.

— Jo'ra, rahbarlik madaniyatiga ozgina rioya eting. Huzuringizga kim kelishidan qat'i nazar, shirinso'z, samimiy bo'ling. Nima qilganda ham insondan bir og'iz yaxshi gap qoladi. Siz uchun eng muhimi shu emasmi? Bugun bir kishini so'ksangiz, ertaga sizni ko'pchilik qanday qarshi olishini bir o'ylab ko'ring-a? Avvalo, uzr-ku, buni tengdosh bo'lganim uchun aytyapman-da, — dedim.

— Nimasini aytasiz, birodar. Rahbarlik yuki og'ir ekan. Bizni ham bundan besh battar qilishadi. Qattiqroq talab qilmasangiz, ish yurishmaydi-da, — deb o'zini oqlamoqchi bo'ldi.

Ko'kdagini lochin, yerdagini muxbir ko'radi, deganlari rost ekan. Bunday voqealarga jurnalistik faoliyatimning ko'p qirralarida guvoh bo'lib kelayapman. Ayrim tashkilotlarda muomala madaniyatiga

yo xodim, yo rahbar e'tibor qilmayotgani insoniylik qonuniyatlariga mutlaqo xos emasligini ta'kidlamoqchi edim.

Rahbar tushunchasini izohlab o'tirishga hojat yo'q, menimcha. Biroq ish talab qiluvchi bilan ish bajaruvchi o'rtasida insoniy munosabatlar o'rnatilmas ekan, o'sha joyda ish maromida borishiga shubha bor. Bajarilmay qolgan topshiriq uchun rahbar imkon qadar o'z xodimidan muloyimlik bilan sababini surishtirib, oxiriga yetishi lozim. Inson hayotida turli holatlar ro'y berishi mumkin: goh kayfiyat ko'tarilib ishga kelamiz, goh turmush tashvishlaridan qiynalib, asabiy holda bir ishni nihoyasiga yetkazolmay qolishimiz mumkin. Bularni, albatta, rahbar tushunishi kerak.

Ish bor joyda kamchilik ham bo'ladi. Qaerda ish bo'lmasa, o'sha joyda kamchilik topa olmaysiz. Biz huquqiy demokratik jamiyat qurish sari ildam borayapmiz. Har kim o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan holatga kelishi uchun, avvalo, insoniy fazilatlarimizni ongimizga singdirishimiz kerak. Busiz milliyligimizni anglash mushkul.

Nima uchundir o'z haq-huquqini himoya qilgan shaxslarni keyingi vaqtlarda ko'pchilik rahbarlar, kishilar «shikoyatchi» deb laqab qo'yib olishga o'rganib qolayaptilar. Yoxud «yovuzchi» deb har joyda ta'na qiladigan odat chiqarib olishgan. Kim ularga o'z huquqlarini himoya qilgan kishilarga bunday munosabatda bo'lishga kafolat bergan, bilmayman. Matbuot nashrlarida, teleko'rsatuvlarda muomala madaniyatiga, ish yuritish uslubiga rioya etayotgan rahbarlar, shaxslar haqida aniq dalillar asosida biron bir maqola yoritilganini hech eslolmayman.

Rahbarga obro' keltiradigan ham o'sha oddiy odamlar ekanini hech qachon unutmasligimiz kerakligini donishmandlar tajribasidan ham bilsa bo'ladi,

Jahlni tiyish, o'zini har qanday vaziyatda tuta bilish, u rahbarmi, oddiy insonmi, fazilat hisoblanadi. Zotan, bir-birimizdan mehrimizni qizg'anmaylik. O'sha sadoqatli, mehrni o'lchab berishdan saqlanaylik. Saxiylik, muruvvat, odamiylik bobida bag'rikeng bo'laylik.

10-mashq. Quyidagi matnning qaysi stilga xos ekanligini va stilistik belgilarini aniqlang.

Aytilgan paytga yetib kelgan Mavlono Fazliddin Boburni ko'rdi-yu, tug'yon ichida:

— Biz Navoiyni ulug' ijodlari uchun «hazrat Alisher» der edik. Siz turkiy tilli adabiyotimizning Navoiydan keyingi eng ulkan siymosidirsiz. Shu sababli sizni adib va shoir sifatida «Bobur hazratlari» deyishga haqlimiz, — dedi.

— Minnatdormen, mavlono... Siz Agrada, Sekrida, Dexalpurda ajib ko'shklar, oromgohlar barpo etdingiz... Xudo umr bersa, men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug' bir madrasaning tarxini sizga... chizdirmoqchi edim... Opa-singillarimizning qadrini boshimizga ko'tarsak arzigay. (Pirimqul Qodirov)

MORFOLOGIK USLUBSHUNOSLIK **Ot stilistikasi**

11-mashq. Ko'plik shaklining stilistik ma'nolarini aniqlang. Uning turli nutq stillarida ishlatilish xususiyatlarini tavsiflang.

1. Sog'inib erdim: bahor bo'ldi bahona, do'stlar. (Sobir Abdulla)
2. Axloq o'rgatuvchilar Xolmurod bilan bahslashishga tushgan bo'lsalar-da, lekin asl maqsadlari boshqa edi. (Parda Tursun)
3. Sizning beton qorishmangizning sifati boshqa qorishmalardan nimasi bilan farqlanadi? (gazetadan)
4. Uning quyuq qoshlari ko'tarilib, chiroyli ko'zlari charaqladi. (Asqad Muxtor)
5. Qanaqa onalar ekanki, kelinini oldiga solib to'y-hashamlarda yuradigan. (Said Ahmad)
6. Ichi qora zotlar yaxshi bilsinlarki, men qayerda bo'lmayin, haqiqatni qo'riqlayman. (Oybek)
7. O'choq boshida qo'polgina, qirq besh yoshlar chamasi bir xotin choy qaynatib yuradir. (Abdulla Qodiriy)

12-mashq. Quyida keltirilgan gaplardan egalik affikslarini toping, ularning stilistik ma'nolarini izohlang.

1. Poyavzal bozori va uning burchagidagi hovli. (Abdulla Qodiriy)
2. Mehmonimiz o'sha edi, — dedi qutidor, — toshkandlik Yusufbek Hoji otliq yaqin oshnamning o'g'li. (Abdulla Qodiriy)
3. Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyoving shundog' bo'lsa, — dedi. (Abdulla Qodiriy)
4. Oyisi, qizchaga nima olib keldingiz? (jonli so'zlashuvdan)
5. Tog'angiz savodsiz bo'lsa ham, dunyo ishlarini yaxshi tushunar edi. (Said Ahmad)
6. Ko'zimizning nuri, belimizning quvvati hayotimizning mevasi o'g'limiz Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'aykim... (Abdulla Qodiriy)
7. Nevarasi buncha shirin bo'lmasa odamning, — deb chol qizchani quchoqlab ko'tardi. (Said Ahmad)
8. Tojixon o'zlaridan ibrat olsa, kamina kuyovlaridan ibrat olsam, turmushimiz bundan ham yaxshi bo'lib ketsa ajab emas. (Abdulla Qahhor)

13-mashq. Qaratqich kelishigining belgisi va belgisiz shakllarini ajratib, o'ziga xos stilistik xususiyatlarini tavsiflang.

1. Marg'ilonning havosi buzuq ekan, bir-ikki kundan beri manim ham ahvolim o'zgarib boshladi. (Abdulla Qodiriy)
2. Tariximizga nazar solsak, nafaqat oddiy kasb egalari, balki toju taxt egalari, davlat arboblari orasida ham bir qo'li bilan saltanat izmini tutib, ikkinchi qo'lida qalam tebratgan allomalarimiz ko'plab o'tganligining guvohi bo'lamiz. (Gazetadan)
3. Qo'shiqchilarning biri kuyladi.
4. O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari amaliyotni Nafis san'at litseyida o'tkazdilar.
5. Har bir narsaning yangisi, do'stning eskisi yaxshi (Maqol).
6. Metro bekatlari ko'rkam va hamisha odamlar bilan gavjum.
7. Hozirgi vaqtda chuchuk yer osti suvlarining asosiy qismi Farg'ona vodiysida joylashgan. («Fan va turmush»)
8. Usmonovni ko'rib, shofyor yigit kabinaning chirog'ini yoqdi va eshikni ochib qo'ydi. (U. Umarov)

14-mashq. Tushum kelishigining belgili va belgisiz ishlatilish sabablarini ayting. Tushum va chiqish kelishigi shakllarining sinonimiyasidagi stilistik bo'yoqni ko'rsating.

1. Pazandasi yopadi shirmon,

Qarilari kutadi mehmon. (Hamid Olimjon)

2. Huv ko'lga borib, baliq ovla. (Mamatqul Hazratqulov)

3. Zafar ularga yor bo'lib, dushmani orqaga sura boshlashdi. (Mirkarim Osim) 4. Tuni bilan g'o'za sug'ordik. (Hamid G'ulom) 5. Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozni yoyib tashladi. (Mirkarim Osim) 6. Anor o'rtaga dasturxon yozib, ikki lagan mantini qo'ydi. (Abdulla Qodiriy)

7. U Cho'l bobo bilan ishkonda tok ochayotgan bo'lsa kerak. (Hamid G'ulom) 8. Onasining qaqur-quqirlarini ortib, erining uyiga keldi. (Abdulla Qodiriy) 9. Tush ko'rsam, onam chiroq ko'tarib yurganmish. (O'tkir Hoshimov) 10. U telefon raqamlarini tera boshladi. (O'ktam Usmonov) 11. Dehqonboy devordan oshib, Hafizaning oldiga o'tmoqchi bo'ldi. Qiz devor oshib uning ketidan quvladi. (Abdulla Qahhor) 12. Keyin o'zim yaxshi ko'rgan shokoladdan uzatib: «Bor, endi birpas o'ynab kelgin», — dedi. (Xudoyberdi To'xtaboyev) 13. Yanagi yildan dalalarning bariga shu Azizning nomidan ekardim. (O'ktam Usmonov)

15-mashq. Jo'nalish kelishigi shakllari va ularning variantlarini aniqlang. Bu kelishik shakllarini stilistik jihatdan tavsiflang.

1. Ot qiz bilan bolalarni ko'targancha havoga uchib ketdi. (O'zbek xalq ertaklari) 2. Dadam guldor shoyi ro'molni opamga uzatdi. (O'tkir Hoshimov) 3. Traktorchi shu yerga cholni yotqizib, ko'kragiga suv sepayotgan edi... (O'lmas Umarbekov) 4. Tushgan cho'g'larni qo'raga terdi. (Hamid G'ulom) 5. Afandi o'choqqa o't yoqishga ko'p urindi. (latifa) 6. Zumradbibi osh suzishga lagan yuva boshladi. (Hamid G'ulom) 7. Go'shtni onangga to'g'rab ber. (Abdulla Qodiriy) 8. Husnixat mashq qilib o'tirgan bolalar ichidan ikkitasini

gulzorni supurib, suv sepishga buyurdi. (Abdulla Qodiriy) 9. Bir oy to'lmashdan kir yuvishga ruxsat berdi. (Abdulla Qodiriy) 10. Agar shahanshoh bizga mehmon bo'lib kelsa, qirq qo'chqor so'yamiz. (Mirkarim Osim) 11. Feruza qo'lining xamirini unga qorib tushirib, uyga kirib ketdi. (Hamid G'ulom) 12. Shohimiz safar kamarini beliga bog'ladi. (Mirkarim Osim) 13. U meni ko'rpaga o'radi — menga ko'rpani yopdi. 14. Boshini yostiqa qo'ydi — boshiga yostiqni qo'ydi.

16-mashq. O'rin-payt va chiqish kelishigi shakllarining stilistik vazifalarini tavsiflang.

1. So'z valentligini tadqiq etish o'zbek tilshunosligida ancha keng tarqalgan. (Miraziz Mirtojiyev) 2. Oyim bo'lsa, uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi. (O'tkir Hoshimov) 3. 0,8 protsent paxtani oktabrda yarim kunda terib topshirsa bo'ladi. (Hamid G'ulom) 4. Chap tarafingizda gugurt bor, olib shamni yoqib yuboring. (latifa) 5. Afandi ariq bo'yida o'tirib, qo'yning kallasini yuvar edi. (latifa) 6. Yigitlarimizning maqsadi ko'prikning ikki tomonidan chiqib turgan o'q yogochlarni arralab, uni bir-ikki joyidan uzib tashlash edi. (Pirimqul Qodirov) 7. Chopar sakrab egardan tushdi-yu, otini qoziqqa bog'ladi. (Mirkarim Osim) 8. Siddiqjon etagini qoqib o'rnidan turdi-yu, jadallagancha ko'cha eshikka qarab ketdi. (Abdulla Qahhor) 9. Uyda non yopilmaganidek bozordan ham sotib olinmas edi. (Abdulla Qahhor) 10. Bahorda sel kelib, yozda qurg'oqchilik kuchayib, paxtaning yarmidan ko'pi qayta ekildi. (O'lmas Umarbekov) 11. Shulardan bittasini ushatib, hovuzning o'rtasiga otdi. (G'afur G'ulom) 12. Nonlardan bittasini uzatdi — nonlarni berdi. 13. Shuncha yildan beri harakat qilib ko'rgan posyolkamiz bitdi. (O'lmas Umarbekov) 14. Chekkasiga ipakdan chiroyli xoshiya tikilgan. (Xudoyberdi To'xtaboyev)

SIFAT STILISTIKASI

17-mashq. Sifatlarni toping. Ularning stilistik xususiyatlarini aniqlang.

1. To'ybekaning hangomalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirdsa ham hozir yopishib kelmadi. (Abdulla Qodiriy)
2. O'g'lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajratsang. (Abdulla Qodiriy)
3. Qiz o'jarlik bilan qorani oq deb isbot qilishga urinar edi. (Oybek)
4. Katta yo'lning narigi betidagi oziq-ovqat do'konidan odamlarga turtina-surtina yoshgina bir juvon chiqib keldi. (O'ktam Usmonov)
5. U semirib, katta kishilardek yag'rin qo'yib, yetilgan edi. (O'ktam Usmonov)
6. Ammo keksa professorni respublikadagi deyarli hamma joyda yaxshi tanishar, o'tkir paxtashunos olimligidan tashqari, katta tashkilotchi, rahbarlardan biri bo'lganini ham bilishar, eslashar edi. (O'ktam Usmonov)
7. Aziz rais va shofyori bilan sovuqqina ko'rishdi-da, ikkovlariga oldidagi burni uchgan gardim choynakdan iliq choy quyib berdi. (O'ktam Usmonov)
8. U bo'sh tovoqni chetga surdi-da, shop mo'ylovlarini silab, o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi. (O'ktam Usmonov)
9. Bo'sh qop tik turmaydi. (O'ktam Usmonov)
10. Burchakdagi kichkinagina stoli ketishidan oldin qanday yig'ishtirib qo'yilgan bo'lsa, o'shanday turibdi. (O'ktam Usmonov)

18-mashq. Sifat darajalarini toping va ularning stilistik xususiyatlarini tushuntiring.

1. O'zimcha yanada tiniqroq, yanada shirinroq tuyg'ularni topganday edim. (O'ktam Usmonov)
2. Indira benihoya g'aroyib chaqaloq edi.
3. Bu oiljanob go'zalga nima deyishni bilmas, qaerdan so'z boshlashga hayron edi. (Abdulla Qodiriy)
4. Juda ham tabiati qiziq yigit. (Abdulla Qodiriy)
5. Qotmadan kelgan, bug'doy rang yuzli, oppoq fmkasini oq kalaminka shimiga qistirgan, qo'lida kattakon sumka ko'targan Aziz o'shanda Saltanatga shu qadar jilmayib boqdiki... (O'ktam Usmonov)
6. U irodasi va aqlini

yo‘qotgan edi, bamisoli o‘pqonga tushgan xassimon, o‘zini butkul majruh tuyg‘ular qo‘liga topshirgan edi. (O‘ktam Usmonov) 7. Aziz kap-katta rahbar odamdan bunday haqorat eshitganiga chidolmay qoldi... (O‘ktam Usmonov) 8. Qarshidagi uyning har ikki darichasi ham yopiq, ammo tirqishlaridan sham yorug‘ligi ko‘rinar va boyagiga qaraganda sekinroq bir tovushda so‘zlashish eshitalar edi. (Abdulla Qodiriy). Olamdagi jamiki narsa-hodisalarning kattasidan tortib, eng maydasining ham mohiyati bir. (O‘ktam Usmonov)

SON STILISTIKASI

19-mashq. Sonlarni toping. Ularning stilistik xususiyatlarini aniqlang.

1. Dahlizda to‘xtab, cho‘ntagini kavlay boshladi, narigi uyning eshigiga suyangan holda yotsirab turgan Behzodni chaqirdi-da, ikki dona shokolad berdi. (O‘ktam Usmonov) 2. Yettidan sal oshgan, ammo kech kuz bo‘lganligi uchun tevarvk-atrof qorong‘u. 3. O‘zimga mumkin emas, chunki... ikki tomong‘a ham o‘ng‘aysiz. (Abdulla Qodiriy) 4. Tag‘in bir oz so‘zlashgandan so‘ng, Otabek daftaridan ikkita xat chiqarib berdi. (Abdulla Qodiriy) 5. Uning shuncha yil ichida boshidan o‘tganlari bir soatlik vaqtga cho‘zilib ketdi. (Abdulla Qodiriy) 6. — Uch kishiga tanho o‘zi? — qutidor ishonmagan edi. (Abdulla Qodiriy) 7. To‘rttagina o‘g‘limiz bor. To‘rttovi ham armiyada. (Hamid G‘ulom) 8. Xona eshigi oldida yuzlarcha odam narbat kutib turibdi. (Nazir Safarov) 9. Paxtaning o‘zi har yili millionlab daromad keltiradi. 10. Shanbalikda har birimiz uchtdan ko‘chat o‘tqazdik.

20-mashq. Bir so‘zining stilistik xususiyatlarini aniqlang.

1. Mahamat chatoq Azizlarnikiga birinchi bor tushganidan boshlab, to shu paytgacha ro‘y bergan voqealarni bir-bir eslay boshlaydi. (O‘ktam Usmonov) 2. «Bir jihatdan shularga ham yaxshi, issiqqina uy...», degan fikr o‘tdi xayolidan. (O‘ktam Usmonov) 3. Shu yo‘sinda makkor Homidning iblisona hiyla-nayrangi bir oilani tamom ishdan chiqarayozgan. (Abdulla Qodiriy) 4. Qutidor bir tomondan dahshatga tushsa, ikkinchi jihatdan Otabekning dovyurakligiga hayron qolar edi. (Abdulla Qodiriy) 5. Saroy eshigidan o‘rta yoshli, uzun bo‘yli, echki soqolli, oriqliq bir odam kirib keldi. (Sadriddin Ayniy) 6. O‘tgan yilgi bo‘g‘inning har bir ko‘stagida o‘rta hisobda besh-olti grammdan paxta yetilgan edi. (O‘ktam Usmonov)

FE’L STILISTIKASI

21-mashq. Quyida berilgan matndagi fe’llarni stilistik jihatdan tahlil qiling.

PIYOZ... AMYOBANI HAM YO‘Q QILADI

Kundalik hayotda ovqatga solib yoki salatlariga qo‘shib iste’mol qilinadigan piyozning shifobaxshligini bilamiz. Uning vatani Tyan-Shan tog‘ yonbag‘irlari hisoblanadi...

Piyoz tarkibida fitonsid deb ataluvchi achchiq hidli modda bo‘lib, u bir daqiqa ichida milliardlab bakteriyalarni qiradi. Misol uchun, yong‘oqdekkin piyozni chaynab, so‘ng so‘lak tekshirilganida og‘iz bo‘shlig‘ida bittayam mikroblar qolmagani aniqlangan. Olimlar o‘tkazgan yana bir tajriba ham qiziqarli: idishdagi sho‘rvani zararli mikroblar bilan zaharlab, ustiga to‘g‘ralgan piyoz sepib qo‘yishdi. Ma’lum vaqt o‘tgach, bakteriyalar ko‘payishdan to‘xtab, asta-sekin qirila boshlagan. Sho‘rva esa iste’molga yaroqli bo‘lib qolgan.

– Piyozdagi fitonsid moddasi mikroblariga emas, amyoba

singari bir hujayralilarni, hatto, baqa, sichqon, kalamush kabi hayvonlarni ham halok qilishi mumkin, — degan edi professor B.Tokin.

Xalq tabobatida piyoz ko'pgina kasalliklarni davolashda qo'llanadi.

Cho'qqa ko'milgan piyozni fasodli yaraga bog'lash, shamollaganda, gripgayoliqqanda piyozning sutsimon suvini burunga tomizib, nafas yollarini ochish yoxud ko'k piyoz qo'shilgan qatiq vositasida uyqusizlikdan xalos bo'lish kabilarni eslatib o'tish o'rinli. Piyozning turli navlaridan yuqori nafas yo'llari yallig'lanishida, sil, ateroskleroz, astma, singa, ovqat hazm bo'lishining buzilishi, gijjalarga qarshi kurashda ham foydalanilgan.

Bosh og'irlashganda, quloq shang'illashida, yiring va suv paydo bo'lganida quloqqa piyoz seli tomiziladi. Suvi ko'zni ravshan qiladi. Sariq kasal uchun ham foydali. Piyoz seliga tuz aralashtirib, quturgan it tishlagan joyga surtilsa, foyda qiladi.

SINTAKTIK STILISTIKA

22-mashq. Quyida berilgan gaplarni grammatik stilistika jihatidan tahlil qiling.

1. Hindlarda ham ayol zotiga ehtirom zo'r ekan, hatto sig'inadigan xudolari orasida ham ayollar bor. (Pirimqul Qodirov)
2. Qarindoshsan qilay izingni tavof, Sen mening so'zima bergansan javob. («Alpomish»)
3. Oypopuk, Oypopuk!.. Buloqdek tiniq, sof inson, tengi yo'q qiz!.. Uni sevmay bo'larmidi?! U — hayotning o'zi, u — kelajak, bitmas-tuganmas orzular!.. (O'lmas Umarbekov)
4. Lev Tolstoy «Urush va tinchlik» romanida «Biz birovni bizga qilgan yaxshiliklariga qarab emas, o'zimizning ularga ketgan yaxshiliklarimizga qarab yaxshi ko'ramiz», — deydi. (Tursunoy Sodiqova)
5. Garchi shuncha mag'rur tursa ham, Piyolaga egilar choynak... Piyolani inson shuning-chun, O'par doim peshonasidan. (Erkin Vohidov)
6. Xalqimizning «Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r» degan maqolini eshitgan bo'lsangiz kerak. (G'afur G'ulom)

23-mashq. Gazetalardan sintaktik sinonimiyaga oid 10 ta misol toping.

24-mashq. Ritorik so'roq gaplarga oid 10 ta gap toping.

25-mashq. Qo'shma gaplar tuzing va ularni sodda gaplarga aylantiring.

26-mashq. Sodda va qo'shma gaplar ishtirokida bog'lanish'i matn tuzing va uni stilistik jihatdan tahlil qiling.

27-mashq. Gazetadagi biror matni stilistikaning barcha xususiyatlari bo'yicha tahlil qiling.

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MAVZULAR

1. Har bir stil ko'rinishidagi matn namunalarini albom varag'iga yopishtirib, yozma ravishda stilistik jihatdan tahlil qiling.
2. Rasmiy stilda yozilgan har bir hujjat bo'yicha misollar yozing.
3. Ilmiy stil asosida maqola yozing.
4. Publitsistik stil turlari bo'yicha o'zingizning materialingizni yarating.
5. Badiiy stil turlari bo'yicha o'zingizning materialingizni yarating.
6. Gazeta, jurnal, radio va televidenie materiallaridan stilistik xatolarni aniqlab, ularga izoh bering.

8. Badiiy stilga xos gapni aniqlang.

- A. Til — millat vakillarini mustahkam tutib turuvchi belbogʻ.
- B. Bakteriyalarni oʻldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda boʻladi.
- C. Qutbiddinov bola bechorani koʻp urishdi.
- D. Sal oʻtmay osmonda sut rang nur purkab chaqin chaqdi.

9. Quyidagi gaplardan ilmiy stilga tegishlisini aniqlang.

- A. Dunyo yaratilibdiki, birovga baxt, birovga alam keladi.
- B. Sodda gap tuzilishiga koʻra yigʻiq yoki yoyiq boʻlishi mumkin.
- C. Mafkura boʻlmasa, odam, jamiyat, davlat oʻz yoʻlini yoʻqotishi muqarrar.
- D. Mushfiq onaning hasratlari bir dunyo edi.

10. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri faqat badiiy stilga tegishli?

- A. Nigoh. B. Boqish. C. Qarash. D. Nazar.

11. Quyidagi sinonim soʻzlarning koʻproq soʻzlashuv stiliga tegishlisini aniqlang:

- A. Iqbol. B. Baxt. C. Tole. D. Saodat.

12. Til vositalarinig nutqda ishlatilish imkoniyatlari tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?

- A. Morfologiyada. B. Leksikologiyada.
- C. Grammatikada. D. Stilistikada.

13. Uslubiy xoslangan soʻzlar qatorini toping?

- A. Binobarin, mazkur. B. Dudoq, gapirmoq.
- C. Qaroq, daftar. D. Bayonnoma, ovqat.

14. Maʼlum adabiy til meʼyoriga boʻysungan, tartibga solingan soʻzlashuv stiliga ... deyiladi.

- A. Ilmiy stil. B. Oddiy soʻzlashuv stili.
- C. Badiiy stil. D. Adabiy soʻzlashuv stili.

21. Qaysi sinonimik qatorda noto'g'ri qo'llanilgan so'z bor?

- A. Bemahal, to'satdan, bevaqt.
- B. Cho'loq, oqsoq, lang.
- C. Chiqim, sarf, xarajat, xarj.
- D. Chora, iloj, tadbir, imkon, yo'l, amal.

22. Quyidagi sinonim so'zlardan qaysi birida salbiy bo'yoqdorlik kuchli?

- A. Qaysar.
- B. O'jar.
- C. Battol.
- D. Ters.

23. «Aruz vazni hijolarining talaffuzidagi uzun-qisqaligiga asoslangan bo'lib, musiqa bilan chambarchas bog'liqdir.» Ushbu gap qaysi stilga misol bo'la oladi?

- A. Rasmiy stilga.
- B. Publitsistik stilga.
- C. Badiiy stilga.
- D. Ilmiy stilga.

24. «Voy, boshingdan aylanib ketay seni. Sog'intirib qo'yding-ku ayajoningni» gaplari qaysi stilga misol bo'la oladi?

- A. Publitsistik stilga.
- B. Badiiy stilga.
- C. So'zlashuv stiliga.
- D. Rasmiy stilga.

25. «Yomg'ir suvidan bahra olib yashnayotgan sahro giyohlari, endigina bosh ko'targan tuyaqorin ham asta badaniga kuch yig'a boshladi.» Ushbu gap qaysi stilga misol bo'la oladi?

- A. So'zlashuv stiliga.
- B. Badiiy stilga.
- C. Ilmiy stilga.
- D. Rasmiy stilga.

26. Ma'noviy sinonimlar berilgan qatorni toping?

- A. Ho'l, shalabbo.
- B. Respublika, jumhuriyat.
- C. Doston, poema.
- D. Tilshunoslik, lingvistika.

27. Nutq madaniyatiga to'liq ta'rif berilgan qatorni aniqlang.

- A. Mantiqiy izchillik va adabiy til me'yorlariga rioya qilish.
- B. To'g'ri yozish qoidalariga rioya qilish.
- C. Lug'aviy me'yorlarga rioya qilish.
- D. Yoqimli so'zlash

28. Stilistik bo‘yoq, ta’sirchanlik mavjud bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

- A. Bolagina, o‘quvchi, qushcha. B. Kitobcha, suv, gazetxon.
C. Qizgina, qizcha, onajon. D. Onajon, ko‘zim, bosh.

29. Ma’noviy sinonimlar berilgan qatorni toping.

- A. Yuz, bet, ko‘klam, chehra, bahor.
B. Kuldi, iljaydi, ishshaydi, jilmaydi, tirjaydi.
C. Tilshunoslik, lingvistika, grammatika.
D. B, C, D.

30. Qaysi stil turida tilning tasviriy-ta’siriy vositalari yordami bilan obrazlar vositasida kishiga estetik ta’sir ko‘rsatiladi.

- A. Rasmiy stilda. B. Publitsistik stilda.
C. Ilmiy stilda. D. Badiiy stilda.

31. Ushbu matn qaysi stilga tegishli? «Bodom fevral oyida gullaydi. Qayrag‘och qurilish materiali, shuningdek, mebel korxonalari uchun qimmatli xomashyo.»

- A. Ilmiy stilga. B. Publitsistik stilga.
C. Badiiy stilga. D. Rasmiy stilga.

32. Ushbu matn qaysi stilda berilgan? «Jo‘yaklarda suv bir hovuch ko‘z yoshiday miltirab oqib turibdi. Quyosh qaymoq surtilgan shirmon nondek ufqqa qizarib bota boshladi.»

- A. Publitsistik stilda. B. Badiiy stilda.
C. Ilmiy stilda. D. Rasmiy stilda.

33. Ushbu ta’rif qaysi stilga mos keladi? «Obrazlar, obrazli tasvirlar bilan emas, aniq ma’lumotlarning xolis, umumlashgan xususiyatlarini ta’riflash, tushunchalarga mos keladigan atamalar bilan ish ko‘radigan stildir.»

- A. Badiiy stilga. B. Publitsistik stilga.
C. Ilmiy stilga. B. Rasmiy-idoraviy stilga.

34. Ilmiy stilga xos asosiy belgilardan biri noto‘g‘ri bayon qilingan qatorni belgilang.

- A. Shartli belgilar qo‘llanmaydi.
B. Undalmali gaplar, his-hayajonli gaplar deyarli qo‘llanmaydi.

- C. Tilning tasviriy-ta'siriy vositalari ishlatilmaydi.
- D. Matn monologik nutq tarzida bo'lib, dialoglar bo'lmaydi.

35. *Ukamga oldim, ukam uchun oldim* kabi sinonimlar qanday sinonimlar deb yuritiladi?

- A. Lug'aviy sinonimlar.
- B. Uslubiy sinonimlar.
- C. Frazeologik sinonimlar.
- D. Grammatik sinonimlar.

36. Til vositalarining nutqda ishlatilish imkoniyatlari tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

- A. Leksikologiyada.
- B. Stilistikada.
- C. Grammatikada.
- D. Dialektologiyada.

37. Rasmiy stilda ko'pincha qanday gaplardan foydalaniladi?

- A. Asosan darak va buyruq gaplardan.
- B. Faqat darak gaplardan.
- C. Asosan buyruq gaplardan.
- D. Asosan buyruq va his-hayajon gaplardan.

38. Frazeologik sinonimlar berilgan qatorni aniqlang.

- A. Asosan buyruq va his-hayajon gaplardan.
- B. Tilshunoslik, lingvistika, kosmos, fazo, doston, poema.
- C. Asosan buyruq gaplardan.
- D. Qo'lni yuvib qo'ltiqqa urmoq, hafsalasi pir bo'lmoq; kayfiyati uchib ketmoq, yuragi yorilayozdi.

39. Quyidagi matn qaysi stilga xos?

17-modda. Fuqarolarning huquq layoqati. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlarga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

- A. Ilmiy.
- B. Publitsistik.
- C. Rasmiy.
- D. Badiiy.

47. *Obraz, traktor, direktor* kabi soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinidagi keyingi unli tovush deyarli talaffuz etilmaydi. Bu oʻzbek adabiy tilining qanday meʼyori sanaladi?

- A. Orfoepik meʼyori.
- B. Orfografik meʼyori.
- C. Leksik meʼyori
- D. Fonetik meʼyori.

48. Asosan badiiy stilga xos boʻlgan izn (izn bermoq) soʻzining sinonimini toping.

- A. Ixtiyor.
- B. Ijzat.
- C. Erk.
- D. Nishona.

49. Qisqalik, aniqlik, soddalik, shuningdek, ibora va jummalarning bir qolipda boʻlishi asosan qaysi stilga xos?

- A. Ilmiy stilga.
- B. Soʻzlashuv stiliga.
- C. Rasmiy stilga.
- D. Badiiy stilga.

50. «Oʻrtoq rafiqam! Ruxsat bersangiz, turmush qurganimizga bir yil toʻlishi munosabati bilan sizni tabrik qilishga!» Ushbu gap qaysi stilga misol boʻla oladi?

- A. Soʻzlashuv stiliga.
- B. Rasmiy stilga.
- C. Ilmiy stilga.
- D. Badiiy stilga.

51. «Borolmadim: ishim chiqib qoldi. Ertaga boraman.» gaplari qaysi stilga xos?

- A. Badiiy stilga
- B. Rasmiy stilga.
- C. Ilmiy stilga.
- D. Soʻzlashuv stiliga.

52. *Bizningcha, uningcha, demak, xulosa qilganda, birinchidan, ikkinchidan* kabi kirish soʻzlari qaysi stilga xos?

- A. Ilmiy stilga.
- B. Rasmiy stilga.
- C. Soʻzlashuv stiliga.
- D. Badiiy stilga.

53. Asosan, fikran, zarur, kerak kirish soʻzlari qaysi stilga tegishli?

- A. Badiiy stilga.
- B. Rasmiy-ish stiliga.
- C. Ilmiy stilga.
- D. Soʻzlashuv stiliga.

61. Sintaktik sinonimlar berilgan qatorni aniqlang.

- A. Xat yozdim. Xat yozildi; kuz shamoli, kuzgi shamol.
- B. Ishni boshlash, kelyapti, o'qiyotir.
- C. Esi chiqib ket-di — qo'rqdi; kelyapti, o'qiyotir, ishlayapti.
- D. Esi chiqib ketdi — qo'rqib ketdi; yog' tomsa yalaguday — toza.

62. Quyidagi so'zlardan qaysi biri badiiy stilga xos?

- A. Singari.
- B. Kabi.
- C. Yanglig'.
- D. O'xshash.

63. Quyidagi rang bildirgan so'zlardan badiiy stilga tegishlisini toping.

- A. Zangori.
- B. Moviy.
- C. Ko'k.
- D. Havo rang.

64. Quyidagi sinonim so'zlarning ko'proq so'zlashuv stiliga tegishlisini belgilang.

- A. Maza.
- B. Rohat.
- C. Huzur.
- D. Lazzat.

65. Quyidagi gaplardan ilmiy stilga tegishlisini belgilang.

- A. Mayin shamol daraxt yaproqlarini asta tortqilaydi.
- B. Qani endi, hamma senga o'xshasa.
- C. Yonishning tashqi belgisi issiqlik va yorug'lik chiqishidir.
- D. Hosidan bo'shagan yerlar haydalib, sho'r yuvishga tayyorlab qo'yildi.

66. So'zlashuv stilida qo'llanadigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Chidamli, barobar, g'arib.
- B. Bashar, mozor, yaxshi, kasal.
- C. Ado etmoq, behuda, yopiq.
- D. Rostdan, bo'ldi, mayli.

67. Quyidagi sinonimlardan rasmiy stilga tegishli so'zlarni aniqlang.

- A. Ketmoq.
- B. Tushmoq.
- C. Ozod qilinmoq.
- D. Bekor bo'lmoq.

- C. Stakanlarning ikkovida ham rangli eritma bor.
D. Ma'lumotnoma tuman hokimiyatiga ko'rsatilsin.

75. Keltirilgan matnning stilini toping. «Oyijon, oyijon, boshginam ogriydi-yo» (qo'shiqdan).

- A. Rasmiy-idoraviy. B. So'zlashuv.
C. Badiiy. D. Ilmiy.

76. So'zning o'z ma'nosidan ko'chishi qaysi stilda uchraydi?

- A. Ilmiy, rasmiy. B. Rasmiy, publitsistik.
C. Publitsistik, ilmiy. D. Badiiy, so'zlashuv.

77. Rasmiy stilga xos xususiyatni belgilang.

- A. Ibora va jumlar ma'lum qolipda bo'ladi.
B. Ko'p ma'noli so'zlar ishlatiladi.
C. Terminlar qo'llaniladi.
D. Shevaga xos so'zlar faol qo'llaniladi.

78. Barmog'ini tishlab qolmoq iborasining sinonimi qaysi qatorda berilgan?

- A. Aldamoq. B. G'azablanmoq.
C. Hayratlanmoq. D. Afsuslanmoq.

79. Qaysi qatorda grammatik me'yor buzilgan?

- A. Umrini tog'larda o'tkazgan odamni tabiatni tushunmaydi deyish qiyin.
B. Ko'zining oq-u, qorasi bo'lgan Otabekning holi nima kechdi?
C. To'lqinning xayolini yana qo'shnining qizi bo'ldi.
D. Institutga yaqinroq bog'lardan birontasiga borib dars tayyorlamoqchi edi.

80. Tovush takrori stilistik vazifa bajarayotgan so'z qatnashgan gapni toping.

- A. U Naziraning gapidan qattiq ranjidi.
B. Salimov nima deyishini bilmay g'o'ddayib turaverdi.
C. O'qituvchi bitiruvchilarga katta muvaffaqiyatlar tiladi.
D. Vatanimiz muhofaza qudratini oshiringiz.

81. Bir sinonimik qatorga mansub quyidagi soʻzlarning ijobiy maʼnoga egasini belgilang.

- A. Turq.
- C. Aft.

- B. Bet.
- D. Chehra.

82. Stilistik notoʻgʻri qoʻllangan soʻz qaysi qatorda berilgan?

- A. Paxtagulladi.
- C. Salohiyatli olim.

- B. Shohona kiyim.
- D. Bahorni sevasan.

83. *Boringlar* va *borlaring* soʻzlari oʻrtasida qanday stilistik farq bor?

- A. Birinchisi kitobiy stilga xos.
- B. Farq yoʻq.
- C. Birinchisi moʻtadil (neytral) soʻz, ikkinchisi salbiy boʻyoqqa ega.
- D. Ikkinchisi umuman ishlatilmaydi.

84. Gapping davomini mantiqiy jihatdan eng muvofiq tarzda tugallaydigan qatorni toping? «Pul topishning turli yoʻllariga kirish bilan...»

- A. teatrning shuhratini tezda tiklab boʻlmaydi.
- B. teatrning shuhratini darrov tiklab boʻlmaydi.
- C. teatrning shuhratini ertaga tiklab boʻlmaydi.
- D. teatrning shuhratini aslo tiklab boʻlmaydi.

85. Ushbu gaplardan qay birida soʻz qoʻllashda stilistik xatolik mavjud?

- A. Chiroyli ashulalar eshitib dam oldik.
- B. Zumradning oqilaligi, zukkoligi va suluvligiga katta-kichik maftun boʻldi.
- C. Bu oʻrinda sukut saqlash insofdan emas.
- D. Anvar uydan chiqib, toʻgʻri saroy tomonga ketdi.

86. Fikr hissiy-taʼsiri boʻyoq bilan ifodalangan qatorni aniqlang.

- A. Bu yoʻllardan Sayyoraning boshi gʻovlab ketdi.
- B. Bolalar behad quvonib, Yoʻlchining boʻyniga osilishdi.

- C. Men sizga aytсам, odamning yomoni bo'lmaydi.
- D. Toshkent atrofida ham sho'x manzara joylar ko'p.

87. Stilistik jihatdan betaraf so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Iltijo, chehra, zurriyot, hozirlamoq.
- B. Ajoyib, ajib, dushvor, udum.
- C. Aytmoq, odat, odam, yorug'.
- D. Mushkul, bashara, sohil, hassa.

88. Faqat insonlarga nisbatan qo'llanadigan so'zlar qatorini aniqlang.

- A. Sudralmoq, ho'l bo'lmoq, akillamoq, bezmoq.
- B. Ag'anamoq, namlanmoq, bag'ishlamoq, joylamoq.
- C. Balandlamoq, talashmoq, tushmoq, sakillamoq.
- D. Bekinmoq, tanovul qilmoq, ivib ketmoq.

89. Qaysi qatordagi gap stilistik jihatdan xato qo'llangan?

- A. Yoqimli shamol esa boshladi.
- B. Do'stlikni ardoqlash kerak.
- C. Bolali uy — bozor, bolasiz uy — mozor.
- B. Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir.

90. Stilistik jihatdan eng muvofiq so'zlar orqali shakllangan gapni toping.

- A. Ona diyorim, yer uzra baxting kulsin.
- B. Ona diyorim, zamin uzra toleying kulsin.
- C. Ona diyorim, yer uzra toleying kulsin.
- E. Ona diyorim, zamin uzra baxting kulsin.

91. Qanday so'zlar stilistik betaraf so'zlar hisoblanadi?

- A. Barcha stillarda ishlatiladigan so'zlar.
- B. Shevaga xos so'zlar.
- C. Kasb-hunarga xos so'zlar.
- D. Atamalar.

92. Quyidagi gaplarning qaysi biri stilistik jihatdan qo‘pol shakllangan?

- A. Butun hayotimni o‘qituvchilik ishiga bag‘ishladim.
- B. Qaysi biringiz rohat qilib, mehnatda o‘sdingiz?
- C. Tug‘ishi yaqin bo‘g‘oz xotinlar ham ishga chiqmaydilar.
- D. Bog‘imizda yosh olma ko‘chatlari yaxshi ko‘kardi.

93. Quyidagi gaplarning qaysi biri stilistik jihatdan noto‘g‘ri shakllangan?

- A. Ko‘zing og‘risa, qo‘lingni tiy, tishing og‘risa, tilingni.
- B. Jarohati og‘irligidan kasal tinmay ihrar edi.
- C. Sotiboldining xotini og‘rib qoldi.
- D. Dard chekmagan dori qadrini bilmas.

94. Ushbu gaplardan qaysi birida so‘z qo‘llashda stilistik xatolik bor?

- A. Go‘zal qiz Oysuluvning basharasida ter ko‘rindi.
- B. O‘zi xomush, yuzlari so‘lg‘in edi.
- C. Xabarni eshitib, qizning chehrasi yorishdi.
- D. Xalq sizning jamolingizni ko‘rishga muntazir.

95. Qaysi qatordagi gapda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini ko‘makchi bilan almashtirish mumkin emas?

- A. Qishdan ming mashaqqatda chiqib olishdi.
- B. Xalq maqollarida chuqur zukkolik bor.
- C. Xatni qizil siyohda yozgan edi.
- D. Kecha poyezda kelibdi.

96. Adabiy tilning faqat yozma shakli uchun xos bo‘lgan me‘yorlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. B, C.
- B. Orfografik me‘yor.
- C. Punktuatсион me‘yor.
- D. Grammatik me‘yor.

97. Quyidagi birikuvlardan qaysi biri noto‘g‘ri?

1) kamchilikka erishmoq; 2) muvaffaqiyatsizlikka erishmoq; 3) mutlaqo to‘g‘ri; 4) shirin xotira.

- A. 1, 4.
- B. 3, 4.
- C. 1, 2.
- D. 2, 4.

98. «Yo'l ko'rmagan yo'ldan ozar.» Ushbu maqolda qo'llangan chiqish kelishigining qo'shimchasi qaysi kelishik qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'lishi mumkin?

A. Chiqish kelishigi boshqa kelishiklar bilan sinonimik munosabatda bo'lmaydi.

B. Tushum kelishigi bilan.

C. Jo'nalish kelishigi bilan.

B. Chiqish kelishigi bilan.

99. Qaysi qatorlarda ijobiy bo'yoqdor so'zlar berilgan?

A. B, D.

B. Mazali, husn, qonmoq, ko'karmoq.

C. Ayb, ayyor, kambag'al, o'jar.

D. Jamol, alomat, miriqmoq, bejirim.

100. Qaysi qatordagi birlikning qo'llanishi stilistik jihatdan xato hisoblanadi?

A. Qayd qilmoq.

B. Qayt qilmoq.

C. Qayd etmoq.

D. Qayt etmoq.

TEST JAVOBLARI

1-D 11-B 21-A 31-A 41-A 51-D 61-A 71-D 81-D 91-A
2-C 12-D 22-C 32-B 42-C 52-A 62-C 72-B 82-A 92-C
3-A 13-A 23-D 33-C 43-D 53-B 63-B 73-D 83-C 93-B
4-C 14-D 24-C 34-A 44-C 54-C 64-A 74-A 84-D 94-A
5-C 15-D 25-B 35-D 45-A 55-D 65-C 75-C 85-A 95-B
6-A 16-A 26-A 36-B 46-D 56-A 66-D 76-D 86-B 96-A
7-B 17-B 27-A 37-A 47-A 57-C 67-C 77-A 87-C 97-C
8-D 18-C 28-C 38-D 48-B 58-A 68-A 78-C 88-D 98-A
9-B 19-A 29-B 39-C 49-C 59-B 69-C 79-C 89-C 99-A
10-A 20-D 30-D 40-B 50-D 60-D 70-A 80-B 90-B 100-D

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: «O‘zbekiston», 2005.
2. Abdurahmonov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi.–T.: «O‘qituvchi», 1981.
3. Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – М.: 1977.
5. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari . Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 1991.
6. Розентал Д.Е. Практическая стилистика русского языка. – М.: 1974.
7. Pardayev A., Ro‘ziyev F., Mahamadaliyev X. Jurnalistikada til va ifoda. – T.: «Istiqlol», 2006.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –T.: «Universitet», 2006.
9. Rahmatullayev Sh. Sistem tilshunoslik asoslari (til qurilishini tizim sifatida o‘rganish masalalari). – T.: «Universitet», 2007.
10. Томашевский Б.В. Стилистика. – Ленинград: 1983.
11. Toshaliyeva S. O‘zbek tilida okkazonalizmlar. Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 1998.
12. To‘ychiyeva Sh.F. Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanida ijodkor dunyoqarashi va badiiy uslub muammolari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2006.
13. To‘xtasinova O. O‘zbek tilida leksik okkazonalizmlar va ularning badiiy-estetik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2007.
14. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1983.
15. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – T.: 1999.
16. Qo‘ng‘urov R., Karimov S. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati: bibliografik ko‘rsatkich. – Samarqand, SamDU nashri, 1984.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Stilistika fan sifatida	5
Nutq stilistikasi	9
Soʻzlashuv stili	12
Rasmiy stil	16
Ilmiy stil	20
Publitsistik stil	26
Badiiy nutq stili	32
Fonetik stilistika	38
Leksik stilistika	42
Qoʻllanishi chegaralangan leksikaning stilistik xususiyatlari	46
Grammatik stilistika	49
Soʻz turkumlarining boshqa stilistik xususiyatlari	56
Sintaktik stilistika	61
Sintaktik figuralar	64
Troplar	68
Stilistika fanidan amaliy mashgʻulotlar	76
Mustaqil taʼlim uchun mavzular	93
Stilistika fanidan testlar	94
Test javoblari	109
Foydalanilgan adabiyotlar	110

Saodat Sultonsaidova, O'Imas Shari pova

O'zbek tili stilistikasi

Mas'ul muharrir: Salima Badalboyeva
Texnik muharrir: Nodir Ortiqov
Musahhih: Sanjar Gaipnazarov

«YURIST-MEDIA MARKAZI» nashriyoti
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.
Bosishga 01.08.09.da ruxsat etildi. Bichimi 60x84¹/₁₆.
Times garniturası. Shartli bosma tabog'i-6.
Nashr tabog'i-7. Тиражи 1000 nusxa.
Buyurtma raqami 11/09.
Bahosi kelishilgan narxda

«Kimsanova G.U» X.T. bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Bobur ko'chasi, 6.